



LEV TOLSTOY  
**IWAN ILICHNING**  
**O'LMI**

JAHON ADA BIVTI TURKUMIDAN

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество предыдущих  
выдач \_\_\_\_\_

1 год  
2024

821  
7764

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

L.N. TOLSTOY

## IVAN ILICHNING O'LIMI

*Qissa va hikoyalar*



- 083 -



ZIYO NASHR

Toshkent

2020

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
OLİY VA ÖRTA MAXSUS TA'LİN VAZIRLIGI  
TOSHKENT VİLOVATI CHIRCHIQ  
DAVALAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MƏRKAZI

## NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hisso qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, filosofi, fun va adabiyot sohasida buyuk ajoddolarimiz qoldirgan ulkan muros halil-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'riganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom al-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaykly, Mahmud Koshig'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoyiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajoddolarimiz horki, biz ularni hech ikkilannasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tanasi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajoddolarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adaptiv faoliyat, hayot turziga doimo hushyor nigoҳ va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvoqqiқ. Tarixiy manbalarni sincihiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajoddolarimiz jahon madaniyat, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan bitora madaniy-intellektual o'zgarish, bioror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chehda qolmagan. Ajoddolarimiz ularni o'qib, uqjohar ekan, o'z milliy madaniyatharini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilgancha. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilgancha bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyat, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalarini va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, manlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasisiga ko'targan bir paytda, o'mishda yashhab o'tgan buyuk ajoddolarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyat, san'ati, adabiyoti namunalarini izchil va tizimli turzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib, "Ziyo-nashr" nashriyoti bir xayrii ishga qo'lurishga bel bog'ladidi. Ya'nii joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

© H.Sattoriy va b. (Tarij).

© „Ziyo-nashr“ nashriyoti, 2020.



Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,  
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimonlar:

H. Sattoriy, M. Aliyev, K. Po'latov,  
N. Alimuhamedov

Lev Nikolayevich Tolstoy nafaqat rus, balki jahon adabiyotiga hissa qo'shgan buyuk yozuvchi hisoblanadi. Adibning „Urush va tinchlik“, „Anna Karenina“, „Tirilish“ romanlari hanuz kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Ijodkorning asarlarida inson manzaralari tasvirlangan hikoya va qissalarai jahon adabiyotining durdonalari qatoridan o'rinn olgan.

Nashriyotimiz tomonidan e'tiboringizga havola erilayotgan ushbu kitob buyuk yozuvchining qissa va hikoyalardidan saralandi.

ISBN 978-9943-6339-5-7

UZBEKISTON RESPUBLIKASI  
NATIONAL LIBRARY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ISAN NAMOZIM 2019 TURNOV

## IVAN ILICHNING O'LIMI

1

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz.

Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N. Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chekov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folker, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Bursattu, R. Akutagawa, I. Bumit, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlарини о'қишга мұйассар бола.

Mazkur yuz jildlik jahon narsining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmamatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rın olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkipida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'g'rnmalariiga bo'lgan ishonch va hummatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'nnaviyati va axloqiy o'chamlariiga muvofiq keladigan asarlarни tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki „Jahon nasi namunalari yuz jildlig'i ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mabhorat, texnik imkoniyattlar oshgan sari kamchiliklар ham bartaraф bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilmazki xayirlı niyat bilan boshlayotgan ishimizdagи juz'iy kamchiliklарni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot mualimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlарini ayamaydilar. Yaratgan Alloh ishimizni xayrlı, ajar-nukosotlarga loyiq, jonjon xalqimiz uchun manfaatlı qilsin!

Sud mahkamasining katta binosida Melvinskiyliar ishi-ga aloqadorlar va prokuror tanafus paytida Ivan Yegorovich Shebekning xonasiga kirdilar va suhbat ko'phili-ning tilida yurgan mashhur Kasov ishi yuzasidan ketdi. Fyodor Vasilyevich sudning vakolati yo'qligini isbotlab jig'i biyroni chiqdi, Ivan Yegorovich o'z fikrida sobit qoldi. Pyotr Ivanovich esa boshidanoq mojaroga qo'shilmay, bahsda ishtirok etmay, hozirgina olib kelgingan „Vedostii“ni varaqlashga tutindii.

— Janoblar! — dedi u, — Ivan Illich-chi, vafot etibdi.  
— Nahotki?

— Mana, o'qing, — dedi u Fyodor Vasilyevichga gazing-taning hali bo'yоq hidi anqib turgan yangi sonini uzatib. Qora hoshiya ichida bunday gaplar yozilgan edi: „Praskovaya Fyodorovna chuqur qayg'u bilan aziz umr yo'ldoshi, Sud palatasi a'zosi Ivan Illich Golovining ya-qinlari va qarindoshlariga uning 1882-yil 4-fevral kuni vafot etganini ma'lum qiladi. Dafн marosimi juma kuni soat 13:00 ga tayinlandi.“

Ivan Illich jam bo'lib turgan janoblarining birodari edi va hamma uni yaxshi ko'rardi. U bir necha hafta avval mazasi qochib qoldi; xabarlashganlar uning dardi bedavo ekanini bilib keldilar. Uning o'mi bo'sh turardi, shunday taxmin qilindiki, mabodo vafot etsa, bu joyga Alekseyev tayinlanishi mumkin, Alekseyevning o'miga esa yo' Vin-

nikov, yo Shabel. Shu tufayli Ivan Illichning o'limi haqida eshitganlardan keyin xonada to'plangan janoblar har binining miyasida dastlab bu qazo mahkama a'zolari yoki ularning tanishlarining mansab pillapoyasiga qanday ta'sir etishi haqidagi taxminlar ayylan boşhladi.

„Endi, ehtimol, Vinnikov yoki Shtabelning o'mi men ga tegadi, – o'yladi Fyodor Vasilyevich. – Buni menga allaqachon va'da qilishgan, bu o'sishim cho'ntagimga devonxonadan tashqari sakkiz yuz so'n olib keladi!“

„Kalugadagi qaynag'amni chaqirishim kerak ekan-da, – o'yladi Pyotr Ivanovich. – Xotinim juda xursand bo'lardi. Shunda qarindoshlarimga hech nima qilmaganim borasidagi malomatlardan qutular edim!“

– Uning qaytib o'midan turolmasligini sezgandim, – hammaga eshitirib dedi Pyotr Ivanovich. – Afsus, uvol ketibdi....

– Aytmoqchi, unga nima jin tekkan ekan?

– Do'xtirilar aniqlay olishmabdi. Ya'niki, aniqlashibdi, biroq xulosalar har xil emish. Men uni oxirgi marta ko'r ganimda, o'ziga kelib qolgandek, oyoqqa turib ketigandek tuyulgandi.

– Men esa uni o'sha bayramdan keyin ko'rmadim. Hamma yig'ilgan edi.

– Qiziq, nima bo'lgan ekan o'zi?

– Menimcha, xotini bilan o'rtaсидан qandaydir mayda gaplar o'tgan. Tushunib bo'lmaydigan.

– Borish kerak bo'ladi. It topmas joyda yashashadi o'ziyam.

– Sizga uzoq. Bizga ham tupkaning tubida.

– Men esa bir daryo narida yashayman, menga sira havas qilib bo'lmaydi, – dedi Pyotr Ivanovich Shebekka kulib. Shahar manzillarining uzoqligi haqida hangomalashib majlisga kirib ketishdi.

Bu sovuq xabar, kutilganidek, mansab kursisidagi o'zgarishlar haqidagi muham ham xayollardan tashqari mul-haza yuritgan har bir kimsada, doim bo'ladiqandek, o'lim barhaq, xayriyat, u o'libdi, men emas, deganga o'xhash chuchmal mammunlik kayfiyatini ham hosil qildi.

„O'isa, o'lgandir; biroq, mana, men hayotman“, – shunday o'yladi yoki xayol qildi har kim. Yaqin tanishlari, Ivan Illichning do'stlarini shunday atash mumkin bo'lsa, shu bilan birga beixtiyor o'zlarining gandaniga dafn etish bilan bog'liq odamni ezib yuboradigan zil-zam-bil yumushlarni ado etish, ham janozada qatnashish, ham ta'ziya izhor etish uchun marhumning motamxonasiiga borish majburiyati kelib tushgani haqida o'ylab ketdi-lar. Marhumga boshqalardan ko'ra Fyodor Vasilyevich va Pyotr Ivanovich yaqin edilar.

Pyotr Ivanovich huquqshunoslik bilim yurtida Ivan Illich bilan birga o'qigan edi va doim o'zini Ivan Illich oldida qarzdar hisoblardi. Tushlikdan oldin xotinini Ivan Illichning vafotи haqida xabardor qilib va qaynag'asini o'z okrugiga ko'chirish imkoniyati tug'ilgani hususidagi mujdani shipshitib, Pyotr Ivanovich hordiq chiqarishning ham bahridan o'tdi-da, frakini egmiga ilib, Ivan Illichning xonadoniga yo'l oldi.

Ivan Illich yashagan xonadon yo'lagida ot qo'shilgan arava bilan aravakash turardi. Pastda, kiyimxona devoriga cho'tkacha, zarrin upa bilan tozalangan, chetlariga zarhal uqa yopishtirilgan tobut qopqog'i suyab qo'yilgan edi. Qora kiyingan ikki ayol keluvchining po'stinini qo'li-dan oldi. Pyotr Ivanovich Ivan Illichning opasini tanidi, narigisini tanimadi. Keyin u yuqorida tushib kelayotgan Shvarsni ko'rди. Shvars yaqinlashib to'xtadi va ko'z qisib qo'ydi, bu bilan go'yo: „Ivan Illich bemahal hunar ko'rsatdi“, degandek tuyuldi.

Shvarsning inglizcha chakka soqolli yuzi va frak ichidagi cho'pdek gavdasidan dardchil motamsarolik ufurib turar, bu motamsarolik uning o'ynoqi fe'liga mos tushmay, nomuvofiq manzara hosil etgandi. Har holda, Pyotr Ivanovich shunday o'yldi.

Pyotr Ivanovich ayollami oldinga o'tkazib yubordi va ularning izidan sekin zinapoyaga yaqinlashdi. Shvars chiqib ketishga shoshilmay, tepada kutib turdi. Pyotr Ivanovich tushundi: u, albatta, vidolashuv rasmi qayerda o'tishi yuzasidan gapplashmoqchi. Ayollar zinapoyadan o'tib, marhumming bevasi tomon ketdilar, Shvars esa jiddiy qimtilgan, qalın lablari va o'ynoqi nigohi ila mo'ylovini uchirib, Pyotr Ivanovichni murda yotgan o'ng tomondagi xonaga imladи. Pyotr Ivanovich har doimidek bunday joyda nima joizligini lo'la anglamay, ichkariga kirdi. Faqat u bilardiki, ayni pallada cho'qinish zarar qilmaydi. Maqbul amalni bajarishda tavoze joiz-nojoizligi borasida ham ikkilanib qoldi va shuning uchun o'rta holatni tanladi: xonaga kirar ekan, cho'qindi va biroz tavoze qilgandek bo'ldi. Qo'l va bosh harakatiga monand tarzda xonaga razm solib chiqди. Ikki yosh yigit, aftidan, biri gimnazist, haytovur, jiyalar chog'i, cho'qingancha xonadan chiqishdi. Motamzada beva qimirlamay turardi. Qoshlari asabiy chimirilgan ayol umga shivritgancha nimanidir uqtirardi. Syurtukturagi dadil, shaxdam dyachok har qanday g'ashlikka o'ren qoldirmaydigan qat'iy ohangda baland ovoz bilan qiroat qillard; oshxona xizmatkorlari Gerasim Pyotr Ivanovichning yonidan yengil yurib o'tib ketar ekan, polga nimadir segandek bo'ldi. Buni ko'rib, Pyotr Ivanovich birdan sulayib yotgan murdaning yengil hidini his qildi. U Ivan Illichmiga oxirgi kelishida bu xizmatkorlari kabinetda ko'rgandi; Pyotr Ivanovich bemorming holiruhiyasidan xabar olib, xizmatida bo'lgan va Ivan Illich bu siperishi uchun uni

yaxshi ko'rib ketgandi. Pyotr Ivanovich cho'qinishni ponyoga yetkazdi, tobut, dyachok va stol ortidagi burchakku qo'yilgan ikonaning miyonasiga yengil tavoze qildi. Keyin, o'ziga cho'qinish amali juda cho'zilib ketgandek tuyulgach, to'xtadi va boshini marshum tarafiga burdi.

Mahrum barcha o'liliklar kabi tobuming to'shamasi-ga muz qotgan vujudi bilan g'arq bo'lib yotardi, boshi yostiqlqa abadiy tirkalgan, jami oxirgi safarga chiqqanlar singari o'zini namoyish etgancha, mundek sarg'aygan peshonasi chakkasi aralash chucur ajinlarga ko'milgan, yuqori labi qisib qo'ygandek burni tanqayib, tosh qotgan ko'yi og'ir cho'kib yotardi. U Pyotr Ivanovich ko'rma-gandan beri ancha o'zgargan, battar oriqlagan bo'lsa-da, barcha marhumlarda bol'gani kabi chehrasi „ochilgan“, ya'ni tirkligidan ko'ra teranroq ma'no kasb etgandi. Yuzida shunday bir qat'iy ifoda bor ediki, go'yo zimmasiga qanday vazifa yuklangan bo'lsa, barchasi to'g'ri baivo etilgan. Shu bilan birga bu ifodada tirkilarga qaratilgan ta'na va ta'kid mujassam edi. Ta'kid Pyotr Ivanovichga o'rinsizdek, jilla qursa, o'ziga tegishli emasdek tuyuldi. Nimadandir ko'ngli g'ash bo'ldi, shundan keyin Pyotr Ivanovich apil-tapil yana bir marta cho'qindi va o'zicha odamshavandalki shartlarini buzzandek bo'lsada, juda shoshib qayrildi va eshilik tomon yurdi. Shvars chatanog'ini kerib, ikki qo'l bilan silindrini o'ynagancha dahliiza kutib turardi. Shvarsning o'ynoqi, sof va yoqimtoy bir nigohi Pyotr Ivanovichni o'ziga keltirdi. Pyotr Ivanovich tushundiki, u, Shvars bu holatdan yuqori turadi va hech qanaqa vaysasaga berilmaydi. Uning turishi ta'kidlardi: Ivan Illichning dafni marosimi majlis taribining buzilishini tan olishga hech ham sabab bo'lolmaydi, ya ni bundan keyin ham hech narsa oqshomlari qarta taxlami-ni qarsillatib chiylash va shu paytda xizmatkoring yana

to 'rtta yonib bitmagan sham keltirishidan to 'xtatib qola olmaydi; umuman, bu izdihom bizga bugungi oqshomni ham ko'ngilli o'tkazishga hech monelik qilmaydi. U o'tib borayotgan Pyotr Ivanovichga pichirlab, Fyodor Vasil'yevichnikida bir qo'lga sherik bo'lishni taklif qildi. Biroq ma'lum ediki, Pyotr Ivanovichga taqdır bu oqshom yallo qilishni buyurmagandi. Beva Praskovya Fyodorovna past bo'yli, to'ladan kelgan ayol edi, xuddi tobut qarshisida turgandek qoshlari chimirilib, boshimi quyi egib oigan, qoraga burkangan, to'r ro'molini yelkaga tashlagan. Udavradoshlari qurshovida o'z xonasidan chiqli-da, hammani marhum yotgan xonaga boshhladi va dedi:

— Hozir dafn marosimi boshlandi, o'tinglar.

Shvars beixtiyor bukilgancha to'xtab qoldi, u bu taklifi qabul ham, rad ham etmaganga o'xshardi. Praskovya Fyodorovna Pyotr Ivanovichni tanib, chuqur nafas oldi, tigr'alib yaqin keldi va uning qo'lidan tutdi.

— Bilaman, siz Ivan Illichning eng yaqin do'sti bo'lqansiz... — va unga tikilib, shu kalimasiga javoban harakat kildi.

Pyotr Ivanovichga ma'lum ediki, bunday paytda cho'qinish, qo'lni uzatish va chuqur xo'rsinib, „Ta'ziz yamni qabul qiling!“ deyish lozim. U xuddi shunday qildi ham. Shunday qila turib sezdi, amal joyiga tushdi: u mutaassir edi, ayol ham mutaassir bo'ldi.

— Ketdik, u yerda marosim boshlanmasdan oldin men siz bilan gaplashib olishim kerak, — dedi beva. — Menga qo'lingizni bering.

Pyotr Ivanovich qo'lini cho'zdi va ular Shvarsni yonlab o'tib, ichki xona tomon ketdilar. Shvars g'amgin nighohlari bilan kuzatib qoldi. Uning o'ynoqi ko'zlari go'yo „Mana sizga qarta o'yini. Endi qutula olmaysiz. Boshqa hamroh topamiz. Bo'shasangiz borarsiz, mayli, beshovlon bo'larmiz“, deyayotgandek edi.

Pyotr Ivanovich yana bir bora chuqur va hasratli xo'rsindi, Praskovya Fyodorovna uning qo'lini minnatdorona qisib qo'ydi. Xira lampa yoritib turgan, devoriga pushtirang gazlama tortilgan mehmonxonaga kirib, stol atrofidan joy olishdi: ayol divanga, erkak prujinalari chiqib yotgan, oyoqlari qiyshiq pastak kursiga cho'kishdi. Praskovya Fyodorovna boshqa stulga o'tirishni taklif qilmoqchi bo'ldi-yu, holat taqozosi bilan suket saqladi. Pyotr Ivanovich kursida o'tirar ekan, Ivan Illich mehmonxonani qanday sozlagani va ayni pushtirang gulli gazlama yuzasidan u bilan maslahatlashganini eslab ketdi. Divanga stol yonidan o'tayotib (mehmonxonada ichi to'la mebel va buyum edi), ayolning qora ridosi popugi nimagadir ilashlib qoldi. Pyotr Ivanovich ridoni bo'shatmoqchi bo'ldi-yu, biroq tagidagi kursi tiyg'onib ketib, u qo'zg'alolmadi. Beva kiyimini o'zi ajratib oldi, Pyotr Ivanovich „shakkok“ kursini yana tagiga bosib olib o'tirdi. Ayol butunlay xalos bo'lmagan ekan, Pyotr Ivanovich yana qo'zg'aldi, kursi yana qiyshaydi, hatto ag'anab ketdi. Bularning hammasi joyiga tushgach, ayol yonidan toza ipak qo'iro molchasini chiqardi-da, yig'lay boshladi. Pyotr Ivanovich bo'lsa, popuk va kursi masalasini hal qilgach, tumshayib joyiga o'tirib oldi. Noqulay vaziyatga Ivan Illichning bufetchisi Sokolov barham berdi.

U Praskovya Fyodorovnaga qabristonda belgilangan joy ikki yuz so'm turishi haqida ma'lum qildi. Ayol yig'lashdan to'xtadi, mahzun holatda Pyotr Ivanovichga termilib, fransuzchalab o'ziga nihoyatda og'ir ekanini izhor etdi. Pyotr Ivanovich suket saqlab, o'z holati shunday ma'nano anglatishiga qat'iy ishonch bilan, bu vaziyatda boshqacha bo'lishi ham mumkin emasligiga ishora qildi. Cheking, marhamat, — dedi ayol viqorli, ayni paytda ezb'in ovozda va Sokolov bilan joyning narxi bo'yicha

andarmon bo'lib qoldi. Pyotr Ivanovich cheka turib kampir juda sinchkovlik bilan yerlearning turli narxalrini surishitrganini va olmoqchi bo'lgan puliga aniqlik kiritganini eshitdi. Bundan tashqari, joy masalasini hal qilib, go'yandalar yuzasidan ham topshiriqlar berdi. Sokolov ketdi.

– Hammasini o'zim eplayman, – dedi u Pyotr Ivanovichga stolda sochilib yotgan albomlarni bir chetga surar ekan; kul stolga tushayotganini payqab, shosha-pisha kuldorni Pyotr Ivanovichga yaqin surib qo'ydi va davom etdi: – Mug'ambirlirk bilan bu g'amboda kunda dunyoning ishlari bilan shug'tullanmayman, deb o'tirsam bo'laverardi. Ammo bu yumushlar meni yupatmasa ham... biroz ovunitradi, axir, shu tashvishlarning bari uning uchun-ku. – Ayol yana ro'molchasini olib yig'lashga tutindi-yu, hasratidan ustun kelgandek, bir silkinib osoyishta gapira boshлади: – Aytmoqchi, sizda mening ishim bor.

Pyotr Ivanovich tagida liqillab turgan kursining prujinalari sochilib ketmasligini hisobga olib qimirladi-da, ohista qulluq qildi.

– Oxirgi paytharda u qattiq qiyimaldi.

– Yo'g'-e! – dedi Pyotr Ivanovich.

– Ha, dahshatlil azob chekdi! Oxirgi daqiqalarda emas, soatlarda u to'xtamay qichqirdi. Surunkasiga uch kecha-kunduz ovozini yutmay qichqirdi. Bunga chidab bo'lmasdi. Tushunolmayman, men bunga qanday chidaganimga o'zim hayronman!

– Hushi joyidamidi, o'zi, bilarmidi?.. – so'radi Pyotr Ivanovich.

– Ha, – shivirladi kampir, – oxirgi daqiqalargacha. Jon berishidan chorak soat oldin biz bilan vidolashdi hatto Volodyani olib chiqib ketishni so'radi.

Dastlab sho'x bola, o'quvchi, keyin ulg'aygan o'rtoq sifatida juda yaqindan bilgan kishisining azoblanishi haqidagi fikrdan, o'zining va manavi xotimning soxta jonhalakligi yoqmayotganiga qaramay, Pyotr Ivanovich birdan dahshatga tushdi. U yana o'sha peshonani, labga tarmashgan burnuni ko'rgandek bo'ldi va bu manzaradan o'zi ham qo'rqib ketdi.

„Uch kecha-kunduz dahshatlil azob va o'lim. Taassufki, bu hozir, istalgan daqiqada men bilan ham ro'y berishi mumkin“, o'yjadi u va bir daqiqada qo'rquv dunyosiga g'arq bo'ldi. Ammo to'satdan beixtiyor sergaklandi, bu ko'rgilik Ivan Illichning chekiga tushdi, menikiga emas, men bilan bunday fojia ro'y bermaydi, degan odadagi fikr kallasiga keldi; agar shu tarzda xayol qilsa, tushkun kayfiyatga asir bo'lishimi, bunday qilish mumkin emasligiga Shvarsning hayot tarzi misol ekanini o'ylab ketdi. Shunday mulohazaga borib, Pyotr Ivanovich tinchlandi va qiziqish bilan Ivan Illichning so'nggi daqiqalari qanday kechganligini surishtira boshladi, go'yo o'lim unga emas, faqat Ivan Illichga xos sarguzashtdek.

Ivan Illich boshdan kechirgan haqiqatan dahshatlil jismoniy azoblar haqidagi har xil tafsilotlardan so'ng (bu tafsilotlarni Pyotr Ivanovich Ivan Illich chekkan azoblar Praskovya Fyodorovnaning asablariga qanday ta'sir qilganidan his etdi) beva, affidan, ishdan gapirish vaqtiga yetganini tushundi.

– Oh, Pyotr Ivanovich, qanday og'ir, qanday og'ir azob, qanday dahshatlil azob, – u yana yig'lay boshladi. Pyotr Ivanovich tin oldi va aylor burnini qoqib bo'lishini kutib turdi. Burun qoqish tugagach, dedi:

– Ta'ziyamni qabul qiling...

Birdan ayol yana gapga tushib ketdi va navbat maqsadga kelganda, erining vafoti munosabati bilan xazi-

nadan qaysi yo'llar ila ko'proq pul olish yuzasidan fikrini so'radi. Bu bilan Pyotr Ivanovichdan nafaqa jamg'armasi bo'yicha maslahat so'rayotgandek bo'ldi, biroq ko'rinish turardiki, ayol bu masalaning hatto u bilmaydigan eng mayda tafsilotlarigacha o'rganib chiqqan; harakatlar motam munosabati bilan xazinadan mo'lroq mablag' undirishga qaratilgandi; bevaning qiziqishi tovon undirishning yana ham maqbul yo'llarini izlash borasida yangi usullarni topishda edi. Pyotr Ivanovich bunday mablag' manbalari haqida o'ylay boshladi, ancha bosq qotirgandek bo'ldi va taomil bo'yicha hukumatni xasislikda la'natlab, dediki, belgilangan me'yordan chiqib bo'lmaydi. Buni eshitib, ayol chuquq xo'rsindi va suhbato shidan tezroq qutulishga bahona qidira boshladи. Gap qaysi tomonga oqqanini tushunib yetgan suhbato papiroisini o'chirib o'midan turdi va qo'l olishgach, oldingi qatorga yo'naldi.

Bir paytalar Ivan Ilich brikabradan<sup>1</sup> o'z qo'lli bilan xarid qilgan soat qo'yilgan, o'shanda rahmatli juda yayragan edi, oshxonaga kirar ekan, Pyotr Ivanovich popga, ta'ziyaga kelgan bir qancha tanishlariga duch keldi va Ivan Illichning surriyoti, chiroyli oyimqizni ko'rди. Qiz butunlay qoraga o'ranib olgandi. Uning qomati nozik, juda nozik, ayniqsa, motam libosida yana ham nozik ko'rinishdi. Chehrasi g'amgin, qat'iyatli, hatto g'azabnok edi. U xuddi Pyotr Ivanovich nimadir aybdordek, unga ta'zim qilib qo'ydi. Qizdan keyin shunday alamzada holatda yosh boyvachcha yigit turar, uning sud tergovchisi, kuyov ekanini eshitgan edi. U ham ma'yus salomlashdi va zinapoya quyisisidan Ivan Illichga quyib qo'ygandek o'xshaydigan o'g'li, gimnaziyachining qomati ko'ringach, Pyotr Ivanovich marhum

yotgan xonaga kirishni istab, o'sha tomon o'tdi. O'g'il Pyotr Ivanovichning xotirasida saqlanib qolgan bilim yurtidagi kichkina Ivan Ilich edi. Bolaning ko'zlar yig'idan qizargan va, taassufki, o'n uch-o'n to rt yoshti bolalarda uchraydigandek, shunroq edi. U Pyotr Ivanovichni ko'rgach, qovog'i solinib, peshonasi uyal-gannamo tirishdi. Pyotr Ivanovich unga boshini irg'ab qo'ydi-da, marhumning xonasiga kirdi. Motam maro-simi boshlandi – shamlar, yig'i ovozları, „o'lay“lash, ko'z yoshlari, entikishlar. Pyotr Ivanovich oyog'ining uchiga ko'zini tikkancha boshini egib qovoq solib turdi. U marhum tarafga bir marta ham nazar solmadi, oxiri-gacha bo'shashmay, o'zini mahkam tutdi va birinchilar dan bo'lib xonadan chiqdi. Oldindida hech kim yo'q edi. Oshxona xizmatchisi Gerasim xonadan otilib chiqdi-da, kiyimxonadagi jami po'stinlarni panshaxadek qo'li bilan u yon-bu yon surib, Pyotr Ivanovichning libosini topdi va unga uzatdi.

– Qalay, birodarim Gerasim? – gap qoldi Pyotr Ivanovich yo'liga, nimadir deyish uchun. – Afsusdamisan?

– Xudoning irodasi. Hammamizing borar joyimiz o'sha yoq, – dedi Gerasim oppoq, so'yloq tishlarini tiryajtirib va zamzamali xizmatga safarbar etilgan odamdek shaxt bilan eshkni ochib, izvoschchini chaqirdi, aravaga Pyotr Ivanovichni o'tqazdi va yana muhim bir ishi esiga tushgandek orqaga burildi-da, o'qdek uchib ayvon to-monga o'tib ketdi.

– Pyotr Ivanovichga toza havoda nafas olish, ayniqsa, tutatqi, murda va karbol kislotaning hididan keyin, juda yoqib tushdi.

– Qay tomonga buyuradilar? – so'radi haydovchi.

– Hali kech emas. Mayli, Fyodor Vasilyevichnikiga kiraman.

<sup>1</sup> Brikabrad (frans.) – kamyob buyumlar do'konı (izohlar tarjimonikisi).

Pyotr Ivanovich yo'lga tushdi. Haqiqatan, o'yinning birinchи davrasi tugagach, o'zining beshinchи bo'lib qo'shilishiga qartabozlarni majbur qildi.

2

Ivan Illich yashab o'tgan hayotining tarixi ham juda oddiy, ham odatdagidek, ham o'ta dahshatli edi.

Sud palatasining a'zosи Ivan Illich qirq besh yoshida vafo etdi. U Peterburgdagi turli vazirlik va departamentarda sharoitning o'zi odamlarni birqadar darajaga yetkazadigan ma'lum amalni qo'lga kiritg'an mansabdorning o'g'li ediki, hammasi kunday ravshan bo'lganidek, bundaylar qandaydir muhim vazifani bajarishga yaramaydilar, ammo baribir o'z mansab o'rinnari, o'tagan xizmatlari va yetishgan darajalariga ko'ra ularni ishdan haydab bo'lmaydi, negaki, o'ylab topilgan xufsiyona bir joyga toshdek cho'kib turishadi, olti mingdan o'n minggacha maosh tayin hamda shuzaylda to munkillagancha ivrisib yuraverishadi.

Har xil keraksziz mahkamalarning keraksiz a'zosi, maxfiy maslahatchi Ilya Yefimovich Golovin shunday odam edi.

Uning uch o'g'li bor edi. Ivan Illich ikkinchisi edi. Katta o'g'li xuddi otasi singari hayot kechirdi, faqat boshqa vazirlikda xizmat vazifasini o'tadi, endilikda o'sha oqim bilan yashab, nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan. Uchinchi o'g'il omadsiz chiqdi. U turli joylarda o'zini sinab ko'rdi, hozir temiryo l'da ishlayapti: otasi, akalari, ayniqsa, ularning xotinlari nafaqt uni ko'rishni istashmaydi, balki zarurat tug'ilganda ham uning borligini eslashni xohlashmaydi. Opa otasi kabi peterburglik amaldo, baron Grefga uzatilgandi. Ivan Illich, tan olganlaridek, oilaning faxri edi. U akasi singari sovuqqon va tartibli ham,

ukasidek tajang ham emasdi. U og'a-inilarning o'rtasida aqlii, harakatchan, yоqimtoy va batartib odam edi. Uкasi bilan huquqshunoslikda o'qidi. Uкasi o'qishni tugatmadи, beshinchи bosqichda haydaldi, Ivan Illich esa maktabni yaxshi tugatdi. Bilim yurtida u butun hayoti davomida qanday tal'at kasb etган bo'lsa, shunday edi: qobiliyatli, xushchaqchaq, saxovatlari, kirishimi, biroq g'oyat omilkor ijrochi edi va buni o'z burchi deb bilardi; bu burchni o'zidan yuqori turuvchi har qanday odamning irodasiga bo'ysunish deb tushunardi. U bolalarga, keyinchalik katalarga xushomadgo y'lik qilmasdi, biroq esini tanigandan boshlab yorug'likkа intilgan chivindek, yuqori darajadagi odamlarga talpindi, o'zicha ularning turmush tarzlarini, hayotga qarashlarini o'zlashtirdi va bunday odamlar bilan yaqin aloqa o'matdi. Bolalik va yoshlilikning barcha jozibalarini uning uchun izsiz ketdi; u hissiyor va shuhratparastlikka berildi, yuqori davralarda esa tuyg'ulari taqozo etgan darajada murosasozlik yo'llini tutdi, biroq ma'lum chegaradan chiqmadi.

Huquqshunoslikda dastlab o'ziga qabih tuyulgan harakatharni sodir etgan paytлari ham bo'idi, ularni amalga oshirgan lahzalarda o'zidan nafrathanib ham yurdy; keyinchalik bunday qiliqlar o'zi intilgan kishilar fe'l-avoriga ham begona emasligiga va ular shu hollari bilan yaramas hisoblanmasliklariiga guvoh bo'idi, ularni yaxshi deb ham bilmadi, bundaylarni butunlay umutmadи hamda ular haqidagi xotiralar xafa qilmay ham qo'yди.

Huquqshunoslikda o'ninchi sinfini tugatib, otasidan xizmat libosi uchun pul olgach, Ivan Illich Sharmerda libosga buyurtma berdi, zanjirga kasb yorlig'ini ildirib, tarbiyachi bilan xayrashdi, o'riqlari bilan Dononda tushlik qildi va yangi urf bo'lgan jomadonga eng yaxshi do'konlardan xarid qilingan choyshab ko'yylaklar va

orastalikka asqatadigan ashyolarni joylab, viloyatga, ota-si topgan gubernatorning maxsus topshirinqlar bo'yicha xodimi vazifasiga yo'l oldi.

Viloyatda xuddi huquqshunoslikda qanday bo'lsa, shunday yengil va o'ng'ay sharoitni yaratib oldi. U xizmatni ham, mansabni ham, yоqimli va yayrab dam olishni ham joyiga qo'yardi; gohida boshliqlarning topshirig'i bilan uchrashganda o'zini sipo tutar, hech vaqt maqtanmay, aniqlik va halollik bilan akasriyat buzg'unchilarni murosaga keltirish borasidagi zimmasiga yuklangan vazifalarни ado etardi.

U yosholligiga, yengil-yelpi sho'xliklarga moyilligiga qaramay, xizmat kursisida favquloda bosiq, rasmiyatchi, hatto qat'iy edi; jamoat ishlarida gohida o'yinqaroq, hozirjavob, har doim xushmuomala, odamshavanda va, al-batta, uning o'z odamlariiga aylanlib ulgurgan xo'jayimlarini aytganidek, „erkatoy go'dak“ edi.

Viloyatda olifta huquqshunosga ilakishib qolgan bir ayol bilan; bir satang bilan aloqalar bo'ldi; mehmon fligel-adyutantlar bilan ichkilikbozlik va kechki ovqat-dan keyin shahar chetidagi ko'chaga kirish ham bo'ldi; boshliqqa, hatto boshliqning xotiniga mulozamat qilish ham bo'ldi; bularning hammasi o'z shamoyiliida yuksak nazokatni singdirgan ediki, ularmi aslo yomon so'z bilan atab bo'lmassi: hammasi fransuzlarning „yoshlik quturishi kerak“, degan hikmatiga mos kelardi. Hammasi pokizza qo'llilan, toza ko'ylaklarda, fransuzcha iltifotlar bilan, eng muhimmi – jamiyatning yuqori qatlamida, yana ularning xayrixohligi ostida ro'y berdi.

Ivan Ilich shu tarzda besh yil xizmat qildi va xizmat tashkil qilindi va ularga yangi odamlar kerak edi.

U shunday yangi odamlardan biri bo'lib chiqdi. Ivan Ilichga sud tergovchisi lavozimi taklif qilindi va u garchi bu vazifa boshqa guberniyada bo'lsa-da, o'ziga nisbatan shakkllangan munosabatlardan voz kechish va yangi munosabatlar o'matishga to'g'ri kelsa-da, uni qabul qildi. Ivan Ilichni do'stlari kuzatib qo'yди, „gap“ tashkil qilishdi, esdalik uchun kumush papiros quti taqdim etishdi va u yangi joyga jo'nab ketdi.

Sud tergovchisi Ivan Ilich oldingidek komilfo<sup>1</sup>, odam-shavanda, xizmat majburiyatini shaxsiy hayotidan ajrata biladigan va maxsus topshiriqlar bo'yicha xodim sifatida jamoatchilik hurmatini uyg'ota oladigan odam bo'lib qoldi. Tergovchilik xizmatining o'zi Ivan Ilich uchun oldingi ishidan ko'ra qiziqroq va maftunkorroq edi. Oldingi xizmatida amaldorlar va ma'murlarning qabuliga kelgan, qaldirab turgan odamlarning hasadini qo'zg'ab, ularning yonidan tugmasi yaltiroq mundirda qadamlarini salmoqlab tashlab o'tib, bemaolol boshliqning xonasiga kirish, bir piyola choy ustida papiros chekib, valaqlab o'tirish unga juda-juda yoqar edi; biroq uning bunday baxtiyorligiga hasad qiladiganlar kam emasdi. Bunday odamlarni uni xizmat safariga jo'natganlarida joylardagi politsiya boshliqlari, buzg'unchilar orasida uchratardi; o'ziga tobe bunday odamlar bilan nazokatli, do'stona muomalada bo'lar, bu bilan ularni xohlasa ezib tashlash qo'lidan kelishi-yu, azbaroyi ulug'ligidan marhamat ko'rsatayotganini pisanda qilishni sevardi. Bundaylar ozchilik edi. Endi esa sud tergovchisi Ivan Ilich anglab yetdiki, hamma, juda e'tiborli, o'ziga bino qo'ygan hamma odamlar uning bir ishorasiga mahtal, xohlasa, sarlavhali mash'um qog'ozga o'sha tanish so'zлarni yozadi va o'sha e'ti-

<sup>1</sup>Komilfo (frans.) – odob-ahloqli, tarbiyalı.

borli, dimog'dor zotni aybdor yoki guvoh sifatida uning qarshisiga o'tirg'izib qo'yadilar va u hammasini hal qiladi, xohlasa, qamatadi, xohlamasa, tutqun qaltirab, uning savollariга javob qaytarishga majbur. Ivan Ilich qachon o'z hokimiyatini suiste' mol qilmagan, aksincha, vaziyatni yumshatish yo'lidan borgan; biroq bu hokimiyatni anglash va uni yumshatish imkoniyati yangi xizmat vazifasining zavq va jozibasini tashkil etdi. Xizmatda, aynan tergovchilikda Ivan Ilich har qanday murakkab ish joriy qilingan tartiblar asosida ifodalansa, uning faqat tashqi mohiyati bilan qog'ozda aks etishi, xususiy jihatlari rad etilishini anglab yetdi va asosiysi talab etiladigan jami rasmiyatchiliklar saqlanganda yuzaga keladigan xizmat doirasiga kirmaydigan barcha holatlarini inkor etish usullarini juda tez o'zlashтиrdi. Bu butunlay yangi yondashuv edi. Va u 1864-yilda amaliyotga joriy qilingan nizomlarga ilovalarni ishlab chiqqan kishilarning dastlabkilaridan edi.

Bu shaharga sud tergovchisi vazifasiga o'tgach, Ivan Ilich yangi tanishlar orttirdi, bordi-keldilarni yo'lga qo'ydi, o'zini boshqacharoq tutdi, hammasiga yangicha tus berishga intildi. U guberniya ma'muriyatidan ancha uzoqlashdi, tanishlarni esa shaharda yashayotgan studyalar va boy zodagonlar davrasidan orttirdi, odamlardagi hukumatdan yengil norozilik kayfiyatini yuqtirdi, murosasozlik va rivojlangan fuqarolik tartiblarini yoqladi. Shu bilan birga, Ivan Ilich o'z orastaligini bir qadar o'zgartirib, yangi vazifada iyagini qirtishlashni bas qildi va soqoliga qancha xohlasa, shuncha o'sish imkonini berdi.

Ivan Ilichning yangi shahardagi hayoti juda ko'ngiligi edi: gubernator bilan ixtiyolda bo'lган jamoa totuv va hamjihat edi; mablag' yeb-ichishga yetardi, yana qarta o'yini uning hayotiga o'zgacha zavq bag'ishlardi, u qarta rini qadrhaydigan hamrohni ko'rdi. Ivan Ilich ikki mu-

o'ynaganda shod-xurram bo'lar, bu o'yinning nozik jihatlarini o'zlashtirib olgan, shuning uchun aksariyat holda yutib chiqardi.

Bu joydag'i ikki yillik xizmati davomida Ivan Ilich o'zining bo'lajak umr yo'ldoshini uchratdi. Praskovya Fyodorovna Mixel Ivan Ilich o'ralashib qolgan davradagi eng istarasi issiq, aqli, harakatlariдан o'tchaqnab turgan qiz edi. Tergovchi Ivan Ilich mehnatiga dam beruvchi ermak va farog'atlar qatori Praskovya Fyodorovna bilan ko'ngilochar, yengil munosabat o'rmatdi.

Muhim topshiriqlar bo'yicha xodimlik davrida Ivan Illich raqsiga tushishni qoyillattardi; sud tergovchisi bo'lgach, yo'liga raqs tushardi. U shu ma'noda raqsiga tushardiki, bu yangi muassasadami, beshinchchi sinfdamini – farqi yo'q, agar ish shungacha borib yetsa, men bu borada tengsiz ekanimi ko'rsatib qo'yaman. Shu yo'sinda, bazmlarning oxirida ba'zan Praskovya Fyodorovna bilan raqsiga tushar va bu raqstar jarayonida Praskovya Fyodorovnani mag'lub etardi. Shu taripa qiz uni sevib qoldi. Ivan Ilichda uylanish borasida aniq, rejalashtirilgan maqsad yo'q edi, qiz uni sevib qolgach esa shunday savolni ko'ndalang qo'yidi: „Aslida, uylanishimga nima monelik qiladi?“

Qizaloq Praskovya Fyodorovna yaxshigina zodagonlar avlodidan edi, ahmoq emasdi; o'ziga yarasha bisoti bor edi. Ivan Ilich taqdirlarini bundan ham moyliroq qimorga tikishi mumkin edi, biroq shunisi o'ng'ay. Ivan Illichning o'z tirikchiligi bor edi, u shunga umid qillardiki, qizning topish-tutishi ham bundan kam bo'lmaydi. Nasli toza, yoqimtoygina, g'oyat basarishta ham. Gapning sirasini ayganda, Ivan Ilich atrofisidagi odamlar shuni ma'qul ko'rganlari tufayli uylandi, deyish adolatdan bo'lmaydi, negaki u o'z qaylig'i ni sevdi, unda tuyg'ularini qadrlaydigan hamrohni ko'rdi. Ivan Ilich ikki mu-

lohzagara ko'ra uylandi: shunday ayolni tamlagani o'ziga yoqdi, boz ustiga yuqori mansabda turgan arkonlar ham bu qaromi ma'qillashdi.

Shunday qilib, Ivan Ilich uylandi.

Uylanish jarayonining o'zi – to'y, oilaviy hayotning dastlabki pallasi – kelin-kuyovlarga xos shiringufforliklar, yangi mebellar, yangi idish-tovoqlar, to ayolining homilador bo'lgunicha juda yaxshi kechdi, hatto Ivan Ilich amin bo'la boshladi, uylanish hayotning bor bud-shudi deb qaragan, jamiyat tomonidan ma'qullangan va qabul qilingan yengil, yoqimli, shodon turmush tarzini buzib yubormay, aksincha, uni teranlashtar ekan. Ammo xotini homiladorligining dastlabki oylarida birdaniga o'zgacha, kutilmagan, yoqimsiz, og'ir va andazalarga sig'maydigan voqealar sodir bo'ldiki, ularni sira istamagan holda qutub lib ham bo'lmadi.

Ivan Ilichga tuyulganidek, ayol o'rinsiz injiqqliklar bilan, bu uning o'zining iborasi edi, turmushning yoqimli va sokin muhitimi buza boshladi: erini sababsiz rashk qiladi, undan o'ziga ayricha e'tibor qaratishini talab etadi hamma narsadan shubhalanadi, bu bilan erkakni yoqimsiz va g'azabnok holatlarga soladi.

Boshida Ivan Ilich bunday vaziyatdan oldin ham o'ziga ko'p yordam bergen usul – hayotga yengil-yelipi, istig'nosiz qarash bilan chiqib ketmoqchi bo'ldi, xotinining ruhiy muvozanatini tartibga solishga urindi, oldingidek ochilib, yayrab yashashda davom etdi: uyiga do'stlarini chorlab, qarta o'ynardi, o'zi ham klub yoki tanishlarinikiga qadam ranjida qilib turdi. Lekin bir safar xotini shunday vajohat bilan haqorat qildi va eri aytganlarini baho kelтирib, taslim bo'lmaguncha, o'zi kabi uuda o'tirib siqilmaguncha diydiyolarini bas qilmasligini bayon etib, keyinchalik ham o'shanday haqoratlarni davom

ettirdiki, bundan Ivan Ilich dahshatga tushdi. U er-xotinlik munosabati hayotning dilraboligi va go'zalligi bilan chiqishmay, aksincha, uni buzar ekan, demak, o'zingni shu g'oratgarlikdan saqlashing lozim, degan xulosa-ga keldi. Va Ivan Ilich bu yo'lدا vosita izlay boshladi. Yechim bitta edi – Praskovya Fyodorovnani timchlantirish. Ivan Ilich xizmat va majburiyatlaridan kelib chiqib, o'zining mustaqil dunyosini chegirib, xotiniga qarshi kurash boshlab yubordi.

Farzand tug'ilishi bilan uni ovqatlantirish, bu boradagi turli g'idi-bidilar, haqiqatan bo'lgan yoki o'ylab topilgan, Ivan Ilichning aralashishini talab qiladigan, biroq uning o'zi nima qilishini bilmaydigan bola va onaning kasaliklari – injiqqliklar uni oila davrasidan bezdirib, undan tashqari hayotni yana ham jozibali qilar edi.

Xotin jahldor va shafqatsiz bo'lib borgani sari Ivan Ilich hayotining og'irlik markazini yana va yana xizmati yelkasiga yuklardi. U kasbini oldingidan ham qattiqroq sevadigan, yanada shuhratparastroq bo'lib qoldi.

Ko'p o'tmay, uylanganlariga bir yil to'lishi nari-bersida Ivan Ilich tushunib yetdiki, oilaviy hayot tirikchilikda asqatadigan ko'p narsalarga o'rgatibdi, amalda juda qiyin va murakkab ish hisoblangan, jamiyat tomonidan tan olin-gan turnush tarzi asosidagi munosib tirikchilikni yuritish uchun o'z majburiyatini bajarishda, xuddi xizmat sohasida bo'lganidek, aniq munosabatni qaror toptirish lozim ekan.

Ivan Ilich o'zi uchun oilaviy hayotda ana shunday munosabatni yaratib oldi. U oilaviy hayotdan uuda tushlik, xizmatkorlardan foydalanimish, xotini iltifot qilishi mumkin bo'lgan to'shak singari odatiy mashg'ulotlar, eng asosiyisi, ko'pchilik fikri bilan qaror topgan zohiriy rasmiyatchilikni talab qildi. Qolgan vaqtlardarda ko'ngilochar xushchaqchaqligi izladi, agar topa olsa, mammun bo'ldi; agar qarshilik

yoki mayda gapga duch kelsa, shu lahzada o'zining xizmatdagi xilvat, chegaralangan olamiga ravona bo'lidi va undan farog'at topdi.

Ivan Illichni yaxshxi xodim sifatida qadrlashardi va uch yildan keyin prokuror yordamchisi etib tayinlashdi. Yangi majburiyatlar, ularning mas'uliyati, har qanday kishini sudsiga tortish, avaxtaga tiqib qo'yish imkoniyati, nutqining ravonligi, ishdagi yutuqlari – bularning hammasi Ivan Illichni xizmatga battar ruhlantirdi.

Bolalar ulg'aydi. Xotini yana ham maydagap va zabit tor bo'lib qoldi, lekin Ivan Illichning oilaviy hayotda o'zi ishlab chiqib o'matgan tartiblari uning uchun bunaqa maydakashliklarning ahamiyatini deyarli yo'qqa chiqardi. Bir shaharda yetti yillik uzluksiz xizmatdan keyin Ivan Illichni boshqa guberniyaga prokurator vazifasiga o'tkazishdi. Ular ko'chib kelishdi, sarmoya ko'p emasdi, xotiniga yangi joy yoqmadи. Topish-tutish oldingidan ko'p bo'lsa-da, tirkchilik qimmatlashib ketdi; bundan tashqari, ikki farzandlari vafot etdi va Ivan Illich uchun oilaviy hayot bamisoli do'zaxga aylandi.

Praskovya Fyodorovna yangi joydagи barcha omadsizliklar uchun eridan yozg'irardi. Er-xotin suhbatlarining aksariyat mavzusi, ayniqsa, bolalar tarbiyasini masalasida oldingidek janjallarga borib taqalar, janjallar esa istalgan daqiqada olovlanishga shay turardi. Gohida sevishib yurunganlarining yoqimli xotiraları qalqib chiqardi, ammbo bu ham uzoqqa bormasdi. Bu lahzalar ular bir qo'nib o'tgan orolcha edi, keyin yana bir-birlaridan ajratib yuborgan, begona qilib qo'ygan xusumatlar ummoniga g'arq bo'lishardi. Begonalashuv, agar Ivan Illich bunday bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaganda, uni xafa qilishi mumkin edi, biroq allaqachon bunday holni nafaqt tabiiy qabul qildi, balki oiladagi faoliyatining maqsadi deb bildi. Maq-

sad esa bunday ko'ngilxinaliklardan iloji boricha ko'proq xalos bo'lish yo'llarini izlash va bu harakatiga zararsizlik hamda yoqimlilik xususiyatini bag'ishlash edi; bu maq-sadga esa oila davrasida iloji boricha kamroq bo'lish, ke-lishga majbur bo'lгanda esa boshqa birovning hamrohligida tashrif buyurish bilan erishdi. Muhimi, Ivan Illichning ishi bor edi. Uning xizmat olamida butun hayotiy qiziqishlari mujassam bo'lгandi. Bu qiziqishlar esa uni girdobiga tortib ketdi. O'z hukmronligining havosi, kimmi xohlasa majaqlab tashlashi mumkinligi, sudda uning tashrifi yoki qo'l ostidagilar bilan uchrashishiga intiq bo'lishlari va, asosiyasi, his qilib turgan ishini mahorat bilan amalga oshira olishi – bularning hammasi uni mammun etardi va do'stlar bilan suhbatlar, birga tushlikka chiqish va qarta o'yini bilan birgalikda uning hayotini bekam-u ko'st qilardi. Umuman ayiganda, Ivan Illichning hayoti shu tarzda, o'zi chamlaganidek, yoqimli va ko'ngilli davom etardi. U shu zaylda yetti yil yashadi. Katta qizi allaqachon o'n oltilga to'lgan, yana bir go'dak vafot etgan, tashvishlarning manbayi bo'l mish gammaziyachi bola bilan qolishgandi. Ivan Illich uni huquqshunoslikka bermoqchi bo'lди, Praskovya Fyodorovna esa jo'rttaga gymnaziyaga topshirdi. Qiz uuda ta'lim oldi va yaxshi o'sdi, bola ham yomon o'qimadi.

## 3

Ivan Illichning uylanganidan keyingi o'n yetti yillik hayoti shunday kechdi. U allaqachon har xil silkilash-larga bo'y bermaydigan, yana ham yog 'liroq joyga ko'ztikib turgan basavylat prokuror darajasiga yetganda kutilmaganda yoqimsiz bir voqeа ro'y berdi-yu, uning tinch hayotini ostin-ustun qilib yubordi. Ivan Illich universitet shaharchasiga raislik lavoziyimidan umidyor edi, Goppe il-

damroq chopdi-da, bu joyni egallab oldi. Ivan Illich chidolmadi, o'z norozilligini bildirdi va u bilan hamda o'ziga yaqin boshliq bilan janjallashib qoldi; shu bilan undan sovidilar va keyingi davrada ham uni chetlab o'tishdi.

Bular 1880-yilda ro'y berdi. Bu Ivan Illichning hayotidagi eng og'ir yil bo'lgandi. Shu yillarda, bir tomondan qaraganda, tirkchilik uchun maosh ham yetmasdi; boshqa tarafidan – uni butunlay unutdilar va uning chekiga tushgan, o'zining tasavvuricha, og'ir va dahshatli nohaqliklarni boshqalar odatdag'i hol singari baholadilar. Hatto otasi ham unga yordamlashishni xayoliga keltirmas, buni o'zining majburiyatidan tashqari hisoblardi. Ivan Illich anglatiki, 3500 rublik maosh olib, tirkchilik qilayotgan prokuromi hamma tark etdi va uning hozirgi ahvolini me'yorida deb, hatto baxtli hisoblashadi. Faqat uning o'zi shuni bilardiki, o'ziga nisbatan qilingan nohaqliklar, xotinining oxiri yo'q yozg'irishlari, qarzları – u shunga majbur bo'lib, endi qarz ko'tara boshlagandi – imkoniyatidan yaxshiroq yashashga urinishlari sabab ahvoli havas qilgulik emas.

Shu yilning yozida moddiy ahyolini mo'tadillashtirish maqsadida ta'til oldi va xotini bilan Praskovya Fyodorovnaning qishloqdagi akasinikiga ketishdi.

Qishloqdagi bekorchilikdan Ivan Illich dastlab faqat zerikish emas, balki qattiq sog'inch hissini ham tuydiki, bunday yashab bo'lmasligini va qandaydir aniq choralar ko'rish zarurligini tushuniib yetdi.

Uyquisiz tunlarning birida u dolonda aylanib yurib, Peterburgga borish, kimlar mingdir eshigini taqillatib, shunday bebaho odamni unutib yuborgan o'shalarmi jazo latishga qaror qildi va boshqa vazirlilikka ishga o'tishni mo'ljalladi. Keyingi kun xotini va qaynag'asining harchand yo'il dan qaytarishlariiga qaramay, Peterburgga jo'nadi.

U bir narsa uchun yo'lga chiqdi: besh minglik maoshi bor joyni tilab olish. U aniq bir vazirlik, yo'nalish yoki mashg'ulot turini mo'ljallagan yo'q. Unga har qanday joy: ma'muriyatdami, bankdami, temiryo'ldami, imperator xonim Mariyaning muassasasidami, hatto bojxonadami, besh minglik maosh bo'lsa kifoya, bo'ladi gani besh ming rubllik maosh va uning qadriga yetmagan vazirlikdan xalos bo'lish.

Qarangki, Ivan Illichning bu safari kutilmagan va hayron qolarli muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Kurskda birinchi darajali vagonga tanishi F.S. Ilin chiqdi va uni gubernatorдан olgan telegrammasidagi yangilik bilan tanshirdi. Shu kunlarda u ishlagan vazirlikda to'ntarish ro'y berayotgan emish, Pyotr Ivanovichning o'miga Ivan Semyonovich tayinlanan ekан.

Ko'zda tutilayotgan yangi tayinlanishlar Rossiya tarihidagi ahamiyatidan tashqari Ivan Illich uchun ham beiz ketmasdi, negaki, Pyotr Ivanovich va, shubhasiz, uning o'rtog'i Zaxar Ivanovichning yangi mansabga ko'tarilishi Ivan Illich uchun ayni muddao edi. Zaxar Ivanovich Ivan Illichning do'sti va hamtovog'i edi.

Moskvada xabarlar tashdiqlandi. Peterburgga o'tgach, Ivan Illich Zaxar Ivanovichni topdi va o'zining oldingi Adliya vazirligida ishonchli o'ringa tayinlanishining qat'iy va'dasini oldi.

Bir haftadan keyin xotiniga telegramma jo'natdi:

„Zaxar Millering o'mida birinchı ma'ruzada lavozim bilan siylanaman“.

Ivan Illich xodimlarning o'zgarishi sharofatidan kutilmaganda o'zining qadrdon vazirligida shunday o'ringa tayinlandiki, bu oldingi mansabidan ikki pog'ona baland edi: besh ming rublik maosh va uch ming rublik rag'balantirish. Raqiblarning barcha to'siqqlari olib tashlangan va vazirlik egallangan, bundan Ivan Illich behad baxtiyor edi.

Qarangki, Ivan Illichning bu safari kutilmagan va hayron qolarli muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Kurskda birinchi darajali vagonga tanishi F.S. Ilin chiqdi va uni gubernatorдан olgan telegrammasidagi yangilik bilan tanshirdi. Shu kunlarda u ishlagan vazirlikda to'ntarish ro'y berayotgan emish, Pyotr Ivanovichning o'miga Ivan Semyonovich tayinlanan ekан.

Ko'zda tutilayotgan yangi tayinlanishlar Rossiya tarihidagi ahamiyatidan tashqari Ivan Illich uchun ham beiz ketmasdi, negaki, Pyotr Ivanovich va, shubhasiz, uning o'rtog'i Zaxar Ivanovichning yangi mansabga ko'tarilishi Ivan Illich uchun ayni muddao edi. Zaxar Ivanovich Ivan Illichning do'sti va hamtovog'i edi.

Moskvada xabarlar tashdiqlandi. Peterburgga o'tgach, Ivan Illich Zaxar Ivanovichni topdi va o'zining oldingi Adliya vazirligida ishonchli o'ringa tayinlanishining qat'iy va'dasini oldi.

Bir haftadan keyin xotiniga telegramma jo'natdi:

„Zaxar Millering o'mida birinchı ma'ruzada lavozim bilan siylanaman“.

Ivan Illich xodimlarning o'zgarishi sharofatidan kutilmaganda o'zining qadrdon vazirligida shunday o'ringa tayinlandiki, bu oldingi mansabidan ikki pog'ona baland edi: besh ming rublik maosh va uch ming rublik rag'balantirish. Raqiblarning barcha to'siqqlari olib tashlangan va vazirlik egallangan, bundan Ivan Illich behad baxtiyor edi.

Ivan Ilich qishloqqa shod, marmun qaytdi, ko'pdan beri u bunday yayramagandi. Praskovya Fyodorovna ham xursand bo'ldi va oldingi ginalarni umutib, yarashdilar. Ivan Ilich Peterburgda o'ziga qanday izzat ko'rsatgalar, bir vaqtlar dushman sanalganlarning pisib qolganlari-yu, unga qulluqda bo'lganlari, omadiga hasad qilishlari, ayniqsa, Peterburgda uni qanchalik qattiq sevishlarini so'zlab charchamasdi.

Praskovya Fyodorovna bu gaplarni jonqulog'i bilan tinglar, o'zini hammasiغا ishonajotgandek qilib ko'rsatir, hech narsaga e'tiroz bildirmas, faqat yangidan ko'chib boradigan shaharlarida turmushni o'zgacha yo'lga qo'yish yuzasidan rejalar tuzardi. Ivan Ilich ham xursandchilik bilan bu rejalar uning mo'hjallari bilan mos tushayotganimi ta'kidlar, o'zining abgor bo'lgan hayoti xotininin haqiqiy, unutilgan shodliklari qaytishi evaziga izga tushib ketishiga ishonardi.

Ivan Ilich qisqa muddatga kelgandi. 10-sentabrda lavozimi qabul qilishi, shu bilan birga, yangi joyga o'mnashishi, ashqol-dashqollarni viloyatdan keltirishi, yangi narsalar sotib olishi, ko'p narsalarga buyurtma berishi lozim edi; bir so'z bilan aytganda, hammasini shunday tashkil qilish kerak edi, uning aqli nimani chamalagan bo'lsa, ro'yobga chiqishi va bularning hammasi Praskovya Fyodorovnaning orzulari bilan mos tushishi lozim edi.

Endi, hammasi muvaffaqiyatlari uddalangach va xontini bilan murodiga yetgach, birga juda kam yashaganlari, sezib-sezmay ayto tushganlari, er-xotinlikning dastlabki yillaridagidek totli turmush nasib etmagani ko'z oldiga keldi. Ivan Ilich oilasini hoziroq olib ketishni o'yladi. Ammo birdaniga ularga yaqin va g'amxo'r bo'lib qolgan opasi va kuyovingin qistovni bilan Ivan Ilichning bir o'zi jo'nab ketdi.

Ivan Ilich jo'nab ketdi, ishdagi muvaffaqiyatlar va xontini bilan murosaga kelganidan tug'ilgan, bir-birini quvvatlagan a'lo kayfiyat uni tark etmadı. Binoyidek shinam uy topdi, bu bir paytlar er-xotin orzu qilgan boshpananing aynan o'zi edi. Eski uslubdagı keng, baland xonalar, katta kabinet, xotini va qizi uchun maxsus xonalar, o'g'liga darsxona – xuddi ular uchun ataylab qurilgandek. Ivan Ilich jihozlashni o'z zimmasiga oldi, gulqog'ozlarni o'zi tanladi, qadimgi boyarlar uslubidagi mebellar sotib oldi, devorlarga ham o'z dididagi pardaldardan torttirdi, hamma yoq ochilib ketdi va u xayolida tasavvur qilgan olzymaqom manzara yuzaga keldi. Jihozlash yarmiga yetganda uning hunari shu darajada namoyon bo'ldiki, hosil bo'lgan nafosat kutganidan ancha yuqori edi. U hammasi tayyor bo'lgach, boshqalar qabul qiladigan salobatlari, to'kis va diltortar manzarani tasavvur qildi. O'zicha katta xona qanday bo'lishini xayoliga keltirib ko'rdi. Hali ta'miri tugamagan mehmonxonaga nazar tashlab, u allaqachon kamin, uning oldidagi panjara va javonlarni ko'rdi, bu sochilib yotgan kursichalar, devorlarga terilgan mis tovoq va likoplar joy-joyiga qo'yilganda yuzaga keladigan ko'rk uni yayratib yubordi. Unga o'zidek didga ega Pasha va Lizenkani bu sovg'asi bilan qanchalik xursand qilishi mammuniyat bag'ishladi. Ular bunaqasini kutmagandi, biroq hammasi ular uchun-da, Muhibi, ko'ngilga oliyjanoblik va to'kislik kayfiyatini ulashadigan arzon narxdagi qadimgi buyumlarni topish va xarid qilish mumkin bo'ldi. Yaqinlariga yo'llagan xatlarida ularni birvarakayiga hayratga solish uchun hammasini yashirib yozdi. U bu yumushlarga shunchalik berilib ketdiki, ayni uni mammun qilgan va sevgan yangi ishi ham keyinga surilib qoldi. Majlislar ansosida xayoli parishon bo'lib ketardi: deraza pardasini osishga

qanday piramon olsam: sidirg'asidanmi yoki yig'ilganidan? Qarab o'tirishga sabri chidamay, narsalarni o'zi tashidi, hatto mebellarni o'mashtirdi, pardalarni osdi. Bir safar narvonchaga chiqib, gulqog'oz yopishtirayotgan ustaga o'zi istagan burama naqshni o'rgataman, deb surinib ketdi va yiqilib tushdi, chaqqonlik bilan o'zini o'nglab oldi-yu, ammo deraza romiga biqini bilan qattiq urildi. Lat yegan joyi og'rib yurdi, biroq hammasi o'tib ketdi. Shu kunlarda Ivan Illich o'zini o'ta xushchaqchaq va bardam his qilardi. „O'zimni o'n besh yilga yoshangday sezyapman“, deb takror-takror aytardi o'zicha. Yumushlarni sentabrda tugatishga astoydil intildi-yu, baribir, ish oktabrning o'ritalarigacha cho'zildi. Mayliga, lekin hammasi go'zal bo'sidi, buni nafaqat o'zi tan oldi, balki ko'rghanlar ham e'tirof etishdi.

Odatda, bir-biriga o'xshagan o'rtahol odamlar boy bo'lishni juda xohlaydilar va boylarg'a taqlid qiladilar; qalin movut gazlama, qora yog'och, gullar, gilamlar va to'q yoki yaltiroq mis laganlarni taxlaydilar va hamma taniydig'an mashhur odamlarga o'xshagilari keladi. Unda ham, garchi diqqatni qaratish shart bo'lmasa-da, shunga o'xshash narsalar bor edi; nazarida uning buyumlari butunlay o'zgacha edi. Nihoyat, u oilasini temiryo'l stansiyasida kutib olib, ularni to'g'ri o'zinинг yaraqlab turgan xonadoniga boshlab keldi, oq galstuk taqib olgan xizmatkor gullarga g'arq oldingi xona eshigini ochdi, keyin mehmonxonaga, xos bo'limga kirishdi, shu yerda hayratdan dong qotishdi, bundan u o'zini yanada baxtiyor his etar, ularni aylantirib, hamma joyni ko'rsatar, maqtovlarni mammuniyat bilan qabul qilardi va munligidan ko'ngli charog'on bo'lardi. Shu oqshom choy ustida Praskovya Fyodorovna Ivan Illichdan qanday yiqilganini so'raganda, u yoyilib kului va hammaga

qanday uchib tushganini va ustani qo'rigitganini ko'tsatib berdi.

— Behudaga gimnastikachi, bo'lmaganman axir. Boshqa odam bo'lganda o'lib qolardi, men esa mana bu joyim bilan andak turtinib o'tdim, xolos; qo'l tegib ketsa, og'riyi, biroq allaqachon tuzalib ketdi; o'mi andak qorayib turibdi.

Ular yangi xonadonda har doingidek, bir paytlar yaxshi yashaganlari singari, xuddi hamma narsa yetarli-yu, faqat yana bitta xona kamdekk, mablag', boshqa vositalardan ham shikoyat yo'g'-u, faqat jinday pul - besh yuz so'm yetishmaydi singari jonhalak kayfiyatda ko'ngilli yashadilar. Ayniqsa, hali hammasi bajarilmagan, lekin ado etilishi lozim bo'lgan dastlabki paytlar yoqimli edi: nimadir xarid qilish, boshqasiga buyurtma berish, birining o'mini almashirish yoki o'zgasini tuzatish darkor. Garchi er-xotin o'rtasida bir qancha anglashilmovchiliklar yuzaga kelib tursa-da, ikkalasi ham shunday mammun edilarki, yumushlар qanchalik ko'p bo'Imasim, hammasi ortiqcha gap-so'zlarsiz ado etildi. Tashvishlar nihoyalab qolganda biroz zerikarli bo'slar, nimadir yetishmayotgandek tuyulsa, tanish-bilishchilik, rasm-rusumlar bilan turmush bisyor bo'lardi.

Ertalabdan sudda bo'lgan Ivan Illich tushlikda uyiga qaytardi, dastlabki vaqtlardan, agar uydagi ba'zi quşurlar uning jig'iga tegishimi hisobga olmaganda, kayfiyati doim yaxshi bo'lardi. (Dasturxondag'i, choyshablardagi kichkina dog', pardadan sitilib ketgan tizimcha ham uni zor qaqqshatardi: u qancha mehnat sarfladi bularga, qanday chidaydi?) Umuman, Ivan Illichning hayoti xuddi o'zining e'tiqodi talab qilgandek o'tayotgandi: yengil, yoqimli va jozibali. Soat to'qizda turib, qahva ichadi, gazeta o'qiydi, keyin vitsmundirini kiyib, sud mahkamasiga yo'l ola-

di. U joyda tegrimon toshi aylanib turadi va Ivan Ilich xuddi do'sda qolgandek bo'ladi: ishga sho'ng'ib ketadi. Qabuliga kelganlar, devonxonadan ma'lumotnomalar, de-vonxonaga qog'ozlar, majlis – doimiy va qat'iy yo'liga qo'yilgan tartibot. Ana shunday shiddatkor oqimdan tashqarida bo'lgan va xizmat vazifasining to'g'ri tashkil qilinishiga xalaqit beradigan barcha g'o'r, hayotiy dahmazzalarni inkor etishga to'g'ri kelardi: odamlar bilan hech qanday munosabatga, ayniqsa, ishga doir munosabatarga yo'l qo'ymaslik, munosabatlar faqat xizmat doirasida bo'lishi, xizmatning o'zi munosabat bo'lishi lozim edi. Masalan, birov keladi-da, nimanidir bilmuoqli bo'ladi. Ivan Ilich undan qarzdor emas va bunday odam bilan biror gap-so'z qilishga majburiyati yo'q; mabodo, o'sha odam hamkasb bo'lib, xizmat yuzasidan nimadir munosabatga kirishish lozim topilsa, buni Ivan Ilich kiftini keltirib, barcha xizmat nizomlarida ta'kidlangan talablarni joyiga qo'yib, shu bilan birga do'stona nazokat bilan ado etardi. Xizmat munosabatlari tugadimi, hammasi tugardi. Shu uddaburonligi tufayli hayotining haqiqiy manzarasi bilan xizmat yo'rig'ini qorishtirib yubormasdi. Ivan Ilich uzoq amaliy tajribasi va iqtidori bilan bu san'atni mukammal egalladi va ba'zan sehrgar kabi o'zicha hazillashib, insoniy va xizmat burchini aralashtrib ko'rishni sinamoqchi ham bo'ldi. Unga shuning uchun ham yo'l qo'yidi, o'zining iqtidori kuchini his qilardi va istalgan paytda zarurat yuzasidan insoniy va xizmat burchini ajratib yuborra va joy-joyiga qo'ya olishiga ishonardi. Ivan Illichning ishlari faqat yengil, yoqimli, jozibaligina emas, sehrgarona davom etardi. Ora-sira chekar, choy ichar, ozroq siyosat haqida, yana biroz unumiy ishlar yuzasidan, mavridi bilan qarta to'g'risida, hammadan ko'proq esa lavozimlarga tayinlashlar borasida suhbattashardi. Horg'in, biroq

orquestrda birinchi skripkada o'z partiyasini muvaffaqiyatli ijro etgan mohir sozanda kayfiyat bilan uyiga qaytardi. Uyda qizi oyisi bilan qayergadir ketgan chiqar yoki ularning kimgidir kelgan bo'lardi; o'gil gimnaziyada, darslarni repetitor ko'magida tayyorlaydi va gymnaziyada qanday o'qitishsa, shu darajada tafsil oladi. Hammasi yaxshi edi. Tushlikdan keyin, agar mehmonlar bo'limasa, Ivan Ilich ba'zan odamlar tildan qo'ymaydigan kitoblardan o'qir, oqshomlari esa ishi bilan mashg'ul bo'lar, qog'ozlarni titikilar, qonunlar bilan tanishar, sud ko'rsatmalarini qonun talablarini bilan solishirardi. Bu mashg'ulotlar unga zerkarli ham, yoqimli ham tuyulmasdi. Qarta o'ynalganda-ku boshqa gap, lekin ishslash baribir bir o'zi yoki xotini bilan o'tirgandan ko'ra yaxshi edi. Ivan Ilichga xush yoqadigan damlar mavqeyi baland erkak va ayollarni chorlab uyush-tirgan chortang davralar – dilkash tushliklar edi, shunchaki odmi suhbattoshlardan farq qilmaydigan, ma'lum derajaga erishgan odamlar bilan vaqt o'tkazishlardan uning mehmonxonasi fayzga to'lib ketgandek tuyulardi.

Bir safar ularnikida hatto bazm bo'ldi, raqsiga tushdilari. Ivan Ilich uchun hammasi yoqimli, hammasi yaxshidi, faqat xotini bilan tort va konfetlar borasida katta janjal chiqdi: Praskovya Fyodorovnaning o'z mo'hjallari bor edi, Ivan Ilich esa qattiq turib qimmat sotadigan qandolatfurushidan xarid qilishni talab qildi; anchagina tort oldilar, ortib qoldi va shundan janjal chiqdi, qandolatfurushning bahosi esa qirq besh rubl edi. Janjal kattarib ketdi va yoqimsiz tus oldi, Praskovya Fyodorovna unga: „Ahmoq, zahar!“ dedi. Er boshini changallab qoldi va banogoh yuragi unga ajrashish haqida eslatgandek bo'ldi. Biroq bazm xushchaqchaq o'ldi. Yaxshi odamlar yig'ilgandi, Ivan Ilich knyaginya Trufanova va „Sen qayg'uymi ol“ jamiyatini tuzib mashhur bo'lib ketgan uning singilisi bilan raqs tushdi.

Xizmat yuzasidan mammunlik xudbinlikni, ijtimoiy hayotdan mammunlik dimog'dorlikni paydo qiladi, Ivan Ilich uchun esa haqiqiy xursandchilik qarta o'yinidan edi. U tan olardiki, hammasidan keyin, qandaydir voqealar-u hayotidagi noxushlikning izidan xush yoqadigani, baring qarshisida shamdek yonib turgan mammuniyat, bu – yaxshi o'yinchilar, huda-behudaga baqiravermay-digan hamtovoqlar bilan qarta o'ynash, albatta, mudom to'riovlon (besh kishi bo'lsa, menga yoqadi, deb tur-sang ham o'yn qiyin kechadi) ishtirokida aqli va jiddiy o'yn (agar qo'l kelib tursa), so'ng kechki ovqat bilan bir stakan vino ichish. Kichikroq yutuqdan keyin (kattasi yoqmaydi) Ivan Ilich orombaxsh kayfiyat bilan uyquga yotardi.

Ular shu tarzda umrguzaronlik qilishardi. Tevaraklari eng maqbul odamlar yig'ilgan, e'tiborli shaxslar, yoshlar ham kelib-ketib turishardi.

Davradagi tanishlaridan er ham, xotin ham, qiz ham butunlay rozi, atroflarida xira pashshadek aylanisha bos-hagan, sadoqatlarini izhor etish uchun hatto yaponcha taomlar tayyorlab kelishga kirishgan har xil tanishlari-yu do'stlaridan uzoqlashishdi. Tez orada xira pashshalar tarqab ketdi va Golovinlar atrofida eng yaxshi do'stlar davrasi qoldi. Yosh yigitlar Lizemka atrofida o'ralasha boslashdi, ayniqsa, sud tergovchisi Dmitriy Ivanovich Petrishevning yolg'iz o'g'li, meroosxo'ri ancha aylanishib qoldiki, bu masalada Ivan Ilich Praskovya Fyodorovna bilan jiddiy gaplashib oldi: ularni troykada<sup>1</sup> sayr qilishga yuborishsa yoki uuda xonaki spektakl tashkil etishsa, qanday bo'larkan? Ular shunday yashashardi. Hammasi shunday davom etardi va juda yoqimli edi.

Hammasi ko'ngildagidek davom etardi. Ivan Ilich ba'zan shikoyat qilib qoladigan og'zidagi achqimtil, yo-qimsiz ta'm va oshqozonining chap tarafni sanchib turishini ham ko'ngilsizlikka yo'yib bo'lmasdi. Ammo bu noxushlik ortib bordi, og'riq ham o'tib ketmadi va shuuridan biqinidagi doimiy sirqirash sezimi hamda kayfiyatining badbinligini chiqarib tashlay olmadi. Kayfiyatidagi badbinlik borgan sari kuchayib, Golovinlar oilasida qaror top-gan fayzli turmush tarzini ham izdan chiqara boshladi. Er xotini bilan tez-tez janjallahadigan bo'lib qoldi va bunday doimiy mashmashalar oilaviy tarovat va jozibani barbob qildi, faqat odob me'yorlari arang jon saqlab turardi. Yana janjal muntazam tus oldi. Yana er va xotin alohida-alohida o'tirishgandagina erkin nafas oladigan bo'lishdi.

Endi Praskovya Fyodorovna hech tortimmay, assosiz ravishda erining fe'li og'irigidan yozg'iradigan bo'ldi. O'ziga xos hamma narsani bo'rtirib gapirish odatidan kelib chiqib, u eri boshidanoq shunaqa iffe<sup>1</sup> bo'lganligini, faqat o'zinинг bardoshi bilan yigirma yillik bu azobni yengib kelganligini takrorlay boshladi. Rost gap ham shu ediki, endi janjallar er tomonidan kelib chiqardi. Uning injiqliklari har doim tushlik paytida, ko'pincha sho'rvani tanovul qilishi bilan boshlanardi. Hali idishlarning si-nig'iga ko'zi tushib qolar, hali ovqatning ta'mi yoqmas, hali o'g'lining stolga tirsagini tirab o'tirgani g'ashiga tegar yoki qizining soch turmagidan jig ibyroni chiqardi. Bularning hammasida Praskovya Fyodorovnani ayblardi. Praskovya Fyodorovna boshida e'tiroz bildirib, bunaqa bachkanalik qilaverma, deb aytdi, lekin eri baribir tushlik payti bir-ikki qiliq ko'rsatishini qo'ymadidi, bundan ayol uning ovqat paytida jini qo'ziyidigan kasali bor ekanimi

<sup>1</sup>Troyka – uch otli izvosh.

tushunib yetdi va o'ziga taskin berdi; ortiq e'tibor bermay qo'ydi-da, faqat tezroq ovqatlanib, turib ketadigan bo'ldi. Praskovya Fyodorovna butun bardoshini ishga solib, murosa yo'llini tutdi. Erining qabih fe'l-arvorga egaligini tushunib, o'ziga rahmi kelib ketdi. O'ziga rahmi kelgan sayin eriga nisbatan nafrati ortib boraverdi. Hatto uning o'limini tilashgacha borib yetdi, biroq buni xohlamadi, negaki, unaqada tirikchilik manbayidan ajralib qolardi. Bu narsa uning battar jig'ibiyronini chiqarardi. Shunchalar chorasisiz ediki, hatto erining o'limi ham uni bu ko'rgilikdan xalos qila olmasdi, hamma zahrini ichiga yutdi, shu tarzda yuragi zardobga to'lib boraverdi.

Navbatdagi janjaldan so'ng, bu gal Ivan Illich butunlay nohaq edi, buni o'zi ham tan oldi va o'ziga kelgach, haqiqatan ham xotinining jig'iga tegadigan bo'lib qolganini, bu kasallik ekanimi ochiq e'tirof etdi, xotini kasaligi rost bo'lsa, davolanish lozimligini aytdi va taniqli bir shifokorga borib uchrashishga qistay boshлади.

Er shifokor huzuriga bordi ham. Hammasi o'zi kutgan-dek bo'lib chiqdi; hammasi risoladagidek bajarildi. Ku-tish, o'ziga sud amaliyotidan tanish bo'lgan qog'oz to'ldirishlar, albatta, bu safar do'xtir to'ldirdi; tomir ko'rish, yurakni eshitish, oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar va keraksiz javoblar, keyin esa, modomiki, siz bizga murojaat qilibsizmi, biz xizmatningizga tayyormiz qabili-dagi soxta iltifot. Hammasi xuddi suddagidek edi. Sudla-nuvchilar uning qarshisida qanday ko'rinishda namoyon bo'lsa, taniqli do'xtir uni shunday alpozda kutib oldi.

Do'xtir aytdi: u-bular va anov-manovlar ko'rsatayaptiki, sizning ichingizda falon narsa bo'lgan; agar bu tekshiruvilar davomida tasdiqlanmasa, ma'lum bo'ladiki, ahvolingiz manovnaqa. Agar bunaqa chiqib qolsa, unda... va hokazo. Ivan Illich uchun bitta savol hammasidan muhim

edi: uning ahvoli xavfimi yoki tashvishga o'rin yo'qmi? Do'xtir bunday ko'ndalang qo'yilgan savolni aylanib o'tdi. Do'xtirning nuqtayi nazaricha, bu savol juda siyqa va muhokama qilishga arzimaydi; faqat buyrakning o'midan jilgani, shilliq pardasining yallig'laniishi hamda ko'richakda o'zgarish taxmin qilmoqda. Bu o'rinda Ivan Illichning hayoti haqida gap ketayotgani yo'q, gap qimirlab qolgan buyrak va ko'richak ustida aylammoqda. Bu boradagi munozaraga chek qo'yib, do'xtir Ivan Illichning ko'z oldida aqlini chaqmoqdek ishlatgancha, asosiy muammoni ko'richakdan, deb hukm qildi va xulosa yasab dediki, keyinchalik peshnobining taholibidagi yangi alomatlarni ma'lum qilishi mumkin va shunda ish qaytadan ko'rildi. Hammasi xuddi Ivan Illich sudlanuvchilar bilan qanday munosabatga kirishsa, yorqin bir tarzda aynan shunday takrorlanayotgandi. Do'xtir ham ko'zoynagining ustidan tantanavor ohangda sudlanuvchidan yuqoriga qarab, yor-qin bir tarzda o'zinинг yakuniy so'zini ma'lum qildi. Do'xtirning yakuniy so'zidan Ivan Illich shunday xulosaga keldiki, ahvol yomon, do'xtirga, qolaversa, hammaga baribir, faqat unga yomon. Bu xulosa Ivan Ilichda o'ziga nis-batan hamhardilik tuyg'usini qo'zg'ab, juda yomon ta'sir qildi, shu bilan birga yuragida shunday muhim masalada pinagini buzmagan beparvo do'xtingga g'azab jo'sh urdi. Biroq u hech nima demadi, o'midan turdi, stol ustiga pul tashlab, chuquq xo'rsindi-da:

— Biz, bemorlar, sizlarga tez-tez o'rinsiz savollar berib tursak kerak, — dedi. — Umuman, bu kasallik xavfimi, yo'qmi?

Do'xtir ko'zoynagining ustidan bir ko'zi bilan qattiq tikildi, bu bilan u: hoy, sudlanuvchi, agar savol berishni to'xtatmasangiz, men sizni zaldan haydash yuzasidan qator chiqarishga majbur bo'laman, deyayotgandek edi.

— Men sizga muhim va kerakli gaplarning hammasini aytdim, — dedi do'xtir. — Qolganini keyingi tahlillar ko'rsatdi. — Do'xtir ta'zim qildi.

Ivan Ilich shoshilmay ko'chaga chiqdi, chanaga g'amgin o'tirdi va uyiga yo'l oldi. Yo'l bo'yи do'xtirming mavhum va tushumarsiz ilmiy tilda aytganlarini xotirasida tiklab, ularni oddiy lafzga o'girishga, mag'zini chaqib, loaqal bitta savolga javob topishga harakat qilib bordi: menga yomonmi — juda yomonmi yoki hali hech narsa emasmi? Unga do'xtirming barcha aytganlari ahvolining juda yomonligini tasdiqlayotgandek bo'lardi. Ko'chadagi hamma narsa Ivan Ilichga yomon ko'rinish ketdi. Izvoschilar g'amgin, uylar g'amgin, yo'lovchilar, do'konlar g'amgin. Vujudidagi bir daqiqa ham to'xtamaydigan, sismillagan og'riq do'xtirming tushunarsiz gaplaridan keyin boshqacha, jiddiy tus oldi. Ivan Ilich endi yangi, og'ir bir sezgi bilan unga quoq tuta boshladi.

U uyiga yetib keldi va xotiniga gap qoldi. Xotini quoq tutdi, biroq gapning o'rtasida shlapa kiyib olgan qizi kirib qoldi: u oyisi bilan otlanib turgan ekan. Qiz majburan o'trib, bu zerikarli hikoyani tinglashga tutindi, biroq uning gaplarini oxirigacha eshitishga ona-bolaning sabri chidamadi.

— Yaxshi, men juda xursandman, — dedi xotini, — endi sen o'zingga qara, dorilarni vaqtida ichib tur. Reisepni menga ber, hozir Gerasimni dorixonaga jo'nataman. — Praskovya Fyodorovna shunday deya kiyimlarimi almashitirgani chiqib ketdi.

U xotini xonada ekanida nafasini ichiga yutib turdi, chiqib ketgach esa chuqur nafas oldi.

— Ni ma ham derdim, — dedi o'zicha g'udranib. — Haqiqatan ham hali hech narsa emasdир...

U dorilarni icha boshladi, peshob tahlilidan so'ng o'zgarishi taxmin qilingan bo'lsa-da, tassiyalarga amal

qilib bordi. Shu o'rinda tahlildami yoki o'zini parvarish qilishidami, qandaydir chatoqlik sodir bo'lidi. Buni do'xtir bilmasligi kerak — nima bo'lganda ham u do'xtir aytgan nimaniidir bajarmagan. Yo u esdan chiqargan, yo yolg'on gapirgan yoki undan nimanidir yashirganlar.

Baribir Ivan Ilich tassiyalarga qat'iy amal qilib bordi va dastlabki vaqlarda bu yaxshi ta'sir qildi.

Do'xtir huzuriga tashrif buyurgandan keyin Ivan Ilichning asosiy mashg'uloti shifokor tassiyasida qayd etilgan talablardan kelib chiqib, gigiyenaga qat'iy amal qilish, dorilarni vaqtida olish, butun vujudi bo'ylab tarqalayotgan og'riqni nazorat qilishdan iborat edi. U butun diqqat-e'tiborini odamga xos kasallikkalar-u odamga xos salomatlilikka qarattdi. Uning huzurida bemonlar, vafot etganlar, sog'ayganlar to'grisida, ayniqsa, unikiga o'xshagan kasallikkdan gap ochganlarida hayajonini yashirishga intilib eshitdi, so'radi va dardiga ko'nikishga intildi.

Og'riq kamaymadı; ammo Ivan Ilich o'rtaga shunday shartni qo'ydi: ahvoli yaxshiligi haqida o'ylashga o'zini majbur qiladi. Hech narsa tashvishga solmagan pallarda u o'zini alday olardi. Biroq xotini bilan dahanaki jang qilib qolsa, xizmatda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, qartada omadi yurishmasa, og'riq kuchliroq seziladigan bo'lib qoldi; avvallari bunday ko'ngilsiz holatarni, albatta, il-lattarni yengaman, yutuqlarga erishaman, zafar quchaman, degan so'zlar bilan ovuntirib, sezdirmay o'tkazib ham yuborardi. Endi esa har qanday noxushlik uning qo'yog'ini bo'shashtirib yuborar va g'amga cho'mdirardi. O'zicha endi sog'aya boshlaganimda, dorilarning ta'siri bilinayotgan bir paytda mana shu la'nat ko'ngilxirlik yetmay turuvdi, deb g'ijinardi. Yana baxtsizligidan, uni xafa qiluvchi va nafratantiruvchi odamlardan darg'azab bo'lar va bu g'azab uni adoyi tamom qiladigandek tuyulardi;

ammo g'azablanmay turolmasdi. Aftidan, uning g'azabini qo'zg'aydigan vaziyat odamlar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelishi tayin edi, shuning uchun bunday holatlariga beparvo bo'lish lozim; biroq Ivan Ilich butunlay teskari mulohaza yuritardi; o'ziga tinchlik kerak, osoyishtalikka daxl qiladigan ta'sirlarni izga solish lozim. Shunday derdi-yu, arzimagan noxushlikdan ham fig'oni chiqib ketardi. Tabobatga doir kitoblarni o'qib, do'xtirlar bilan maslahatlashaverib, ahvoli battar yomonlashdi. Yomonlashuv shunchalik osoyishta kechayotgan ediki, u buni sezmasdi ham: bugungi ahvolini kechagi kumidan farqolmasdi. Do'xtirlar bilan maslahatlashib bildiki, uning ahvoli og'itashib ketapti, hatto bu jarayon tezlashib bormoqda. Shunga qaramay, u do'xtirlar bilan maslahatlashishdan tiyilmadi. Bu oyda u boshqa bir taniqli zot qabulida bo'ldi: taniqli xonim oldin nima deyilgan bo'lsa, shuni takrorladi, faqat savollarni boshqacharoq qo'ydi. Bu zotning maslahatlari Ivan Ilichning shubhahalari va qo'rquvini faqat kuchaytirdi, xolos. Tanishimining tanishi – juda yaxshi do'xtir – kasallikni butunlay boshqacha sharhladi, sog'ayib ketishiga zo't berib ishontirishiga qaramay, o'zining savollari va tavsiyalarini bilan Ivan Ilichni chalkashtirib yubordi va gumanlarini kuchaytirdi. Gomeopatiya usuli bilan davolovchi shifokor kasallikkha mutlaqo teskari tashxis qo'ydi va dorilar berdi, Ivan Ilich boshqalardan yashirib, bir hafta yengilashish sezmay, oldingi shifo va hozirgi davoga ishonchimi yo'qotib, battar tushkun holga keldi. Bir safar tanish xonim ikonalarning shifobaxsh xususiyati haqida so'z ochib qoldi. Ivan Ilich o'zini majbur qilib, diqqat bilan tingladi va dalilning to'g'riligiga o'zini ishontirdi. Bu yangilik uni qo'rqtib yubordi. „Nahotki aqlim shunchalik zaiflashib qolgan bo'lsa? – dedi o'ziga. – Bo'limag'ur gap! Hammasi

satsata, bularga chalg'immaslik, hushyorlikni qo'lidan bermaslik, bir do'xtirni tanlab, uning aytganlarini og'ishmayado etish lozim. Shunday qilaman ham. Tamom-vassalom. Hech narsani o'ylamayman va yozgacha qattiq davolananam. Shunda hammasi aniq bo'ladi. Endi ikkilanishlar tugadi!..“ Bularni aytish oson edi, bajarish esa ancha mushkul. Biqnidagi og'riq kuchayib bordi, go'yo beshbattar bo'layotgandek edi, endi to'xtovsiz og'rirdi, og'zinga ning ta'mi battar aynidi, unga og'zidan yoqimsiz, badbo'y hid chiqayotgandek tuyuldi, ishtahasi ham, darmoni ham yo'q. Endi o'zini aldab bo'lmasdi: Ivan Ilichning hayotida yangi, muhim, oldin o'z ahamiyati bilan hech ko'rlimagan jiddiy voqeя sodir bo'layotgandi. Buni faqat uning o'zi bilardi, atrofidagilar gap nimadaligini tushunishmasdi yoki tushunishni xohlashmasdi va dunyoda hammasi oldingidek davom etyapti, deb o'ylashardi. Bular ham Ivan Ilichni battar qiyndardi. Uydagilar – asosan, bordi-keldini avj oldirib yuborgan ona va qiz – ko'rдиki, hech nimani tushunishmadni, uning xafaligi va injiqligi uchun o'zini aybdor sanab, battar xo'rligini keltirishdi. Garchi ular bu kayfiyatlarini yashirin tutsalar-da, Ivan Ilich o'zining ulurga xalaqit berayotganini ko'rib turardi. Xotini uning kasalligiga boshqacha yondashmoqda edi, ya'ni eri nima desa ham, nima qilsa ham, o'zini undan yiroq tutdi. Ahvol taxminan mana bunday:

– Bilasizmi, – derdi ayol tanishlariga, – Ivan Ilich risoladagi odamlarday davolanish tariblariga amal qilmaydi. Hozir hapdorilarni ichadi va nima buyurilgan bo'lsa, yeydi, vaqtida yotadi; ertsiga esa, agar men nazorat qilmasam, dori ichishni esdan chiqaradi, osyot balig'ini yeydi (unga taqilangan), yarimkechagacha qarta o'ynaydi.

– E, qachon edi? – deydi Ivan Ilich alam bilan. – Bir martagine Pyotr Ivanovichnikda o'tirgamiz.

- Kecha-chi, Shebek bilan?
  - Baribir men og 'riqdan uxmlay olmayman...
  - Nima bo'lgandayam, bunaqada sen sog'aymaysan, faqat bizlarni qiyngaganing qoladi.
- Zohiran, boshqalarning yetkazishicha va o'zi ko'rib-bilganidek, Praskovya Fyodorovnaning erining kasalligiga munosabati shu tarzda edi va buning uchun uning o'zini ayblar, dardini ortiqcha daxmaza deb bilardi. Ivan Illich sezdiki, bu holat xotinida ixtiyorsiz paydo bo'ldi, biroq bundan o'ziga ham oson emasdi.

Sudda Ivan Illich o'ziga nisbatan g'alati munosabat qaror topayotganini sezdi yoki sezayotganini o'yadi: goh unga yaqinda o'z o'mni bo'shatib qo'yadigan odamdek qarashadi; goh atrofidagilar uning qo'rqinchli, dahshatlisi, qulog eshitmagan vosvosligi ustidan baravariga kulishadilar va hazil uchun istalgan joyga boshlab boradigan yoki tortib ketadigan bahona topilgandek bo'tadi. Ayniqsa, o'zining o'ynoqiligi, so'zamolligi Shvars o'n yil oldingi masrur kunlarni eslatib, Ivan Ilichning battar alamini keltirar, jahlini chiqarardi.

Bir qo'l tashlash muddaosida do'stlar to'plandi, qur olib o'tirdilar. Yangi qartani olib aralashtirdilar, chiyladilar, qarg'ani, ular yetta edi, qarg'aga taxladilar. Sherigiyetdi: kozirsiz, – va ikkita qarg'ani saqlab turdi. Keyin nima bo'ladi? Kulgili, maroqli xotima – qalpoq. Birdan Ivan Illich o'sha jon oluvchi og'riqni, og'zidagi o'sha ta'mni sezdi va unga shu holda qalpoqdan zavq olib xursand bo'lish ajabtovor yovvoyilikdek tuyulib ketdi.

U qo'ldoshi Mixail Mixaylovichning shodon tarzda stolga mush't tushirganini va qarta olishdan iltfot ilan o'zini tiyib, uni Ivan Illich tomonga surib qo'yganini, shu bilan xursand qilish maqsadida qo'lini cho'zmay turganini kuzatdi. „U nima deb xayol qilyapti, men shunchalik

ojizmanki, hatto qarta olishga ham majolim yemaydi debmi?“, – o'yladi Ivan Illich, kozirni unutib qo'ydi, ko'zir qartani yurib yubordi va qalpoqni qo'ldan boy berdi – o'yinda yutqazdi, eng achinarlisi mag'lub bo'lgan Mixail Mixaylovich qaqlashab qoldi, uning uchun esa hammasi bir chaqa. Hamma marsaning qadrsizligini xayolga keltirish esa azob edi.

Hamma umga qiyin bo'layotganini ko'rib turardi va bunday taklif qilishdi: „Agar charchagan bo'lsangiz, o'yinni bas qilamiz. Dam oling“. Dam olish? U hech qachon charchamaydi, timmay qarta surib, barchani charcha-tadi. Hamma sulut saqlab, g'anga botib qoladi. Ivan Illich bu qora bulutni o'zi taratganini biladi va tarqatib yubora olmaydi. Ular kechki ovqatni yeb tarqalishadi, Ivan Illich esa zildek xayollarini girdobida yolg'iz qoladi. Uning hayoti zaharlangan va boshqalarning hayotini zaharlayapti, bu og'u kamaymayapti, aksincha, uning butun borlig'i ni qamrab olyapti.

Ana shunday kayfiyat, boz ustiga qattiq jismoniy og'riq bilan to'shakka kirish lozim va og'riqdan tunning ko'p qismi uyqusiz o'tadi. Ertalab esa yana o'rindan turish, kiyinish, sudga borish, gapirish, yozish, agar biron joyga boshilmasa, uyga qaytish kerak – har bir daqiqasi azob bo'lgan yigirma to'rt soatlik kecha-kunduzni shu taxlit o'tkazayot-gandi. G'orat bo'lish arafasida yaka-yolg'iz, o'zini tushunadigan, qadriga yetadigan biron kishisiz yashayotgandi.

## 5

Shu yo'sinda ikki oy o'tdi. Yangi yil arafasida shaharga quynag'asi kelib ularnikiga qo'nib o'tdi. Ivan Illich sudda edi. Praskovya Fyodorovna xarid uchun chiqib ketgandi. Ivan Illich kabinetiga kirar ekan, bu joyda jomadoni bilan

o'mashib olgan shodon va sog'lom qaynag'asiga duch keldi. Mehmon Ivan Ilichning qadam olishi bilan hushyor tortib, boshini ko'tardi-da, unga bir zum angrayib tikilib qoldi. Shu nazar Ivan Ilich uchun bor manzarani namoyon qildi. Qaynag'a nimadir demoqchi bo'lib og'zini ochdi-yu, to'xtab qoldi. Bu harakat hammasini tasdiqladi.

— Ajabo, o'zgarishlar bor.

— Ha, o'zgarishlar bor.  
Shundan keyin Ivan Ilich o'zining ko'rinishi yuzasidan qancha og'iz ochmasin, qaynag'a miq etmadni. Praskovya Fyodorovna kelib qoldi, qaynag'a opasining oldiga chiqdi. Ivan Ilich eshikni yopib, qufladi-da, o'zini oyanga soldi, oldin to'g'ridan, keyin qiyalab qaradi. O'zining xotini bilan tushgan katta suratini oldi, uni oynadagi aksi bilan taqqosladi. O'zgarish juda katta edi. Keyin qo'llini tirsagigacha shimardi, qaradi, yengini tushirdi, yumishoq o'rindiqa o'zini tashladi va ko'z oldida tun zulmati quyuqlashdi.

„Kerak emas, kerak emas“, — derdi u o'zicha; so'ng irg'ib turib, stolga yaqinlashdi va jildni oshib, ishni o'qishga tutindi, biroq o'qiy ohmadi. Eshikni ochdi va tanobiy xonaga chiqib ketdi. Mehmonxonaning eshigi yopiq edi, ovoz chiqarmay yaqinlashdi-da, ichkariga qulqoq tutdi.

— Yo'q, sen oshirib yuboryapsan, — derdi Praskovya Fyodorovna.

— Nimasini oshiramani? Ko'rmayapsanmi — u o'layotgan odam-ku, ko'ziga qara. Nur yo'q. Unga nima bo'lgan o'zi?

— Hech kim bilmaydi. Nikolayev (bu boshqa do'xtir edi) nimadir dedi, lekin men bilmadim. Leshetitskiy (bu mashhur do'xtir edi) teskari gapni aytdi...

Ivan Ilich nari ketdi, xonasiga kirdi, yotdi va o'ylayboshladi: „Buyrak, tinchimagan buyrak“. U jami do'xtir-

larning buyrak qanday sijishi, qanday bezovta qilishi haqida aytgan gaplarini eslab ketdi. U hissiyot kuchi bilan bu nobakor buyrakni tutib olish, joyiga qo'yish va mahkamlashga intildi; haytovur, bu qo'lidan kelmasdi. „Yo'q, yana Pyotr Ivanovichga boraman“. (O'sha tanishining do'xtir tanishi bor edi.) Qo'ng'iroqni chalib, otni taylorlashni buyurdi va jo'nashga hozirlandi.

— Yo'l bo'lsin, Jan? — xotini o'ta dardchil va g'ayri-datiy mechricon ovoz bilan so'radi.

Bu kutilmagan hamandardlik uni qayg'uga cho'ndirdi. U g'amgin nigohini xotiniga qadadi.

— Menga Pyotr Ivanovich kerak.

Shu bilan do'xtir tanishi bor tanishnikiga yo'l oldi. U bilan do'xtirmikiga borishdi. Do'xtir uni o'tirg'izib qo'yib, uzoq suhbat qildi. Barcha anatomik, fiziologik tafsilotlar bilan tanishgan do'xtirming fikricha, nima ro'y beganini u tushunib yetgan.

Ko'richak bilan jinday bir narsa, arzimagan narsa sodir bo'lgan. Buni to'g'rilash qiyin emas. Bir uzb faoliyati kuchaytirilib, boshqa uzb faoliyatini zaiflashtriladi, shunday qilinganda so'rish yuzaga keladi va hammasi izga tushib ketadi. U tushlikka biroz kechikdi. Tushlik qildi, yayrab suhbatlashdi, biroq anchagacha ishlagani kabinetiga o'tgisi kehmadni. Nihoyat, kabinetiga kirdi va shu zumda ishga g'arq bo'ldi. U ishni o'qidi, ishladi, ammo xayolining tubida cho'kib yotgan, qotib qolgan bir ishni ortga surib qo'yayotganligi haqidagi fikr tinchlik bermayotgandi. Yumushlarimi tugatgach, bu qotib qolgan ish ko'richak muammosi ekamini esladi. Biroq bunga e'tibor bermadi, choy ichgani mehmoxonaga yo'l oldi. Mehmонlar bor ekan, suhbatlashdilar, fortepiano chaldilar, qo'shiq kuyladilar; qizining ardoqli kuyovi, sud tergovchisi ham bor ekan. Praskovya Fyodorovnaning fikricha, Ivan Ilich

oqshomni boshqlardan ko'ra quvnoqroq o'tkazdi, ammo u bir daqqa ham ko'richak muammosi yuzasidan qotib qolgan ishni unutolgani yo'q. Soat o'n birda xayrlashdi, o'z bo'lmasisga kirib ketdi. U kasallanganidan buyon kabinetining yonidagi kichkina xonada bir o'zi uxldadi. Ichkariga kirib yechindi, Zolyaning romanini qo'lliga oldi, ammo kitobni o'qimadi, o'yga cho'mdi. Uning xayolidan qadrdon ko'richakning tuzalib qolishi haqidagi fikr o'tdi. So'rilsa, chiqarib tashlansa, me'yordagi faoliyati tiklansa. „Ha, hammasi shunday bo'ladi, – dedi o'zicha. – Faqat tabiatga ko'maklashib yuborish lozim!“ Dori esiga tushib qoldi, o'midan turdi, uni ichdi, uning qanday shifo ato etayotganimi, og'riqni yo'qotayotganimi his etib, yelkasi bilan yotdi. „Faqat dorini me'yorida ichish va noxush ta'sirlardan qochish kerak; men endi o'zimni yaxshi, hatto juda yaxshi his qilyapman!“ U biqinini paypaslab ko'rdi, og'riqni sezmadni. „Ha, sezmadim, to'g'ri, juda yaxshi!“ U shammi o'chirdi va yonboshi bilan yotdi... Ko'richak so'ryapti, tuzalyapti. Birdaniga u o'sha tanish, simillagan, zirqiragan og'riqni sezib qoldi. Og'zida ham o'sha la'nati tanish maza. Yuragi o'ynab ketdi, boshi hech qachon to'xtamaydi. Birdaniga dunyo ostin-ustun bo'lib ketdi. „Ko'richak. Buyrak, – dedi o'zicha. – Gap ko'richakda ham, buyrakda ham emas, balki hayot va... o'limda. Ha, hayot bor, u o'tyapti, o'tyapti, men uni tutib qola olmayapman. Ha. O'zni aldash nimaga kerak? Nima, o'zimdan boshqa hech kimga ma'lum emasmi, men o'lamman, faqat masala haftalarda, kumlarda, balki, hozirdadir, bo'lishi mumkin. Qachondir yorug'lik bor edi, endi zulmat. Qachondir men shu yerda edim, endi u yerga... Qayerga?“ U muzlab ketdi, nafasi to'xtadi. Faqat yuragining urishini eshitib turdi.

„Men bo'lmayman, xo'sh, shu bilan nima ro'y beradi? Hech narsa bo'lmaydi. Agar men yo'qolib qolsam, qayerga ketaman? Nahotki o'lim? Yo'q, xohlamayman“. O'midan turib ketdi, shamni yoqmoqchi bo'ldi, qaltiroq qo'llari bilan paypaslandi va shamdondagi shamni polga tushirib yubordi, iziga qaytib, o'zini yostiqqa tashladi. „Nima uchun? Baribir, – ochiq ko'zlar bilan qorong'tilikka tikilib gapirdi o'zicha.

– O'lim. Ha, o'lim. Ular hech nimani bilmaydi, bishni xohlamaydi, shafqat ham qilmaydi. Ular o'yin qiladi. (Qulog'iga eshik ortidan, uzoqlardan taralayotgan kulgi ovozlari va qiyqirqlar chalindi). Ularga baribir, ammo ular ham o'ladi. Ahmoqlar. Men oldimroq, ular esa keyin. Ular mammun bo'lisyapti. Hayvonlar!“ G'azab uni bo'g'ib qo'ydi. Unga juda qiyin, ko'tarib bo'lmaydigan darajada og'ir bo'lib ketdi. Biroq doimo bunday dahshatli qo'rquv girdobida ham qolib bo'lmasdi. U o'midan turdi.

„Nimadir joyida emas; o'pkani bosib olish kerak, hammasini boshidan o'ylab ko'rish kerak“. Va u o'lay boshladи. „Ha, kasallikning boshlanishi. Biqinimi ni urib olganimda hech o'zgarish yo'q edi, kecha qandoq bo'lsam, bugun ham, ertaga ham shundoq edim, so'ng biqinim similab qoldi; jinday bezovta qildi, keyin ko'proq, keyin do'xtir, kayfiyatim buzildi, ranj-alam, yana do'xtir; men esa jar yoqasiga borgan sari yaqinroq kela boshladim. Quvvat oz. Yaqinroq, yaqinroq. Va men cho'pdek qurib qoldim, ko'zimda nur yo'q. Birdaniga o'lim vasvasasi, men esa ichak haqida o'yayman. Ichakni surobga keltirish haqida o'yayman, bu esa o'lim degani. Nahotki o'lim?“ Yana qo'rquv g'uluv qildi, u halloslab, kajava bo'lib qoldi, gugurtni izlay boshladi, tirsagi bilan qutiga tiralib qoldi. Quti umga xalaqt berdi

va og'ritdi, bundan g'azabi qo'zg'adi, o'kinch bilan uni itargan edi, quti uning ustiga ag'anab tushdi. U yelkasi bilan yerga qapishgancha umidsiz bo'g'ilib yotar ekan, o'limni kutardi.

Bu paytda mehmонлар tarqalayotgan edi. Praskovya Fyodorovna уларни kuzatishga chiqqan. Nimadir qulab tushganini eshitib, u xonaga kirdi.

– Senga nima bo'ldi?

– Hech narsa. Bilmasdan turtinib ketdim.

Ayol chiqib ketdi va sham olib keldi. U ko'zlarini xotiniga qattiq tikkancha, bir chaqirim masofadan yugurib kelgan odamdek og'ir-og'ir nafas olib yotardi.

– Senga nima bo'ldi, Jan?

– He...ch nar...sa. Tur...timib ket...dim. – „Gapirib nima qildim. U baribir tushummaydi“, o'yladı Ivan Illich.

Rostdan ham u tushunmadı. Erini ko'tarib qo'ydi, shammni yodqi va shoshgancha chiqib ketdi; mehmonlarni kuzatib qo'yishi kerak edi.

U qaytib kirganida eri chalqancha tushgan ko'yи shift-ga termilib yotardi.

– Nima bo'ldi, mazang qochdimi?

– Ha.

Ayol boshini irg'ab qo'ydi, o'tirdi.

– Billasanni, Jan, o'ylaymanki, Leshetitskiyni uygachaqirish kerak.

Taniqli shifokorni uygachaqirish pulni ayamaslik degани edi. Bemor achchiq kulimsirab „Yo'q“ dedi. Ayol erining yoniga o'tirib peshonasidan o'pdi.

Ivan Illich xotimi o'payotganida qalbining butun nafrati bilan uni yomon ko'rib ketdi, uni itarib yuborishdan o'zini arang tiydi.

– Xayr. Xudo yorlaqasın. Uxlarsan.

– Ha.

Ivan Illich o'layotganini sezib turar va doim asabiy horlatda bo'lardi.

Ich-ichidan shuni anglasa-da, o'limga ko'mikish u yoqda tursin, hatto nega bunday bo'layotganini tushunolmasdi, hech qachon tushunib yetmasdi.

U Kizevett'er<sup>1</sup> mantig'ida shunday sillogizmni o'qigandi: Kay – odam, odamlar o'limga mahkum, shunday ekan, Kay ham o'limga mahkum. Lekin bu mantiq Kayga nisbatan to'g'ri, zinhor Ivan Illichga emas. Kay – oddiy bir odam desak, bu xulosa mutlaqo adolatlì, Ivan Illich esa shunchaki odam emas, har doim barcha jonzoltardan juda-juda farq qiluvchi alohida inson edi; u bolalikning, o'smirlikning, yoshlilikning jami shodliklari, iztiroblari, hayajonlari bilan, ota-onasi bilan, Mitya va Volodya bilan, o'yinchoqlari, izvoschchi, enaga, keyin Katenka bilan birga bo'lган Vanya edi. Axir, Kayga u juda sevgan, charm qoplangan koptokchaning hidi tanishmidi? Axir, Kay onasining qo'llini shunday mehr bilan o'pgannmidi? Onasining ko'ylik burnmalari Kay uchun mayin shivirlagannmidi? Kay uningdek sevilganmid? Kay majlislarni uningdek olib bora olarmidi?

Kay o'limga mahkum va u o'lishga arzir ham, biroq men, Vanya, Ivan Illich, barcha ichki tug'yonlarim, o'ylarim bilan o'lishim – bu boshqa masala. Va mening o'lim changaliga tushishim mumkin emas. Bu dahshat axir. Unga shunday tuyulardi.

„Agar qismattinga Kay singari o'lish bitilganda, buni oldindan sezardim, botiniy ovoz shuni aytardi, lekin men-

<sup>1</sup>Logann Kizevett'er (1766-1819) – olmon mantiqshunosи va faylasufi.

da bunday bo'lindi-ku; men va do'stlarim – hammamiz buning Kay bilan yuz berganidek emasligini tushunib turardik. Endi esa ahvol bu! – derdi u o'ziga o'zi. – Bo'lishi mumkin emas. Biroq... mumkin ekan. Bu yog'i qandoq bo'ldi? Buni qanday tushunish kerak?“ Chindan ham u tushuna olmasdi va yolg'on, noto'g'ri, yoqimsiz bu fikrdan qutula olmasdi, uni boshqa, to'g'ri, sog'lon fikrlar bilan sitib chiqarishga intillardi. Lekin shu fikr faqat fikr emas, haqiqatdek qayta paydo bo'lar va qarshisida turib olardi.

U najot topish ilinjida bu fikrning o'rniga navbat bilan boshqa o'yalmi chorlay boshladi. O'lim haqidagi xayollarни quvgan burung'i tafakkur tarziga qaytishga unindi. Biroq – g'alati holat – oldin nima o'lim tuyg'usini to'sgan, yopgan, yo'qotgan bo'lsa, endi hech biri o'shanday qila olmasdi. Keyingi paytlarda Ivan Il'ich o'lim vahimasini yashirib turuvchi ilk fikrlash tarzini tiklashga ko'p urindi. Ba'zan o'ziga derdi: „Ish bilan shug'ullanaman, axir unga hayotimni bag'ishladim-ku.“ Va u ko'nglidagi barcha shubhalarini itqitib, sudga yo'l oldi; o'rioqlari bilan suhbatlarda ishtirok etdi va eski odati bo'yicha yoyilib, odamlar to'dasiga o'ychan nigoh tashlab, ozib ketgan qo'llari bilan dub kresloning suyan-chig'iga tayanib, o'rtog'iga xuddi oldingidek engashib, qog'ozni surib qo'yib, qulog'iga shivirlab, keyin birdan ko'zini jalanglatib va tik qarab tanish so'zlarni aytdi va ishni boshladi. Kutilmagenta biqinida og'riq turdi va majlisning avj pallasiga sira e'tibor qaratmay, o'zinining qoqshatuvchi ishimi boshladi. Ivan Il'ich berilib tinglar, og'riq haqidagi fikrdan o'zini chalg'itardi, biroq dard simillashda davom etar, qarshisida turib olib, unga temilardi go'yo. Ivan Il'ich qotib qoldi, ko'zidagi cho'g'o'chdi va yana o'zidan so'ray boshladi; „Nahotki faqat

u haq?“ O'rtoqlari va qo'l ostidagi xodimlar hayrat va nadomat bilan ko'rib turardilarki, shunday mohir, tajribali qozi adashib ketyapti, xatolarga yo'l qo'ymoqda. U silkinib hushiga kelishga intildi, majlisni nari-beri tugatdi-da, endi yig'ilishlarni oldingidek olib bora olmasligi, yashirib kelgan dardi o'zini ham boshqalar nazaridan, olamidan bekitib qo'yayotganini his etib, tushkun kayfiyatda uyiga qaytdi; qozilik faoliyat bilan undan qutulishning iloji yo'qligi aniq edi. Hammasidan yomoni shu ediki, dard uni biror nima qilishga undamas, faqat diqqatini tortib, og'riqning ko'ziga tik qaragancha ayтиб bo'lmas darajada azob chekishga majbur etardi.

Ivan Il'ich bunday holaddan qutulish uchun o'zga taskin, o'zga niqob izladi, bunday niqoblar ham qisqa muddatga uni qufqargandek bo'ldi, biroq zum o'tmay og'riq nur kabi ularning ichidan sizib o'tar, uni hech narsa to'sib qololmasdi go'yo.

Bir safar, keyingi kunlarning birida, u mehmonxonaga, o'sha o'zi tuzagan, yiqilib tushgan, – buni o'yash zaharxanda kulgi qo'zg'ardi, – o'zi uni taxtashda hayotini qurbon qilgan, negaki kasalligining boshlanishiga o'sha yiqilib tushishdag'i lat yeyish sabab bo'lgrandi, – shu xonaga kirdi va loklangan stolning bir cheti nima bilandir qirilganimi ko'rди. Buning sababini izlay boshladi va chetiga surib qo'yilgan albomning bronzzadan yasalgan bezagi qiyshayib qolganini payqadi. U o'ziga qadrdon, o'zi mehr bilan tuzgan albomni oldi, qizi va o'rtoqlarining isqirtligidan alami toshdi, – varaqqlari yirtilgan, suratlар bu langandi. Albomni hafsalá bilan tartibga keltirib, bezakni to'g'rilab qo'ydi.

Keyin albomlar solingen javonni boshqa burchakka, gullar yoniga o'matish fikri xayoliga keldi. U xizmat-korni chaqirdi: qizimi, xotinimi yordamga kelishdi; ular

rozi bo'lishmadi, tortishdilar, u bahslashdi, jahli chiqdi; baribir hammasi yaxshi edi, negaki anavi haqida eslamadi, u ko'rinnadi.

U urinib turganda birdaniga xotini ishni rasvo qildi: „To'xta, odamlar siljitaldi. Yana o'zingga bir baloni ortirasan“, shunda birdaniga u niqob ortidan elaslanib ko'rini ketdi, uni aniq ko'rdi. Ivan Illich umid qildiki, u o'tib ketadi, biroq beixtiyor biqini zirqiradi, – u joyida o'tiribdi, shu joyni bezovta qilyapti, endi unuta olmaydi, u gullar ortidan yuzsizlarcha Ivan Illichga boqib turibdi. Muddaosini nima?

„Rosti, xuddi shu yerda, manavi parda ortida hujumda jon taslim qilgandek men hayotimni boy berdim. Nahotki? Qanday dahshatli va ahmoqona qismat! Bunday bo'lishi mumkin emas! Mumkin emas, biroq bo'lyapti“.

Ivan Illich kabinetga kirib o'runga cho'zildi va u bilan yolg'iz qoldi. Ko'zi ko'ziga tushib turibdi, u bilan qiladigan ish yo'q. Faqat unga termilish va qo'rquvdan muzlash qoldi.

## 7

Ivan Illich dardga chalinganining uchinchli oyida shunday vaziyat yuzaga keldiki, buni payqamaslik mumkin emasdi, negaki qadam-baqadam shunga borilayotgandi, xotimi, qizi, o'g'il, xizmatkorlar, tanishlar, do'xtirlar, eng muhimmi uning o'zi – bildirlarki, Ivan Illichga nisbatan boshqalarning bor qiziqishi shundan iborat edi: nihoyat, u yaqinda joyini bo'shatadi, o'zining borligi bilan yuzaga kelgan qisisinishdan tiriklarni xalos etadi va o'zi ham jami qynoqlardan xalos bo'ladi.

U kamuyqu bo'lib qoldi; unga afyun berdiyar va morfin purkay boshladilar. Bu muolajalar unga kor qilamadi. Boshida yarim uyqu holatida his etgan ma'nisz

qo'msash kayfiyatidan biroz o'ziga kelgandek bo'ldi, biroq keyinroq bu ham oldingidek, hatto undan ham battar ezadigan kuchliroq og'riqqa almashdi.

Unga do'xtirlarning tavsiyasi bilan alohida ovqat tayyorladilar; biroq bu taomlar uning uchun bemazadan bemaza, yoqimsizdan yoqimsiz tuyulardi. Ichimi bo'shatishi uchun ham maxsus moslama yasab berishdi, har safar bu ham azob edi. Azob ifloslikdan, yoqimsizlikdan, badbo'y hiddan va bu yumushda boshqa birovning ishtiroyidan edi.

Biroq shu xijolatlari ishda Ivan Illichga yupanch ham topildi. Axlatni olib chiqish uchun oshxonada xizmatchisi Gerasim kelardi.

Gerasim pokiza, sog'lom, shahar maishatida semirib qolgan yosh yigit edi. Har doim quvnoq, ochiqko'ngil. Boshida ruscha kiyangan, tartibli bu bolaning o'ziga yarashmagan yumushi Ivan Ilichni ajablantirdi.

Bir safar u tuvakdan turdi-yu, ishtomini ko'torishga madori yetmay, yumshoq kresloga qulab tushdi va o'zining yalang'och, etlari tirishib qolgan soniga tikilib qoldi. Atrofga katta etigidan taralyotgan yoqimli qoramoy hidini anqitib, qishning toza havosini olib, movut peshband taqqan va chayir, yosh bilaklariga yengi shimarilgan yangi chit ko'yik kiygan Gerasim yengil qadamlar bilan kirib keldi-da, odatdagidek, bemonri xijolat qilmaslikka urinib, yuzidan hayot zavqi va latofati ufurib turgancha tuvakkha yaqinlashdi.

– Gerasim, – arang gapirdi Ivan Illich.

Gerasim qandaydir dag'allikkala yo'l qo'ygandek titrab ketdi va ildam harakat bilan o'zining navqiron, yoqimtoy, soddha, tarovatli, endi tuk qoplay boshlagan ruxsorini bermor tomon o'girdi.

– Nima xohlaydilar?

– Sen uchun, o'ylashimcha, noqlay. Meni ma'zur tut.  
Mening ilojim yo'q.

– Xijolat bo'lmasinlar. – Gerasim ko'zlarini chaqnab oppoq sog'lom tishlarini ko'rsatdi. – Bundan nega aziyat chekasiz? Sizning tobingiz yo'q-ku.

Va u o'zining chaqqon, kuchli qo'llari bilan odadagi ishini bajardi-da, shipillab chiqib ketdi. Besh daqiqadan so'ng yana shunday shipillab qaytib keldi.  
Ivan Ilich hamon o'rindiqda o'tirardi.

– Gerasim, – dedi u yigit tozalab yuvilgan tuvakni joylashtirar ekan, – iltimos, menga yordamlash, yaqinroq kel. – Gerasim bordi. – Meni ko'tar. Bir o'zimga og'ir, Dmitriy ni jo'natib yuborgandim.

Gerasim yaqinlashdi; qanday yengil kirib kelgan bo'lsa, shunday yengil va chaqqon harakat bilan bavuvat qo'lida uni ko'tardi, narigi qo'li bilan ishtonini to'g'rilab, turg'azib qo'ymoqchi bo'ldi. Ivan Ilich o'zini divanga o'iqazishni so'radi. Gerasim qyinchiliksiz, go'yo erkatalgandek uni opichlab, divan oldiga olib boradi va o'tqazib qo'yidi.

– Rahmat. Qanday yaxshi. Hammasini... tez, chaqqon bajarasan.

Gerasim yana tabassum qildi va ketishga chog'landi. Ivan Ilichga u bilan birga bo'lish yoqib qolayotgan edi, qo'yib yuborishni xohlamadi.

– Iltimos, anov stulni men tomon sur. Yo'q, mana buni, oyog'im tagiga. Oyog'im yuqori bo'lsa menga yoqyapti. Gerasim stulni keltirib taqillatmay qulay o'mashtirdi va Ivan Ilichning oyog'ini ko'tarib, ustiga qo'yidi; Gerasim oyog'ini yuqori ko'targan paytda Ivan Ilichga ancha yoqimli tuyulgandek bo'ldi.  
– Menga oyog'imming yuqori turishi yoqyapti, – dedi Ivan Ilich. – Anov yostiqni ham shu yerga qo'y.

Gerasim shunday qildi. Yana oyoqni ko'tarib yostiqni joylashtirdi. Yana Ivan Ilichga Gerasimning oyog'ini baland tutib turishi yoqdi. Oyoqni tushirganda yana yomon bo'ldi.

– Gerasim, – dedi u xizmatkorga, – sen hozir bandmisan?

– Hech qanday ishim yo'q, – janoblar bilan gaplashining havosini olgan shaharlklarga o'xshab javob berdi Gerasim.

– Yana nimadir qilishing kerakmi?

– Nima ham qillardim? Hammasini bajardim, faqt er-tangi kunga o'tin yorish qoldi.

– Oyog'imi shunday yuqori ko'tarib tur, maylimi?  
– Bajon-u dil. – Gerasim oyoqni yuqori ko'tardi, shunday holatda Ivan Ilich og'riqni sezmayotgandek bo'ldi.

– O'tin nima bo'ladi?  
– U yog'idan bezvota bo'l mang. Hammasiga ulgu-ramiz.

Ivan Ilich Gerasimga oyog'ini ushlab yonida o'tirishni buyurdi va xizmatkor bilan u yoq-bu yoqdan so'zlasha boshladи. Qiziq, Gerasim oyoqni ushlab turganda og'riq bosilgandek tuyuldi.

Shundan keyin ba'zan Gerasimni chaqiradigan, oyoqni yelkasida tutib turishga qistaydigan bo'ldi, u bilan gaplashish Ivan Ilichga yoqardi. Gerasim Ivan Ilichni ayananidan bularning hammasini yurakdan chiqarib, tez, chaqqon va jo'ngina ado etardi. Boshqa odamlarning salomatligi, hayotsevarligi, xushchaqchaqligi Ivan Ilichning g'arazini qo'zg'ardi; faqt Gerasimning hayotsevarligi va xushchaqchaqligi Ivan Ilichning g'ashini keltirmas, aksincha, tinchlantrardi.

Ivan Ilichni azoblaydigan, negadir hamma tomonidan tan olingan yolg'on, bu – u faqat kasal, ammo o'l-

maydi, xotirjam davolansa bo'lgani, shunda hammasi iziga tushib ketadi degan safsata edi. U esa yaxshi bিardiki, nima qilmasınlar, battar jon oluvchi og'riq va oxirida o'lindan boshqa hech nima ro'y bermaydi. Bu yolg'on uni yomon qiyandi, shunday qiyandiki, bu mash'un xulosani o'zlarini ham biladi, u ham biladi, biroq tan olishni xohlashmasdi, boz ustiga uning ayanchni holati yuzasidan yana yolg'on gapirib, uning o'zini ham bu aldrovgaga ko'nishga majbur qilishardi. Paymonasi oldidan uni o'zi haqidagi safsataga ishonitirishlar, mehmonorchiliklar, pardalar, tushlikdagi osyot... — hammasining davomiga uning o'limini qo'rqinchli tantanadek suqib kiritishga mo'ljallangan yolg'on Ivan Illich uchun shafqatsiz azob edi. Ajabki, ko'p marta unga o'z qiliqlarini namoyish eta boshtaganlarida ularga baqirib yuborishdan arang tiyillardi: aldashni bas qilinglar, o'lishimni siz ham bilasiz, men ham bilaman, shunday ekan, bas qilinglar, jilla qursa yolg'on gapirmanglar. Biroq hech qachon u bunday gapirishga botinoqlasdi. Ivan Illichning dahshatlari va vahimali o'limi atrofdagilarga kutilmagan tasodifdek yoqinsiz, o'zi bir umr sazovor bo'lgan „yoqimtoylig“ning ajri sifatida ko'ngilsiz yoki bir qadar nojo'ya (xuddi bir odam mehmonxonaga kirib, o'zidan badbo'y hid taratgandek) tuyulardi; u ko'rib turardiki, unga hech kimning rahmi kelmaydi, negaki hech kim hatto hozir ham uning holatini tushunishni xohlasmadsi. Faqt Gerasimning ahvolimi tushundi va yuragi achishdi. Negaki Ivan Illichga Gerasim bilan birga bo'lish taskin berardi, yoqardi. Gerasimning ba'zan miq etmay tun bo'yidning oyog'ini yelkasiga qo'ygancha uzluk-siz o'tirishi, hatto uxlashni ham xohlama, „Siz hech ham xijolat bo'lmang, Ivan Illich, hali uxtlab olaman“, deb turishi; ba'zan kutilmaganda sensirab, „Sen betob

bo'lsang, nega xizmat qilmaylik?“ deb qo'shib qo'yishlari yoqardi. Faqt Gerasimgina yolg'on gapirmasdi, af-tidan, u gap nimadaligini tushuniб yetgan, ko'rimib turibdi, yashirishning hojati yo'q, cho'pdek ozib ketgan, zaif xo'jayiniga uning rahmi keladi. Hatto bir safar Ivan Illich uni jo 'natib yuborayotganida ochiqchasiiga:

— Bir kun hammamiz o'lamiz. Nima uchun xizmat qilmaslik kerak? — dedi u go'yo o'lim to'shangidagi odamga xizmat qilayotganidan aslo aziyat chekmayotganini va vaqt kelganda o'ziga ham kimdir shunday xizmat qilishidan umidvorligini ta'kidlagandek.

Yolg'on va uning asoratlaridan tashqari Ivan Illichni yana bir narsa qiyndari: uni qadrlashmayotgandi, u xohlagandek qadrlashmayotgandi; muttasil og'riqlardan keyin, ba'zi daqiqalarda uzoq o'yoldi: uyut bo'lsayam kimdir uni xuddi kasal boladek ardoqlasa, u xohlardiki, unga xuddi yosh bolalarni erkaltagandek, ovuntir-gandek munosabarda bo'lsalar, uni ham erkalatsalar, o'psalar, boshida ko'zyosh to'kib o'tirsalar. U bilardiki, o'zi oilaning e'tiborli a'zosini, oqargan soqoli bunga izn bermaydi; ammo baribir shunday bo'llishini istardi. Ger-asim bilan munosabatlariida shunga yaqin nimadir bor edi, shuning uchun ham Gerasim bilan munosabat unga taskin berardi. Ivan Illich yig'lashni, boshi ustida bosh-qalarning ham yig'lashini, erkaltishlarini xohlardi-yu, ammo mana, sud a'zosini, davradoshni Shebek keldi, uning yig'lashga, erkalaشha siyoqi bor edi, Ivan Illich esa jiddiy turib, salobatlisi, chuhur o'yga tolgan qiyofada va o'r ganib qolganidek dabdaba bilan kassatsion qarorming ahamiyati haqida so'z ochdi va o'z filkrining to'g'riligini uqtirishga kirishib ketdi. Uning atrofidagi va o'zidagi bunday munofiqlik keyingi paytda Ivan Illichning hayotini hammadan ko'ra ko'proq zaharlaadi.

Subhidam edi. Subhidam bo'lganligi Gerasim ketgan va Pyotr malay kelib, shamlarni o'chirgan, pardalarini ochgan va xonani asta yig'ishtrishni boshlaganidan bilindi xo'los. Tongmi, tunmi, yakshanbami, jumami – hech bir farq qilmay qoldi, faqat bir daqiqqa ham timmay sirqiratadigan, azobli og'riq; tobora adog 'iga yetib borayotgan, lekin hali tugamagan tirklik hissi; yaqinlashayotgan qo'rinchli, shafqatsiz o'sim va yolg' onlar girdobigna ta'qib qilardi. Bunaqada kunlar, haftalar, soatlarning hisobi bo'ladi mi?

– Choy buyuradilarmi?

„Malaya taribni saqlash muhim, ertalab janoblar choy ichsalar bas“, – o'yładi u va qisqa qilib:

– Yo'q, – dedi.

– Divanga o'tishga qiyalmaysizmi?

„U xonani taribga keltirishi lozim, men esa unga xalqit beryapman, men ivrisiqlik, tartibsizlik keltiraman“, – o'yładi Ivan Ilich va dedi:

– Yo'q, meni tinch qo'y.

Malay yana g'imirlay boshladи. Ivan Ilich qo'limi cho'zgach, Pyotr eshilib yaqin keldi:

– Nima buyuradilar?

Soat.

Pyotr yostiq ostida yotgan soatni keltirib uzatdi.

– To'qqiz yarim. Ular turishmadimi?

– Yo'q hali. Vasilii Ivanovich (bu o'g'li edi) ganimiyaga ketdilar, Praskovya Fyodorovna esa agar siz so'rasangiz, uyg'otishimni tayinlagandilar. Buyuradilarmi?

– Yo'q, kerak emas. – „Choydan tatib ko'rsam-chi?“ – o'yładi u. – Ha, choy... keltir.

Pyotr tashqariga yo'naldi. Ivan Ilichga yolg'iz qolish qo'rinchli tuyulib ketdi. „Uni qanday tutib qolish mumkin? Ha, dori“.

– Pyotr, menga dorini uzat. – „Dori nimaga ham kor qilardi?“ U qoshiqni olib, dorini ichdi. „Yo'q, foydasi yo'q. Bari behuda, yolg'on, – og'zida tanish, chuchmal, yoqimsiz ta'mni tuyar ekan u shunday xulosaga keldi. – Yo'q, ishona olmayman. Oq'riq bir nafasga bo'lsa ham tinsaydi. „U ingray boshladи. Pyotr qaytib kirdi. – Yo'q, bor. Choy keltir.

Pyotr ketdi. Yolg'iz qolgan Ivan Ilich yana ingray boshladи, faqat azobli og'riqdan emas, qayg'udan, yurak siqlilishidan ingrardi. „Bu adog'i yo'q kun-u tunlar, bari bir xil. Tezroq kelsaydi. Nima tezroq? O'lim, zulmat. Yo'q yo'q. Bular o'limdan yaxshiroq!“

Pyotr patnisda choy olib kirganda Ivan Ilich unga bu kim, u nima, degandek uzoq angrayib qarab qoldi. Pyotr bu qarashdan xijolat tordi. U o'ng aysizlanib turar ekan, Ivan Ilich hushiga keldi.

– Ha, – dedi u, – choy... yaxshi, qo'y. Faqat yuvini-shimga yordamlashib yubor va toza ko'yylak keltir. Ivan Ilich yuvinishga tutindi. U to'xtab-to'xtab qo'li, yuzini yuvdi, tishini tozaladi va sochini taray boshladi-da, oynaga ko'z tashladi. U qo'rqib ketdi, ayniqsa, sochining yaltiragan peshonasiga tekis tarmashib turishi qo'rinchli tuyuldi.

Ko'ylagini almashtirayotganlarida, agar badaniga ko'zi tushsa, yana ham qo'rqib ketishini tushundi-da, o'ziga qaramadi. Mana, hammasi nihoyasiga yetdi. U xalatni kiyib, qalin jun ro'molga o'randi va choy ichish uchun stol yoniga o'tirdi. Shu asnoda bir zum o'zini yengil his etdi, ammo choy ichishni boshlar ekan, yana o'sha ta'm, yana o'sha og'riq qaytdi. U o'zini zo'rlab,

„Jahon adabiyoti tarkumidan

choyni oxirigacha ichdi, so'ng oyog'ini uzatib, cho'zildi. Yotdi-da, Pyotrqa ruxsat berdi.

Yana o'sha gap. Ba'zan umid uchquni porlab qoladi, ba'zan pushaymonlar ummoni junbishga keladi, yana o'sha og'riq, yana o'sha azob, o'sha qo'msash va hammasi bir xil, o'zgarmas. U yolg'izlikdan azoblanib, kinnidir chaqrigisi keladi, ammo biladiki, yonida birov o'tirsada voli bundan ham battar bo'ladi. „Balki, yana morfin ichish kerakdir, bari esdan chiqadi-ku. Men unga, do'xtirga aytaman, boshqa biror narsa o'ylab topsin. Bunday yashash mumkin emas, mumkin emas“.

Bir-ikki saat shunday o'tadi. Mana, tashqaridan qo'n-g'iroq tovushi eshitildi. Zora, do'xtir bo'lsa. Ha, bu do'xtir, sizni biror nima cho'chiddimi, hozir hammasini to'g'rilaymiz qabilidagi ifodani niqob qilib olgan bar-dam, xushchaqchaq, semizgina, quvnoq shifokor. Do'xtir bu ifoda mazkur holatga yopishmasligini biladi, ammo u xuddi ziyoftiga borayotgan odam ertalab zarchoponini yelkasiga ilib olgandek, bu niqobni bosib kiyib olgan vani aslo yechmaydi.

Do'xtir zavq bilan, shoshilmay qo'llini artadi.

– Sovqotib ketdim. Qattiq sovuq. Isinib olsam maylimi? – deydi xuddi u isinib olishi uchun jinday kutib turish lozim, shundan keyin bari izga tushib ketadigandek ohangda.

– Xo'sh, qalaysiz?

Do'xtir Ivan Ilichga „Ishlar qalay?“ degisi keladi, biroq u sezadiki, bunday deb bo'lmaydi va „Tunni qanday o'kazdingiz?“ deydi.

Ivan Ilich do'xtirga „Nahotki sen hech yolg'on gapirishdan uyalmasang?“ degandek qaraydi. Biroq do'xtir savolni tushunishni xohlamaydi.

Va Ivan Ilich noliydi:

– Baribir juda qattiq azob. Og'riq o'tib ketmayapti, yo'qolmayapti. Nimadir bo'lganda edi!

– Ha, siz kasallar doim shunaqasizlar. Xo'sh, qarangki, isinib ham oldim, hatto injiqina Praskovya Fydorovna shu yerda bo'lganida ham, mening haroratimga e'tiroz bildirolmasedi. Xo'sh, salom berdik. – Do'xtir qo'l olishadi.

Va birdaniga oldingi nag'malarini yig'ishtirib, jiddiy qiyofada bemorni ko'zdan kechirishga tutinadi, tomir urishi, haroratni o'lchaydi, izidan dukullatish, tinglab ko'rishlar boshlanadi.

Ivan Ilich hech shubhasiz biladiki, bularning bari xo'jako'rsinga, aldrov, biroq do'xtir tizzalab, engashgan-cha qulog'ini goh yuqoriga, goh pastga tutib, ma'nodor qiyofada uming ustida turli tana mashqlarini ijro etar ekan, Ivan Ilich xuddi bir paytlar advokatlarning nima uchun yolg'on gapirayotganini bilsa-da, maftun bo'lib tinglangandek do'xtirning jonhalak harakathariga mahliyo bo'lib qoladi.

Do'xtir divanga cho'kkalab, yana nimanidir dukulatib turganida Praskovya Fyodorovnaning shohi ko'ylagi shitirladi va do'xtirning kelgamini bildirmagani uchun Pyotrga tanbeh bergani eshitildi.

Ayol ichkariga kirdi, erini o'pdii va birdaniga allaqachon uyquдан turgani, faqat anglashilmochilik tufayli do'xtirning kelgamini payqamay qolganini isbotlashga tushib ketdi.

Ivan Ilich unga suq bilan qaradi, boshdan oxir ko'z yogurtrib chiqar ekan, uning oppoq, do'mboq, toza qo'llariga, bo'yninga, ovozidagi jarangga va ko'zida hayot ufurib turgan shu'laga hasadi kelib ketdi. U qalbining butun quvvati bilan xotinidan nafrathanar, xotini teginganida unga nishbatan ko'ngliga to'lib-toshgan nafratdan ezillardi.

Ayohning eriga va uning dardiga munosabati odadidek edi. Xuddi do'xtir bermorlarga nisbatan ma'lum munosabat tarzini joriy qilgan va shundan voz kecha olmaganidek, aylol ham bir qolipdag'i gaplarni bilib olgandi – eri aytilgan tavsiyalarga amal qilmaydi, hammasiga o'zi aybdor va bu ham yetmaganday timmay ta'na qiladi. Praskovya Fyodorovna eriga shundan boshqa muomalanai loyiq ko'rmasdi.

– Ko'rmaysizmi, hech qulqoq solmaydi! Dorilarni vaqtida ichmaydi. Boz ustiga doim oyog'ini tepaga ko'taridi, bu, ehtimol, unga zarardir.

Aylol uning Gerasimni oyog'ini tutib turishga qanday majbur qilishini erinmay hikoya qiladi.

Do'xtir yoyilib, beozor kuladi: „Nima ham qillardik, afsuski bu bermorlar shunaqa ahmoqona narsalarни o'ylab topishi shadi, chidashdan boshqa ilojiyo'q; ularni tushunsa bo'ladi“.

Ko'rik tugagach, do'xtir soatga qaradi va shu payt Praskovya Fyodorovna Ivan Ilichga ma'lum qildiki, eri rozi bo'lsayam, bo'limasayam u taniqli do'xtirmi takif qilgan va ular Mixail Danilovich (odatdag'i do'xtirmi shunday atashardi) bilan birlgilikda bermori ko'radir, maslahatlashadilar.

– Sen e'tiroz bildirma, iltimos. Buni o'zim uchun qilayman, – dedi ayol hamma narsani eri uchun qilayotgani va shu bois ham Ivan Ilich uning xohishiga qarshibormasligini istehzoli ohangda ta'kidlab. Bemor suket saqladi, peshonasi tirishdi. Shu bilan atrofini munofiqlik butunlay o'rabi olganini, bunday muhiida biror marsani tushunishda chalkashib ketish mumkinligini his etdi.

Xotini unga nima ravvo ko'rayotgan bo'lsa, barini o'zi uchun qilar va Ivan Ilichga o'zi uchun qilayotganini aqsga sig'maydigan holdek ta'kidlab, gapining teskarisini tushunishga undardi.

Haqiqatan, soat o'n ikti yarimda taniqli do'xtir keldi. Yana shu joyda va boshqa xonada eshitishlar, buyrak hamda ko'richak haqida batatsil suhabtlar boshlanib ketdi va hayot-mamot masalasi bir yoqda qolib, savol-javoblar da buyrak va ko'richak masalasi atroficha muhokama qilindi, bu a'zolar bilan arzimagan o'zgarish bo'lib o'tgan, mana endi Mixail Danilovich va taniqli zot ishga kirishtashdilar va hammasi joyiga tushadi.

Taniqli do'xtir jiddiy, lekin umid uyg'otadigan qiyofada xayrashdi. Ivan Ilichning ko'zida qo'rquv uchquni va ilinj shu'lasi porlab, tuzalishga qanchalik kafolat borligi haqida bergen ilmoqli savoliga u kafolat yo'g'-u, imkoniyat bor, deb javob qaytardi. Do'xtirmi kuzatayotgan Ivan Ilichning nigohi shunchalalar g'amgin ediki, buni ko'rib, taniqli do'xtirming xizmat haqini berish uchun kabinetdan chiqib ketayotgan Praskovya Fyodorovna yig'lab yubordi. Umidbaxsh so'zlar bilan do'xtir bag'ishlagan kayfiyat uzoq cho'zilmadi. Yana o'sha xona, o'sha suratlari, pardalar, gulqog'ozlar, shisha idishchalar va o'zining og'riyotgan, jafo chekayotgan vujudi. Ivan Ilich ihmroy boshлади; uning tomiriga dori yubordilar va u sarhushlikda barini esidan chiqardi.

U ko'zini ochganda qorong'i tusha boshlagan edi; bemorga taom olib kelishdi. U sho'rvari zo 'riqib ichdi; yana o'sha hol, yana tun kirib keldi.

Ovqatdan keyin soat yettilarda uning xonasiga bazmaga boradigandek kiyangan, do'ppaygan, tarang tortilgan ko'kraklar, yuzida atir-upa izi bilan Praskovya Fyodorovna kirdi. U ertalab teatrga borishayotganini eslatgandi. Sara Bernar<sup>1</sup> tashrif buyurgan va ularning lojaga chiptalari bor edi, chipta olishni Ivan Ilichning o'zi majburlagandi. Ivan

<sup>1</sup> Sara Bernar (1844–1923) – fransuz aktrisasi.

Ilich buni esidan chiqargandi, xotinining hashami uning g'ashini keltirdi. G'azabi qo'ziganini yashirdi-yu, o'zi lojadan joy olib, teatrga borishni, bu bollalar uchun tarbiyaviy estetik zavqlanish bo'lishimi qattiq tayinlaganini esladi.

Praskovya Fyodorovna o'zidan ko'ngli to'q qiyofada, lekin aybdordek biroz qimtinib o'tirdi, go'yo so'rashga majburdek, hech yangilik bo'limganini bilsa-da, erining sog'lig'ini surishitrdi va o'ziga kerak gapni aytta boshhladi: uning borishga xohishi yo'qroq, biroq loja allaqachon olingan va Elen, qiz va Petrishev (sud tergovchisi, qizning qallig'i) boradi, ularmi yolg'iz jo'natish noqlay. Aslida unga eriga qarab o'tirish yoqadi. Faqat usiz do'xtiming tavyiyalarini bajarsa bo'lgani.

— Ha, Fyodor Petrovich (kuyov) kirmoqchi edi. Mum-kimmi? Liza ham.

— Mayli, kirishsin.

Yasangan, yarimyalang'och, yosh vujudini ko'z-ko'z qilib qizi kirdi. Otasiga esa aynan vujudi azob beradi. Sol-lanib qadam bossadigan, sog'lom, tabiiyki, sevgidan mast, baxtiga soya tashlovchi kasallik, og'riq yoki o'limdan g'azablanadigan noziknhol.

Frak kiyib olgan, yo'g'on, baquvvat bo'yni mahkam qisilgan oq yoqada, ko'kragi keng, kuchli sonlari uzun qora shimda lortsillagan, bir qo'li tarang tortilgan qo'l-qopda, tavoze-la Fyodor Petrovich ham kirdi.

Ularning izidan yangi mundiricha kiygan, qo'lqopda, ko'zining osti ko'kargan, buning ma'nosini Ivan Ilich tushunardi, bechoragini gimbaziyachi ham sezdirmaygina bosh suqdi.

Ivan Ilichning o'g'liga hamisha rahmi kelardi. Uning olazarak, og'riqli nigohi doim vahimali edi. Ivan Il-ichning bilishicha, Gerasimdan tashqari faqat Vasya uni tushunar va qadriga yetardi.

Hamma o'tirdi, yana bemorning salomatligini surishitrdilar. Sukumat cho'kdi. Liza onasidan durbinni so'-radi. Ona va qiz o'rtasida uni kim qayerga qo'yganiz yuzasidan mojaro chiqdi. Juda yoqimsiz holat.

Fyodor Petrovich Ivan Ilichdan Sara Bernarni ko'r-gan-ko'maganini so'radi. Ivan Ilich boshida o'zidan niman so'raganlarini tushunmadi, keyin esa dedi:

— Yo'q; siz allaqachon ko'rdingizmi?

— Ha, „Adriyenna Lekuvryor“da!

Praskovya Fyodorovna aktrisaning bir fazilatini maqtadi. Qizi e'tiroz bildirdi. Uning o'yinlari qanchalik nafosatli va hayotiy ekanligi haqidagi doim bir xilda takrorlanadigan suhbat boshlanib ketidi.

Suhbat asnosida Fyodor Petrovich Ivan Ilichga nazar soldi-da, jum bo'lib qoldi. Boshqalar ham qaradilar va jumib qoldilar. Ivan Ilich yaltiragan ko'zlar bilan qarshisiga tikilar, shubhasiz, ulardan g'azablanardi. Bu holatni izga solish lozim edi, biroq buni tuzatib bo'lmasdi. O'rtaga cho'kkani og'ir sukulatni buzish lozim edi. Hech kim bunga jur'at etolmasdi, bordaniga yolg'on fosh bo'lib qoladigandek, bari oshkor bo'ladigandek hamma vahmagi tushdi. Birinch bo'lib Liza jur'at qildi. U sukulatni buzdi. Qiz hammaning ko'nglidagi gapni yashirmoqchi bo'ldi-yu, ammo sezdirib qo'ydi.

— Aytgancha, ketar vaqt ham bo'ldi, — dedi u bir vaqtlar otasi sovg'a qilgan soatiga qarab va ularning ikkisigagina ma'lum bo'lgan bir narsa haqida yigitgasendiribroq boqib kului-da, ko'ylagini shitirlatgancha o'midan turdi.

Hamma o'midan qo'zg'aldi va xayrashib chiqib ketishdi.

<sup>1</sup>Adriyenna Lekuvryor – fransuz aktrisasi Adriyenna Lekuvryor (1692–1730) faoliyatiga bag'ishlangan pyesa.

Ular turib ketgach, Ivan Ilichga kayfiyati yaxshidek tuyldi: munofiqlik yo'qoldi, u o'shalar bilan ketdi, ammo og'riq qoldi. Yana o'sha na og'ir, na yengil og'riq va o'sha qo'rquv. Hammasi birdek yоqimсиз.

Yana daqqaq izidan daqqaq, soat ketidan soat o'ta boshladi, hammasi o'sha-o'sha, oxiri yo'q, bari muqarrar dahshatli yakun sari boryapti.

– Ha, Gerasimni yuboringlar, – deb javob berdi Ivan Ilich Pyotrnin savoliga.

## 9

Xotini tun yarmidan oqqanda qaytdi. U oyoq uchida yurib kirdi, biroq buni Ivan Ilich eshitdi: ko'zini ochdi va yana shoshib yuminib oldi. Ayol Gerasimni jo'natib yuborib, eri bilan o'zi o'tirmoqchi bo'ldi. Er ko'zini ochdi va:

– Yo'q, ket. – dedi.

– Juda qiyalyapsammi?

– Nima farqi bor.

– Afyun ichsang-chi?

U rozi bo'ldi va ichdi. Ayol ketdi.

Soat uchlargacha yarim behush holatda azob tortdi. Uni allaqanday tor qora xaltaga majburlab tiqishayotgандек түньялар, lekin sira tiqa olishmasdi. Bu yoqimsiz harakat uni zor qaqshatib ro'y berayotgandi. Bundan o'zi goh qo'rqr, goh ichkariga kirmoqchi, og'riqni to'xtatishga yordam-lashmoqchi bo'lardi. Birdan ag'darilib, qulab tushgандек bo'ldi va ko'zini ochdi. Har doimgidek oyoq uchida tinch va osuda mudrab Gerasim o'tiribdi. U esa ozib ketgan, paypoq kiydirilgan oyog'ini uning yelkasiga qo'yib yotib-

– Boraver, Gerasim, – pichirladi u.

– Qо'yavering, o'tiribman-da.

– Yo'q, boraver.

U oyog'ini tushirib yonboshlab yotdi-yu o'ziga rahmi kelib ketdi. Gerasim qo'shni xonaga chiqishini sabr bilan kutdi va ortiq chiday olmay, yosh boladek ho'ngrab yubordi. U o'zinинг chorasisligi, bedavo dardga chalingani yolg'izligi, odamlarning shafqatsizligi, Xudoning rahmi kelmayotgani, shafqat qilmayotganidan o'ksib yig'ladi. „Nechun meni bu ko'yga solding? Nega meni bu joyga olib kelding? Nima uchun, nima uchun meni buncha qiynaysan?..“

U javob kutmay, javob yo'qligi, javob bo'lishi mumkin emasligi uchun yig'lashda davom etdi. Og'riq yana xuruj qildi, biroq u qimirlamadi, hech kimni chaqirmadi. O'zicha derdi: „Mayli, yana uraver! Ammo nima uchun? Men senga nima qildim, nega?“ Keyin u jimbil qoldi, yig'lashni ham, nafas olishni ham to'xtatdi va butun diqqat-e'tiborini bir muqtaga jamladi: go'yo shovqinli ovozlarga emas, qalb ovoziga, botinida qo'zg'algan fikrlarga qulqoqchi bo'ldi.

– Senga nima kerak? – dastlabki eshitgan savolini so'zlar bilan shunday ifodalasa bo'lardi. – Senga nima kerak? Sen niman xolaysan? – o'zicha takrorlardi u. – Niman? – Qiynalmaslikni. Yashashni, – javob berdi yana o'zi.

U bor vujudi bilan diqqatini qayta jamladi, hatto og'riq sezilmay qoldi.

– Yashashni? Qanday yashashni? – so'radi ichkaridan qalb ovozi.

– Ha, yashashni, oldin qanday bo'lsa shunday: yaxshi, ko'ngilli yashashni.

– Sen oldin yaxshi va ko'ngilli yashaganmisani? – so'radi ovoz. U hayotining eng go'zal lahzalarini eslashga tirishti. Ammo – g'atlati manzara – ko'ngilli hayotining u

go'zal lahzalar endi oldingidek ohanraboli emasdi. Bolalikning ilk taassurotlarigina bundan mustasno. O'sha manzilda, bolalikda haqiqatan agar qayta yashash nasib etsa, orzu qiladigan yoqimli narsalar bor edi. Biroq u kunlarni kechirgan odam endi yo'q: ular boshqa birov haqidagi xotiralardek bo'lib qoldi.

Bugungi kunlarga yetaklagan o'tmish voqealari haqida ich uchun quvonch bo'lib tuyulgan tuyg'ular ko'zida erib, ajabtovr, allaqanday yaramas tusga kirib bordi. Bolalikdan uzoqlashib, shu kunlariiga yaqinlashgan sari shodliklar arzimas va shubhali tuyula boshladi. Bu huquqshunoslikdagi tahsildan boshlandi. Har holda u joyda chinakam hayot bor edi: xursandchilik, do'stlik, umid bor edi. Lekin yuqori sinflarga o'rlay boshlagach, bunday yoqimli lahzalar kamayib bordi. Keyin gubernator huzuridagi dastlabki xizmat asnosida ham yoqimli lahzalar bo'lgandi: bu xotiniga bo'lgan muhabbatining xotiralari edi. Keyin hammasi chalkashib ketdi, ko'ngilli onlar kamayib, yaxshi damlar borgan sari ozayaverdi.

Kutilmaganda uylanish... va ko'ngil qolishlar, xotining og'zidagi hid, hissiyotlar, yon berishlar! Bu jon oluvchi xizmat, bu pul topish yo'lida kuyib-pishishlar, shu zaylda bir, ikki, o'n, yigirma yillar o'tdi - bo'lgani shu. Hammasi jonsiz, o'lik. O'zimni go'yo tashvishlarda ostida umrimni o'tkazgan ekanman. Shunday bo'lgan yuqorida yurgandek his etib, aslida g'am-tashvishning ekan. Ko'pchilikning nazidda, mansab-martabada baland bo'gamman, lekin hayot quyidan, pastdan o'tib ketgan ekan. Mana, oqibati, o'limga tayyorlanaver!

Xo'sh, bu nima o'zi? Nega? Bo'lishi mumkin emas. Hayot shunday ma'nisiz, yaramas bo'lishi mumkin emas.

Agar u shu tarzda yaramas va ma'nisiz bo'lsa, nima uchun o'lish, qiynalib o'lish lozim? Nimadir noto'g'ri.  
„Balki, men risoladagidek yashamagandirman?“ – Ivan Illichning miyasiga kutilmaganda shu fikr keldi. „Nega, axir hammasini talab qilinganicha, keragicha bajardim-ku?“ – u o'zicha shunday dedi va shu zonda hayot va o'lim jumbog'ining yagona yechimini ham o'zidan uzoqqlashtirdi.

„Endi niman xo'llaysan? Yashashimi? Qanday yashashni? Yashash, xuddi sudda yashagandek, sud amal-dori e'lon qilladi: „Sud kelyapti!“ Sud kelyapti, sud kel-yapti, – takrorladi u ichida. – Mana u, sud. Axir, men aybdor emasman-ku! – g'azab bilan qichqirdi u. – Nima uchun?“ U yig'lashdan to'xtadi va yuzini devor tomon o'g'irib, faqat bir narsa haqida o'ylay boshladi: buncha qiymoqlarga sabab nima?

Lekin qancha o'yamasin, savoliga javob topolmadidi. Endi xayoliga tez-tez shu fikr kelardi: nima ro'y berayotgan bo'lsa, hammasi noto'g'ri yashaganidan; ammo Ivan Illich darhol hayotining mutlaqo to'g'riligini esga olib, yо-qimsiz o'yни nari haydardi.

## 10

Yana ikki hafta o'tdi. Ivan Ilich endi divandan qo'z-g'almasdi. U to'shakda yotishni xohlamay divanga o'r-nashib oldi. Mudom yuzini devorga o'girib yotgancha nuqlu bitta yechimi yo'q azobdan qiyynalar, bitta javobi yo'q savol ustida bor vujudi bilan bosh qotirardi. O'lim nima? Nahotki rost bo'lsa bu o'lim degani? Ichki ovoz javob berardi: ha, rost. Bu qynoqlarga sabab nima? O'sha ovoz javob berardi: shunchaki, sababi yo'q. Shundan boshqa hech nima ro'y bermasdi.

Dardga yo'liqib, ilk marta do'xtirga uchraganidan beri Ivan Ilich tez-tez o'rin almashib turuvchi ikki qarama-qarshi kayfiyat ta'sirida yashardi: bir tomondan, tushunarsiz va qo'rinchli o'limning vahimasi va kutilishi, bu yoqida o'z vujudi faoliyatini kuzatishdan umidbaxsh qiziqish. Ko'z oldida ba'zan o'z vazifasini bajarmayotgan birlina buyrak va ko'richak, ba'zan esa hech qachon qutulib bo'lmaydigan tushunarsiz o'lum sharpasি turardi.

Bu ikki kayfiyat kasallikning boshlanishida bir-biri bilan almashib turardi; dard uzoq davom etgach esa buyrakning tuzalishi haqidagi umid shubhali va xayoliy tuyula boshhladi va kutilayotgan o'lum tahdidi kuchaydi. Ivan Ilich o'zicha bundan uch oy oldingi holatini eslashga va uni hozirgi vaziyat bilan chog'ishtirishga urinib ko'rdi; barcha umidlar chilparchin bo'lishi uchun tog'ning tagiga engandek halokat sari bir tekis ketgan ekan.

Keyingi paytlarda bu yolg'izlikda, divan suyanchig'iga yuzini bosib yotib o'zi his etgan yolg'izlikda, ko'plab tanishlari, bor tumonat shahardagi yolg'izlikda, na dengiz tubida, na yer yuzida tengi yo'q mutlaq yolg'izlikda – keyingi paytlardagi ana shunday tanholikda Ivan Ilich faqat o'tmish xotiralarini tiklab yashay boshhladi. Uning kechmishi manzaralari navbat bilan namoyon bo'laverdi. Yaqin lahzalarning taassurotlari tobora uzqoqlashib borar va oxiri bolalikda to'xtardi. Ivan Ilich o'ziga olxo'ri mu-rabbosidan yejishmi taklif qilganlari haqida o'ylasa, bolalikdag'i burushgan, xom fransuz olxo'risining o'ziga xos ta'mi, og'zi to'la so'lak bilan uni danagichcha kemirayotganlari esiga tushib ketar, shu xotiralar qatorida boshqalari ham uyg'onardi: enaga, aka, o'yinchchoqlar... „Bular haqida o'ylash shart emas, juda og'riqli“, – derdi Ivan Ilich o'ziga va bugungi kunlarga qaytardi. Divan suyanchig'ida gi tugma va saxtiyon teridagi izlar. „Teri qimmat, lekin

sifatsiz; shundan ham janjal chiqqandi. Biz otamizning sumkasini yirtib qo'yganimizda boshqa teri edi, janjal ham boshqacha, keyin jazolashgandi, onam esa bizlarga bo'g'irsoq beruvdi“. Yana xayol bolalikka ko'char va yana Ivan Ilichga yoqimsiz tuyulib, bularni nari haydab boshqa narsalar haqida o'ylashga urinardi.

Yana o'sha hol, bu xotiralarni eslash jarayonida boshqa xotiralar ham xayolni egallardi: kasalligi qanday zo'raydi va qanday og'irlashib bordi? O'tmish haqida o'ylar qancha uzoqqa ketsa, hayot ta'mi shuncha kuchaydi. Burungi hayolda ezgulik ko'p edi, hayotning o'zi ham, uning qadri ham baland edi. Keyin hamma o'ylari qorishib ketardi. „Qiynoq qancha zo'raysa, hayot ham shuncha yomon o'tadi“, – o'ylardi u. Ortda, hayotning boshlanishida faqat bitta yorug' nuqta, keyin esa hammasi qop-qora, hammasi shuvullab o'tadi. „O'limgacha bo'lган oraliqqa teskari mutanosiblikda“, – o'yladi Ivan Ilich. Tobora shitob bilan pastga qulayotgan tosh ko'z oldiga keldi-yu, qalbi o'rtandi. Azobi ortib borayotgan hayot inthoga, dahshatli qabohat sari yeldek uchib bordi. „Men uchhayapman...“

U titradi, qimirlatdi, qarshilik qilmoqchi bo'ldi; biroq qarshi turish mumkin emasligini anglab yetdi va yana ro'parasida turgan, qaramanas bo'lmaydig'an borliqa tilishlardan charchab, ko'z qirini divanning suyanchig'iga qadadi va kuta boshhladi, o'sha qo'rqinchli qulash, silkinish va vayron bo'lismi kuta boshhladi. „Qarshi turish mumkin emas, – dedi o'zicha. – Hech bo'lmasa, nima uchun mumkin emasligini tushunish kerak. Bu ham mumkin emas. Agar men risoladagiday yashamaganimni tanolsam, tushunsa bo'ladi-ku. Lekin buni endi tan olishning sira iloji yo'q“, – dedi o'zicha hayotining butun qoniyligi, to'g'riligi, ma'qulligini xotirlab. „Bunga yo'

qo'yib bo'lmaydi, – dedi u birov ko'rib, aldanib qoldaq  
gandek lablarini qimtib iljaygancha. – Izoh yo'q! Qiynoq,  
o'lim... Nima uchun?"

## 11

Shu alpozda yana ikki hafta o'idi. Bu vaqt ichida Ivan Ilich va xotini ko'pdan kutgan voqeа sodir bo'idi: Petrishev urf-odat bo'yicha niyatini bildirdi. Bu kechki payt ro'y berdi. Ertasi kuni Praskovya Fyodorovna Fyodor Petrovichning taklifini eriga qanday ma'lum qilishni obdan o'ylagancha uning huzuriga kirdi, biroq shu kecha Ivan Illichning ahvoli ruhiyatni juda yomonlashdi. Praskovya Fyodorovna uni o'sha rivanda, faqat boshqa holatda uchratdi. U chalqancha yotar, inqillar va qotib qolgan nigoхini to'g'riga qadab turardi. Ayol dorilardan gap boshtaganda bemor nigoхini unga qaratdi. U gapini tugatishga ulgurmadi: bu nigoхda tunganmas g'azab aks etib turardi.

– Iso haqqi, tinchgina jon taslim qilishimga izn ber, – dedi u.

Ayol chiqib ketmoqchi edi, shu zum qizi kirdi-da, hol-ahvol so'rashga tutindi. Ivan Ilich qiziga ham xotimiga boqqan nigoх bilan tikildi, sog 'lig'i haqidagi savolga quruqqina javob berib, yaqinda hammalarining undan qutulishini bildirdi. Ikkalasi ham jumib qolishdi, biroz o'tirgan bo'lib, so'ng zumba chiqib ketishdi.

– Bizning aybimiz nima? – dedi Liza onasiga. – Xud-di biz uni kasal qilgandek. To'g'ri, unga rahmim keladi, lekin nega bizni qiyndi?

Odatdagи vaqida do'xtir keldi. Ivan Ilich qahrli nigoхini undan uzmay, qisqa-qisqa „ha, yo'q“ deb javob qaytardi va oxirida dedi:

– Hech qanday yordam berolmasligingizni bilasiz-ku, shunday ekan meni tinch qo'yинг.

– Og'riqi yengillashtirishimiz mumkin.  
– Buni ham epolmaysiz; tinch qo'yинг dedim-ku sizga.  
Do'xtir mehmonxonaga chiqli va Praskovya Fyodorovnaga ma'lum qildiki, ahvol juda tang, faqat bitta yo'lli bor – asyun, u qo'zg'alayotgan mislisiz og'riqi bosadi.

Do'xtir uning jismidagi og'riq kuchli, deb to'g'ri aytdi. Biroq badanining zirqirashidan ham ko'ra ko'proq unga qalb tug'yoni azob berardi. Ivan Illichning ma'naviy azoblanishi shundan iborat ediki, kecha mudrab o'tirgan Gerasimning beg'ubor, lo'mbillagan yuziga tikilib turib, miyasiga bir fikr keldi: rostdan ham butun hayotim, ongli hayotim „haligiday“ o'tgan bo'lsa-ya?  
Uning miyasiga avvallari mutlaqo imkonsizdek tuyulgan shubba oraladi: u yashab o'tgan hayot o'zi risoladagiday deb o'ylagan darajadan boshqacha kechgan ko'ri-nadi. Miyasiga shunday savol keldi: o'zidan yuqori turgan odamlar tomonidan ma'qul hisoblangan mayjud holatlarga qarshi kurash borasidagi biroz ko'zga tashlangan niyatları, darhol xayolidan haydag'an o'sha niyatlargina chin, boshqa hammasi ro'yo bo'lgan esa-chi? Uning xizmati, hayot tarzi, oilasi, jamoasi va manfaatlari – bari soxta bo'lishi mumkin edi. U o'zining o'tmishini himoya qilishga urin-di-yu, birdaniga o'zi muhofaza qilayotgan borliq qarshisida ojizligini sezdi. Himoya qilinadigan hech narsa yo'q edi.  
„Agar shunday bo'lsa, – dedi u o'zicha, – men o'zimga berilgan barcha narsani vaytron qildim va ular endi qayta tiklanmaydi, degan tushuncha bilan dunyonitark etayotgan bo'lsam, bu yog'i qandoq kechadi?“ Ivan Ilich chalqancha yotib oldi va butun hayotini yangidan taftish qila boshladi. U ertalab malayni, keyin xotinini, so'ng qizini, oxirida do'xtimi ko'rganda, ularning har bir harakati, har bir so'zi tunda ayon bo'lgan mash'um haqiqatni tasdiqladi. Ular-ning qiyofasida Ivan Ilich o'zini, yashash tarzini ilg'adi

va bularning hammasi hayot va o'llimni berkiuib turuvchi dahshatlari, ulkan yolg'on ekanini aniq ko'rdi. Bu tuyg'u kuchayib, uning jismoni qynoqlarini o'n baravar oshirdi. U xirillab, kiyimlarini yirib irg'ita boshladi. Unga nafasi qisilib borayotgandek, kiyimlari bo'g'ayotgandek tuyldi. Unga ko'p miqdorda afyun berdilar, u gum-gurs o'chdi; biroq choshgohga borib yana shu qaytalandi. Ivan Ilich hammani atrofidan quvib soldi va u joydan bu joyga irg'iy boshladi.

Xotini kirib yalindi:

– Jon, azizim, men uchun shunga rozi bo'l (men uchun?). Bu zarar qilmaydi, foydasi ko'proq tegadi. Nima qilibdi, hech narsa emas. Sog'lom odamlar ham tez-tez...

Ivan Ilich ko'zlarini katta ochdi.

– Nima? Tavba-tazartu keltirish? Nima uchun? Kerak emas. Ha, mayli....

Ayol yig'lab yubordi.

– Ha, aziz do'stigmam. Men o'zimiznikini chaqirtiram, u juda beozor.

– Ajoyib, juda soz, – g'udranti Ivan Ilich.

Ruhoniy kelib, uning uchun ilohiy kalomlardan o'qigach, u yumishadi, o'zining shubhalaridan qutulib, yengil tortgandek bo'ldi va bu tajanglikdan so'ng unda oniy umid uyg'ondi. U qaytadan ko'richak va uni davolash haqida o'ylab ketdi va ko'zida yosh bilan tazarru qildi.

Ibodatdan keyin uni yotqizib qo'yganlarida, bir daqqaq yengil tortdi va yana diliда yashashga umid uyg'ondi. U taklif qilingan jarrohlik amaliyoti yuzasidan fikr yuritdi. „Yashashni, yashashni xohlayman“, – o'zicha gapirdi. Hol so'ragani xotini kirdi; odatdag'i gaplarni aytdi va oxirida qo'shimcha qildi:

– Ahvoling ancha tuzuk-a, shunday emasmi?  
U xotiniga qijo boqmay „ha“ deb qo'ya qoldi.

Ayohning kiyimi, turishi, yuz ifodasi, ovozi – bari unga bir narsani anglatardi: „Hammasi yolg'on. Sen yashagan va yashayotgan hayot ko'zbo'yamachilik, munofiqlik, o'zingdan hayot va o'llimi pana qilishdan iborat“. U shuni o'ylar ekan, xotiniga nafrati qo'zidi va nafrat bilan birga jon oluvchi jismoni og'riq hamda ruhiyatida chorasisizlik, yaqinlashib kelayotgan intiho xayoli gavdalandi. Yangidan nimadir ro'y bendi: burab, chatnab og'rish, nafas siqishi...

U „ha“ deganda yuzi qo'rqinchli burishib ketdi. „Ha“ deya turib, xotinining affiga tik qaradi-yu, o'z zaflfiga yarashmagan chaqqon harakat bilan yuztuban ag'anab baqirib yubordi:

– Ketinglar, ketinglar, meni tinch qo'yinglar!

## 12

Shu daqiqadan boshlab uch kun davom etgan, vahimali, ikki eshik ortidan ham vahimasi teshib yuboradigan chinqiriq boshlardi. Xotiniga javob qaytargan o'sha daqiqada u mahv bo'lganini tushungan edi, endi qaytish yo'q, qazo yaqin, hammasi tugagan, hammasining yolg'omligi haqidagi shubha esa shubhaligicha qolgan.

– V-u-u-uy! – qichqirardi Ivan Ilich turli ohanglar-da. Keyin yana qichqira boshlardi: „Istanmayman! V-u-uy!“ – va shu tarzda uytab qichqiraverardi. Uning uchun vaqt o'lchovi tugagan shu uch kunda jonini oxirigacha so'rib olgan ko'zga ko'rinnmas qora xal-ta ichida tipirchiladi. U xuddi jallodning qo'lidan yulqinib chiqmoqchi bo'lgan mahkumdek chiranardi; har daqiqada jon-jahdi bilan kurashmasin, uni dahshatga solgan o'sha mash'um palla yaqinlashayotganini sezib turardi. U butun azob qora xaltaga tobora so'rilib borishda ekanini his qilar, ammo bundan qutulish chorasi yo'q edi. Qutulishga hayoti yaxshi o'tgani haqidagi iqrori xalaqt berardi. O'z

hayotini oqlashi uni zanjir kabi chirmab olgandi va olg'a yurishga qo'ymasdi.

Birdaniga qandaydir kuch uning ko'krigiga, biqiniga urilgandek bo'ldi, nafasi battar qisildi, u allaqanday o'ra tubiqa qulab tushdi va o'sha yoqdan allaqanday shu'lа ko'rindi. U bilan temiryo'l vagonidagi bir holat ro'y berayotgandi, oldinga ketayapman, deb o'ylaysan-u, aslida orqaga ketayotgan bo'lasan va birdaniga asl yo'nalishni bilib qolasan.

– Ha, bari noto g'ri bo'ldi, – dedi o'zicha, – hechqisi yo'q. Aslida „to g'ri“ qanaqa bo'larkan? – o'zidan so'radi va birdaniga jumib qoldi.

Bu uchinchli kunning oxirida, Joni uzilishidan bir soat oldingi holat edi. Aynan shu pallada gimnaziyachi astasina otasining huzuriga pisib kirgan va unga yaqin bor-gandi. Jon beruvchi timmay baqirar va qo'llini silkirdi. Qo'l gimnaziyachining boshiga tegib ketdi. Gimnaziyachi qo'llini ushlab oldi, lablarini unga bosdi va yig'lab yubordi. Ayni shu paytda Ivan Ilich o'raga qulab, shu'lagi ko'zi tushgan va hayoti noto g'ri kechganini, ammo uni hali ham to'g'rilash mumkinligini o'ylagandi. U o'zidan: „To g'ri hayot qanaqa?“ deb so'radi va bukchaygancha jumib qoldi. Shunda u qo'llini kimdir o'payotganini sezdi. Ko'zini ochib, o'g'liga razm soldi. Bolaga rahmi keldi. Xotini unga yaqinlashdi. U ayolga tikildi. Ayol angrayib, burni va bo yiniga oqqan ko'zyoshlarini artmay, alamizada nazar bilan unga qarab turardi. Uning xotiniga rahmi keldi.

„Ha, men ularni qiyinayapman, – o'yladi u. – Ular-ga og'ir, biroq men o'lsam, ularga yaxshi bo'ladi“. U shu so'zlarini aytmoqchi bo'ldi, ammo gapirishga kuchi yetmadи. „Gapirishdan nima foyda, amalga oshirish kerak“, – o'yladi u. Keyin nigohi bilan xotiniga o'g'lini ko'rsatdi va dedi: Qara... afsus... sen ham... – U „kechir“ demoqchi edi, „kech“ deya oldi xolos, xatoni to g'rilashga majoli yet-

madi, kimga kerak bo'lsa, o'zi to g'rilab oladi, degandek qo'l siltadi.

Shu payt Ivan Ilichni qiy nab, ichidan chiqolmayot-gan azob ikki tomonidan, o'ng tomonidan va hamma tomonidan otilib chiqsa boshladi. Ularga shafqat qili shozim, shunday qilish kerakki, ular azob chekishmasin. Bu qynoqlardan o'zini va ularni xalos etish lozim. „Qanday yaxshi va qanchalik oddiy, – o'yladi u. – Og'riq-chi? – so'radi o'zidan. – U qayerga ketdi, qayerdasan, hoy, og'riq?“

U quoq tuta boshladi.

„Ha, mana u. Nima bo'pti, mayli, og'riyversin.“ „O'lim-chi? U qayerda?“

U o'zining qadrdon bo'lib qolgan o'lim qo'rquvini izladi va uni topa olmadи. U qayerda? Qanaqa o'lim? Hech qanday qo'rquv yo'q edi, negaki o'limming o'zi yo'q edi. O'lim o'mida shu'la bor edi.

– Shunaqa bo'larkan-da! – kutilmaganda ovoz chi-qarib gapirdi u. – Qanday yaxshi!

Uning uchun hammasi bir daqiqada ro'y berdi va bu daqiqaning mohiyati o'zgarmay qoldi. Tepasida turganlar ko'zi oldida esa uning o'lim talvasasi yana ikki soat davom etdi. Ivan Ilichning ko'ksida nimadir g'arilladi; sharti ketib, parti qolgan gavdasi qaltiladi. Keyin g'arilash va xirqirash kamayib bordi.

– Tamom! – dedi kimdir boshi ustida.

Bu so'zni u eshitdi va qalbida takrorladi: „O'lim tamom bo'ldi, u endi yo'q“.

U ichiga havo yutdi, yutganini nafasining yarmida to'xtatdi, uzandi va omonatini topshirdi.

*Rus tilidän  
Hakim Sattoriy tarjimasi.*

## HIKOYALAR

### UCH O'LIM

#### I

Kuz payti edi. Katta yo'lda ikkita yengil arava shiddat bilan yelib borardi. Oldindagi karetada ikki ayol o'tirardi. Ullarning bini oriq va rangsiz beka, ikkinchisi siliq, qip-qizil yuzli, semiz oqsoch ayol edi. Oqsoch xotinning kalta, quruiq sochhlari tussiz shlapasi ostidan chiqib turar, u sochlarini dam o'tmay yirtiq qo'lqop kiygan lo'ppi qo'llari bilan to'g'rilib qo'yardi. Shol ro'mol ostidagi baland ko'kraklari tirsillab turar, o'ynoqi qora ko'zlarini goh derazadan lip-lip o'tib turgan dalani kuzatar, goho bekasiga hadiksirovchi nazar tashlar, gohida besaran-jomlik bilan kareta burchaklariга boqardi. Oqsoch ayolga ro'baro' turgan – bekasining setkaga tashlab qo'yilgan shlapasi tebranib turar, tizzasida esa kuchukbola yotardi. Oyoq ostida quticha borligi sababli biroz yuqori ko'tarilgan oyog'i ressoming silkinishi hamda oynaning shaqirlashiga jo'r bo'lib, qutichaga qulqoqqa chalinar-chalinmas dukullab urilib borardi.

Beka qo'llarini qovushitirib, ko'zlarini yumgancha orqasiga qo'yilgan yostiqchaga suyanib ohista tebranib borar, yuzini sal burnushtirib, kalta-kalta yo'talardi. U boshiga chepchik<sup>1</sup> tang'ib olgan, nozik, oppoq bo'yniga esa

havorang durracha o'ragan. Chepchik ostiga yo'nalgan to'g'ri farq soch moyi surtilganidan g'oyatda silliqlashgan malla sochini ikkiga bo'lgan, keng farq oralig' idagi terining oqligida murdanikiga o'xshash allaqanday quruqlik bor. So'lgin, xiyyla sarg'ish teri chehradagi noziklik va chirroyni salqitib, yuz va yomoqqa qizillik baxsh etgan.

Qoyjiragan lablari dam-badam qimtilar, siyrak kip-riklari to'g'ri o'sgan, safarda kiyiladigan movut kapoti<sup>1</sup> botiq ko'kragi atrofida qator-qator burmalar hosil qilgan. Ko'zi yumuq bo'lishiga qaramay, bekaming yuzida horg'inlik, asabiylik va odat tusiga kirib qolgan iztirob namoyon edi.

Xizmatkor o'rindiqa tirsagiga tayanib, mudrab borar, yamshik ahyon-ahyonda orqasidagi qichqirib kelayotgan kolaska yashigiga qarab, baqirib-chaqirib, terlab-pishib ketgan to'rtta otni haydab borardi. Oralig'i keng yon-ma-yon g'ildirak esa ohaksimon loy yo'l bo'ylab bir te-kisda iz qoldirib ketardi. Havo bulutli va sovuq, paykal va yo'llarni nam tuman qoplamoqda. Kareta ichi dim, di-mog'ga chang va atir hidi urildi. Bemor boshini orqaga tashlab, ohista ko'zini ochdi. Katta-katta shahlo ko'zlarini porlab turardi.

– Tag'in-a, – deb u ijirg'anib labini burdi, asabiy bir tusda nozik, chirolyi qo'li bilan oyog'iga salgina tegib turgan oqsoch ayol salopasining<sup>2</sup> etagini surib qo'yди. Matryosha ikki qo'li bilan salopasini yig'ishtirib darrrov kuchli oyqolarini bosib azot turdi-da, bekasidan o'zini tortibroq yana o'tirdi. Uning gul-gul ochilib turgan chehrasi qip-qizarib ketdi. Bemor ayolning shahlo ko'zlarini oqsoching xatti-harakatini suqlanib kuzatardi.

<sup>1</sup> Kapot – ayollarning uy ichi yoki safarda kiyadigan yaktak bichim ko'ylagi.

<sup>2</sup> Salopa – o'sha vaqlarda noda bo'lgan keng palto.

Beka ikki qo'llimi o'rindiqqa tiradi-da, ko'tarilib yuqoriroq o'tirib olmoqchi bo'ldi-yu, ammo kuchi yetmadi. Labi qiyshayib ojizligidan xo'rligi kelib, basharasи achiq alamdan burishib ketdi.

– Yordam ham beray demaydi!.. Hahl! Keragi yo'q! O'zimming ham quvvatim yetadi, Xudo xayringni ber-sin, faqat narsalarining ustimga yuqlamasang bo'lganil... Qo'lingdan kelmaganidan keyin tinch qo'yaning ham ma'qul! – Beka ko'zini yundi-yu, tezda qaytadan kipriklari ko'tarilib, oqsochiga nazar tashladi. Matryosha unga qargancha pastiki kelishgan labini tishlardi. Bemor ko'kragini to'ldirib xo'rsindi, lekin bu xo'rsinish oxirlamasdanoq yo'talga aylandi. U aftini burushtirib, teskarri o'girildi-da, ikki qo'lli bilan ko'krak qafasini ushladi. Yo'tal bosilgach, ayol yana ko'z yumib, qimir etmay o'tiraverdi. Kareta bilan kolaska qishloqqa kirib keldi. Matryosha lo'ppi qo'llini ro'moli ostidan chiqarib cho'qindi.

– Bu nimasi?

– Bekat, xonim.

– Nega cho'qinyapsan, deb so'rayapman?

– Cherkov, xonim.

Bemor deraza tomonga o'girildi-da, katta-katta ko'zlarini kareta chetlab o'tayotgan qishloq cherkoviga tikib, ohista cho'qina boshladi.

Kareta bilan kolaska bekat oldida baravar to'xtadi. Bemor ayolning eri bilan doktor kolaskadan tushishib, kareta yoniga kelishdi.

– Qalay, tuzukmisiz? – deb so'radi doktor bemorning tomirini ushlab.

– Xo'sh, azizim, charchamadingmi? – deb so'radi eri fransuzchabalab, – tushging bormi?

Matryosha ularning suhbatiga xalaqit bermaslik uchun tugunchasini ushlab olgancha bir burchakda siqilib o'tirardi.

– Bir nav, o'sha-o'sha, – deb javob berdi bemor. – Tush-mayman.

Eri biroz turgach, bekatdag'i uyg'a kirib ketdi. Matryosha karetadan sakrab tushdi-da, oyoq uchida loy kechib, darvoza tomonga yurdi.

– Menga qaramanglar, bemalol nonushta qilib olaver-ringlar, – dedi bemor kulimsirab deraza oldida turgan doktorga.

„Hech qaysisining men bilan ishi yo'q, – deb ko'nglib dan o'tkazdi bemor, doktor uming oldidan sekin-asta odim-lab borib, bekat zinasidan yugurib chiqib ketgach. – Ular ning qayg'usi yo'q, parvoyi falak. Oh! Xudoyim!“

– Xo'sh, Eduard Ivanovich, – dedi ayolning eri doktori qarshi olarkan, xushchaqchaq tabassum bilan qo'llini qo'liga ishqalab, – oziq-ovqat olib kelishlarini buyurdim, siz nima deysiz?

– Mayli, – deb javob berdi doktor.

– Uning ahvoli qalay? – deb xo'rsinib so'radi bemoring eri, past tovushda qoshini kerib.

– Italiya u yozoda tursin, Moskvaga yetib olsa ham Xudoning yorlaqagani demabmidim. Ayniqsa, bunaqangi havoda...

– Bo'limasa nima qildik? Ey Xudo, Xudoyim-ey! – deb bemorning eri ko'zlarini qo'lli bilan yashirdi. Bu yoqqa olib kel, – deb qo'shib qo'ydi u oziq-ovqatli qutichani ko'tarib kelgan kishiga.

– Yo'lga chiqmaslik kerak edi, – dedi doktor yelkasini qisib.

– O'zingiz aytинг-chi, ilojim bormidi? – deb e'tiroz bildirdi ayolning eri, – uni olib qolish uchun qo'llim-dan kelgancha harakat qildim, mablag' masalasini ham, tashlab ketishimiz lozim bo'lgan bolalarni ham aytib ko'rdim, hamma ishlarimni o'rtaga soldim, hech qanday

gapni eshitgisi ham kelmadi. Xuddi soppa-sog<sup>1</sup>, odam-day xorijiy mammakatlarda hayot kechirish rejasini tuzib yuribdi. Ahvolini o'ziga tushuntirish, o'ldirish bilan teng-kul!

– Ha, uning kuni bitgan, buni siz tushunishingiz kerak, Vasilii Dmitrich. Kishi o'pkasiz yashay olmaydi, o'pka qaytadan o'sib chiqmaydi. Odamning yuragi ezi-ladi, og'ir, lekin nachora. Siz bilan bizning vazifamiz, qo'lidan kelgancha uning osoyishitalik bilan jon berishiga imkon tug'dirish. Endi bu yog'iga tavba-tazarru qildiradigan ruhoniy kerak.

– Ey Xudoym-ey! Hayotining so'nggi daqiqalarida yashayog'anini eslatish menga naqadar og'irligini tushunsangiz-chi. Nima bo'lsa bo'lar-u, lekin bu gapni umga men aytolmayman. Uning qanchalik ochiqko'ngil ayol ekanini bilsangiz edi...

– Qanday bo'Imasin, uni qishga qadar qoldirishga harakat qilib ko'ring, – dedi doktor ma'noli bosh chayqab, – aks holda yo'lda bir kor-hol ro'y berishi mumkin.

– Aksyusha, hey Aksyusha! – deb qichqirdi nazoratchining qizi boshiga katsaveyka<sup>1</sup> tashlarkan, hovlidan uygakiraverishdagi pilla moyadadepsinib, – yur, shirkimlik xonimni tomosha qilamiz, o'pka kasali bilan chet elga olib ketishayotgan emish. Sil bo'lganlarni hali hech ko'rmanman.

Aksyusha eshikdan otilib chiqdi. Ikkovlari qo'l ushlasib yugurgancha darvozadan chiqib ketishdi. Ular qadamlarini sekinalashtirib kareta yonidan o'tishar ekan, pardasi ochiq derazaga nazar tashlashdi. Bemor ularga qaradi-yu, qizlarning ermaktalab bo'lib kelganlarini bilgach, qovog'ini solib, teskari o'girildi.

gapni eshitgisi ham kelmadi. Xuddi soppa-sog<sup>1</sup>, odam-day xorijiy mammakatlarda hayot kechirish rejasini tuzib yuribdi. Ahvolini o'ziga tushuntirish, o'ldirish bilan teng-kul!

– Ha, ozib ketganini qara! – deb uning gapini na'quladi Aksyusha, – yur, quduqqa ketayotganday bo'lib yana qaraymiz. Qaragin, o'girilib oldi, men yana ko'rdim. Kishining rahmi keladi-ya, Masha.

– Yerni pilchillab ketganini-chi! – Masha shunday deb javob berdi-yu, ikkovlari yugurgancha darvoza tomonga qarab keidilar.

„Odam ko'rsa qo'rqidigan holatga kelibman-da, – deb o'yladi bemor, – faqat, tezroq, xorijiga o'tib keta qolsam edi, u yerda tez sog'ayib ketardim“.

– Xo'sh, ahvoling qalay, azizim? – dedi eri karetaga yaqinlashshar ekan, nimanidir chaynab turib.

„Yana o'sha-o'sha savol, – degan gapni xayolidan o't-kazdi bemor, – o'zi bo'lsa kavshanib turibdi“.

– Bir nav, – dedi ayol ensasi qotib.

– Bilasanni, azizim, bunday havoda yo'l yurib charhab qolarmikansan, deb qo'rqaman. Eduard Ivanovich ham shunday deyapti. Oraqaga ketsakmikan-a?

Ayol jig 'ibiyron bo'lib, indamay o'tirardi.

– Havo yorishib ketadi, balki, yo'l ham ochilar, o'zing ham biroz sog'ayib qolarding, keyin hammamiz birga borardik.

– Qulluuq. Igariroq o'z bilganimcha ish qilganimda, hozir Berlinda yurardim, allaqachon sog'ayib ham ketgan bo'lardim.

– Nima qil deysan, farishtam, hamma gapdan xabaring bor, hech iloji bo'lmadi-da. Bordi-yu, mana hozir bir oy qolib turgamingda, binoyidek bo'lib qolarding, men ham ishlarimni tugatardim, keyin bolalarni ham birga olib ketardik.

– Bolalar soppa-sog<sup>1</sup>, mening bo'lsa tobim yo'q.

– Voy o'lmassam! – dedi nazoratchining qizi birdan qayrilib qarab. – Qanday chiroyl edi-ya, endi ahvolini qaragin! Odam qo'rqediy. Ko'rdingmi, ko'rdingmi, Aksyusha?

– Ha, ozib ketganini qara! – deb uning gapini na'quladi Aksyusha, – yur, quduqqa ketayotganday bo'lib yana qaraymiz. Qaragin, o'girilib oldi, men yana ko'rdim. Kishining rahmi keladi-ya, Masha.

– Yerni pilchillab ketganini-chi! – Masha shunday deb javob berdi-yu, ikkovlari yugurgancha darvoza tomonga qarab keidilar.

„Odam ko'rsa qo'rqidigan holatga kelibman-da, – deb o'yladi bemor, – faqat, tezroq, xorijiga o'tib keta qolsam edi, u yerda tez sog'ayib ketardim“.

– Xo'sh, ahvoling qalay, azizim? – dedi eri karetaga yaqinlashshar ekan, nimanidir chaynab turib.

„Yana o'sha-o'sha savol, – degan gapni xayolidan o't-kazdi bemor, – o'zi bo'lsa kavshanib turibdi“.

– Bir nav, – dedi ayol ensasi qotib.

– Bilasanni, azizim, bunday havoda yo'l yurib charhab qolarmikansan, deb qo'rqaman. Eduard Ivanovich ham shunday deyapti. Oraqaga ketsakmikan-a?

Ayol jig 'ibiyron bo'lib, indamay o'tirardi.

– Havo yorishib ketadi, balki, yo'l ham ochilar, o'zing ham biroz sog'ayib qolarding, keyin hammamiz birga borardik.

– Qulluuq. Igariroq o'z bilganimcha ish qilganimda, hozir Berlinda yurardim, allaqachon sog'ayib ham ketgan bo'lardim.

– Nima qil deysan, farishtam, hamma gapdan xabaring bor, hech iloji bo'lmadi-da. Bordi-yu, mana hozir bir oy qolib turgamingda, binoyidek bo'lib qolarding, men ham ishlarimni tugatardim, keyin bolalarni ham birga olib ketardik.

– Bolalar soppa-sog<sup>1</sup>, mening bo'lsa tobim yo'q.

<sup>1</sup> Katsaveyka – ayollarning mo'yna tutib tikilgan kamzuli.

– Tushunsang-chi, azizim, bordi-yu, yo'lda sog'liging yomonlashib qolgudek bo'lса, shu havoda yo'lda nima qilib bo'ladi... Loaqlа uyda bo'larding.

– Niňma, uyda nima bo'lardı?.. Uyda o'laymı? – tuaqib javob berdi benor. Biroq ko'rinishdan o'lim so'zi uni vahmaga soldi shekilli, u yolvorish va savol nazari bilan eriga boqdı. Eri indamay boshını quyı soldı. Bemorning labi xuddi bolalarınıkiga o'xshab burishdi-yu, ko'zidan marjon-marjon yosh oqdi. Eri yuzini ro'molcha bilan yashirib, indamay karetadan uzoqlashdı.

– Yo'q, men ketaman, – dedi benor, – u fazogni boqib qo'llarini ko'ksiga qo'ydi-da, pichirlab bir-biriga bog'lanmaydigan so'zlar aytdı. – Xudoym-ey! Gunohim nima? – dedi u yum-yum yig'lab. U uzoq vaqt bajon-u dil Xudoga iltijo qildi, lekin osmon, dalalar va yo'llar qanchalik noxush, nam bo'lса, yuragi ham shunchalik, g'ash, ko'ngli chiroq yoqsa yorishmasdi. Shu zayl kuz qorong'isi ham astasekin yo'ldagi baliqchilarga, tomlarga, karetaga, bir-birlari bilan baland, xushchaqchaq ovozda gaplashib, kareta moylayotgan va ot qo'shayotgan yamshiklar po'stini ustiga bir xilda o'z chodirini yopmoqda edi...

## II

Karetaga ot qo'shilgan, lekin yamshik imirsilab yurardi. U yamshiklar kulbasiga kirdi. Kulba issiq, havosi buzuq, qorong'i, ter, yopilgan non, karam va cho'chqa go'shti hidlari anqib turardi. Xonada bir necha yamshiklar bo'lib, oshpaz, ayol pech oldida g'imirlab yurar, pech usitdagı po'stakda esa bir benor yotardi.

– Xvedor amaki, ho', Xvedor amaki! – dedi bemorga uyga kirib kelgan po'stinli, beliga qamchi qistirib olgan yamshik.

– Hey, chuvrindi, Fedkani nima qilasan? – dedi yamshiklardan biri, – axır, seni karetadagilar kutib turishib-di-ku!

– Etigini so'ramoqchi edim, o'zimniki yirtilib ketdi, – deb javob berdi yigitcha boshını orqaga tashlab sochini to'g'rilar kan, belbog'iga qistirlgan qo'lqopini tuzatib. – Iye, uxlayaptimi? A, Xvedor amaki? – deb takrorladı u pechga yaqinlashib.

– Ne deysan? – degan past ovoz eshitilib, pech ustidan sarg'ish, ozg'in yuzli benor pastga qaradi. U uzun, oriq, tuk bosib qoni qochgan qo'llari bilan kir ko'ylagi ustidagi chononini qoqsuyak yelkasiga tortib qo'ydi. – Ichgani biron narsa ber, ukajon, ne ishing bor edi?

Yigit unga cho'michda suv uzzatdi.

– Haligi, Fedya, – dedi u goh u, goh bu oyog'ini bosib, – balki, endi senga yangi etik darkor emasdır, o'zingga kerak bo'lmasa, menga bera qol.

Benor darmonsız boshını cho'michga tiqdi-da, siyrak mo'ylovini loyqa suvga botirib, zo'rg'a, ammo ochko'zlik bilan suv ichdi. Bemorning paxmoq soqoli kirlab ketgandi, u kirtaygan nursiz ko'zları bilan zo'r-bazo'r yigitga boqdi. Suvni ichib bo'lgach, qo'lini ko'tarib ho'l labini armoqchi bo'ldi-yu, lekin holi kelmay chakmonining yengiga artib qo'ya qoldi. U indamay burni bilan nafas olar, bor kuchimi to'plab yigitung aftiga tik qarab turardi.

– Balkim, biron kishiga tekinga beraman, deb va'da qilib qo'ygandırsan, – dedi yigit. – Gap shundaki, tashqari loy, pilchillab yotibdi. Men bo'lsam ish bilan keta-yotgan edim, o'ylab-o'ylab, kel, Fedkaning etigini so'rab ko'ray-chi, balkim, o'ziga kerak emasdır, dedim. Balkim, o'zingga kerakdir, ochig'ini aytaver...

Bemorning ko'ksiga bir narsa quyulib kelib, g'ulduradi, u engashgan edi, qo'qqisidan yo'tal tutib, qiyntala boshladı.

– Kuragi chiqib qolibdi-ku, – dedi to'satdan oshpaz ayol, jahl bilan butun kubani boshiga ko'tarib. – Pech-ayol, kishining yuragi achiydi. Entikning unga nima ko'rdingmi, kishining yuragi achiydi. Etikning unga nima keragi bor? Yangi etik kiydirib qo'yishning hojati yo'q. Joni ham toshdan ekan, o'zing kechir, e Xudo! Ana qara, entik-yapti. Boshqa bir kulbagami yoki biron yergami ko'chirish kerak edi-da! Shaharda shunaqangi kasalxonalar bor deb eshitaman. Shu ham ish bo'ldimi? – Shuncha paytdan beri bir burchakni egallab yotibdi, yetar endi. Joyning o'zi yetishmaydi. Yana tozalik ham talab qilishadi.

– Hey, Seryoga! Qani bor, xo'jayinlar kutib qolishdi, – deb qichqirdi bekat boshlig'i eshikni ohib.

Seryoga bermorning javobini ham kutmay chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, lekin u yo'talayotib ko'zi bilan ketmay tur, gapim bor, degandek ishora qildi.

– Etikni ola qol, Seryoga, – dedi bermor yo'talini bosib, biroz nafasini rostlagach, – menga qara, shart shuki, faqat o'lganimdan keyin qabrimga tosh qo'ygin, – deb qo'shib qo'ydi u xirillab.

– Rahmat, amaki, toshni bo'lsa, albatta, sotib olib qo'yaman.

– Ana yigitlar guvoh, – deyoldi bermor, shu choq u yana engashdi-yu, nafasi siqa boshladi.

– Bo'lди, bo'lди, guvohniz, – dedi yamshikklardan biri. – Bor, Seryoga, aravaga chiq, boshliq yana shu tomonga chopib kelyapti. Shirkinlik xonimning tobi yo'q, axir.

Seryoga o'zining behad katta, yirtiq etigini darhol yechib, skameyka tagiga uloqtirdi. Fyodorming yangi etigi uning oyog'iga rappa-raso keldi, Seryoga unga zavq bilan boqib, uydan chiqib ketdi.

– U ho', etik juda ajoyib-ku, moylab qo'yaymi, – dedi qo'lida bo'yoq cho'tka ushlab turgan yamshik. Seryo-

ga tizginni ushlab kareta ustiga chiqayotgan choqda. – Tekkinga berdimi?

– Ha, havasing kelyaptimi, – deb javob berdi Seryoga karetaga chiqib o'tirar ekan, choponining etagini qayirib. – Qani, chu! Jonivorlar! – deb qichqirdi u otlarga qamchi o'ynatib; shundan so'ng kareta ham, kolaska ham o'zining yo'lovchilar, chamdonlari va bo'lak ashqol-dashqollari bilan kuzgi ko'kintir tuman ichiga kirib, pilchillab yotgan yo'ldan jadal yelib ketdi.

Bermor yamshik dim kulbadagi pech ustida qolaverdi, yo'tala-yo'tala arang u yomboshidan bu yomboshiga o'girilib oldi-da, jum bo'lib qoldi.

Kulbada kechgacha keldi-ketdi bo'lib turdi, tushki ovqat o'tsa ham bermor hamon ovoz chiqarmasdi. Tunash oldidan oshpaz ayol pech ustiga chiqib, uning oyog'i osha po'stimini oldi.

– Mendan achchiqlamma. Nastasya, – dedi bermor, – yaqin orada burchaging bo'shab qoladi. – Hechqisi yo'q, parvo qilma, – deb to'ng'iladi Nastasya, – o'zi qayering og'riyapti, amaki? Aystsang-chi? – Ichlarim og'riydi. Niما bo'lganini yolg'iz Xudoning o'zi biladi.

– Yo'talganingda tomog'ing ham og'risa kerak-a?

– A'zoyi badanim qaqsheydi. O'llimim yaqinlashgan – vassalom. Voy, voy, vo-ye, – deb ingradi bermor.

– Oyog'ingni mana bunday qilib yopib yotgin, – dedi Nastasya pechdan tushayotib, uning choponini ustiga tor-tib qo'yar ekan.

Tun bo'yijinchiroq xira nur sochib turdi. Nastasya va o'nga yaqin yamshik yerda hamda skameykalarda rosa xurrak otib uxlashdi. Yolg'iz bermor oh chekib, yo'talib, pech ustida to'lg'anib yotdi. Tongga yaqin u butunlay jimb qoldi.

– Bugun juda ajoyib tush ko'rdim-da, – dedi oshpazayol, ertasi erta bilan g'ira-shira paytda kerishib, – Xedor amaki pechdan tushib, o'tin yorgani chiqib ketgannish. Kel, Nastasya, senga ko'maklashay, dermish, men bo'lsmunga o'tin yorishga senga yo'l bo'lsin, degan edim, u bol-tani qo'lliga olib o'tinni shunday yorib tashladiki, og'zim ochilib qoldi. Iye, dermishman men, kasal eding-ku, axir desam, yo'q, men kasal emasman, deb bolta ko'tardi-da, bir hamla qilib qolgan edi, jon-ponim chiqib ketdi. Chin-qirib, uyg'onib ketdim. O'lib qolmagannikan? Xedor amaki! Ho', Xedor amaki!

Fyodor javob bermadi.

– Rostdan ham o'lib qolmadimikan? Xabar olib ko'rish kerak, – dedi uyg'ongan yamshiklardan biri.

Pech ustidan osilib yotgan, sarg'ish tuk bilan qoplangan oriq qo'l muzdek va rangsiz edi.

– O'lganga o'xshaydi, borib nazoratchini xabardor qilish kera, – dedi yamshik.

Fyodorming qarindosh-urug'lari yo'q edi – u musofiri edi. Ertasi kuni uni chakkalakzor orqasidagi yangi mo-zorga eltilb ko'nishdi. Nastasya esa bir necha kungacha o'sha kuni ko'r gan tushi va Xedor amakinining o'lganini gapirib yurdi.

### III

Bahor keldi. Pilchillab yotgan shahar ko'chalarida qorayib qolgan muz oralaridan shildirab suv oqa boshladi. Kishilarning ovozlar quvnoq, kiyimlarining tusi ochiq edi. Devor bilan o'ralgan bog'lardagi daraxtilar kurtak chiqar-gan, novdalari essayotgan mayin shabaddada asta shitirlab, tebranardi. Hamma yodda ariq-ariq suv oqar, daraxtlar dan tiniq suv tomchilari tomchilab turardi... Chumchuqlar

o'zlarining jaijigina qanoltarini qoqib, beo'xshov chirqilashardi. Oftobro'ya devorlar, uylar va daraxtlardagi bar-cha narsalar harakatda hamda yaraqlab turardi. Samo ham, yer ham, kishi qalbi ham quvonchga to'lgan edi.

Katta ko'chada turadigan barinming dang'illama uyi ol-diga yangi pokol to'shab qo'yilgan, shoshib xorija keta-yotgan, o'lar holatga kelgan bemor ayol shu uyda edi.

Xonaning yopiq eshigi yonida bemorning eri bilan o'rtayoshlardagi ayol turishardi. Pop qo'lida o'rog'liq ridosini ushlab, divanda yerga boqib'o'tirardi. Burchakda suyanchig'i baland, o'rindig'i chuquq kresloda bir kampir – bemorning onasi ho'ngrab yig'lab yotardi. Uning yonida xizmatkor, kampirning so'rashimi kutib toza ro'molcha ushlab turardi, ikkinchi xizmatkor nima bilandir kampirning chakkasini ar-tar va chepchigi ostidan oq sochlari orasiga puflardi.

– Xo'p, Xudo yor bo'lzin, azizim, – dedi bemorning eri o'zi bilan birga eshik oldida turgan o'rtayosh ayolga gap uqtirib, – u sizga juda ham ixlos qo'ygan, siz ham uning ko'ngliga yoqadigan gaplar topa olasiz, uni ko'ndiring, azizim, boring. – U ayolga eshik ochib bermoqchi bo'llib turgan edi, lekin xolavachchasi uni to'xtatdi-da, ro molcha bilan bir necha marta ko'zyoshini artib, o'zini o'nglab oldi. Keyin u – ana endi meni yig'lamagan desa ham bo'ladi, – dedi-da, eshikni o'zi ochib ichkariga kirib ketdi.

Bemorning eri chuquq hayajonda, xuddi es-bushini yo'qotib qo'yandek edi. U to'g'ri kampirning yoniga bormoqchi bo'llib bir necha odim tashladi-yu, burlib, uyning u boshidan bu boshiga yurib popping yoniga bordi. Pop unga boqdi-da, osmonga qarab xo'rsindi. Qalin mosh-guruch soqoli ham yuqori ko'tarilib, pastga tushdi.

– E, Xudo! Xudo! – dedi ayolning edi.

– Nachora – dedi uh toritib pop, u yana osmonga qarab,

yerga boqdi.

Xonaning yopiq eshigi yonida bemorning eri bilan o'rtayoshlardagi ayol turishardi. Pop qo'lida o'rog'liq ridosini ushlab, divanda yerga boqib'o'tirardi. Burchakda suyanchig'i baland, o'rindig'i chuquq kresloda bir kampir – bemorning onasi ho'ngrab yig'lab yotardi. Uning yonida xizmatkor, kampirning so'rashimi kutib toza ro'molcha ushlab turardi, ikkinchi xizmatkor nima bilandir kampirning chakkasini ar-tar va chepchigi ostidan oq sochlari orasiga puflardi.

– Xo'p, Xudo yor bo'lzin, azizim, – dedi bemorning eri o'zi bilan birga eshik oldida turgan o'rtayosh ayolga gap uqtirib, – u sizga juda ham ixlos qo'ygan, siz ham uning ko'ngliga yoqadigan gaplar topa olasiz, uni ko'ndiring, azizim, boring. – U ayolga eshik ochib bermoqchi bo'llib turgan edi, lekin xolavachchasi uni to'xtatdi-da, ro molcha bilan bir necha marta ko'zyoshini artib, o'zini o'nglab oldi. Keyin u – ana endi meni yig'lamagan desa ham bo'ladi, – dedi-da, eshikni o'zi ochib ichkariga kirib ketdi.

Bemorning eri chuquq hayajonda, xuddi es-bushini yo'qotib qo'yandek edi. U to'g'ri kampirning yoniga bormoqchi bo'llib bir necha odim tashladi-yu, burlib, uyning u boshidan bu boshiga yurib popping yoniga bordi. Pop unga boqdi-da, osmonga qarab xo'rsindi. Qalin mosh-guruch soqoli ham yuqori ko'tarilib, pastga tushdi.

– E, Xudo! Xudo! – dedi ayolning edi.

– Nachora – dedi uh toritib pop, u yana osmonga qarab,

— Onamiz ham shu yerda! — deyarli umidini uzib, dedi ayolning eri, — u bunga bardosh berolmaydi, uni shunday yaxshi ko'radi, biram yaxshi ko'radi, u qanday qilib... bilmadim endi. Otaxon, hech bo'lmasa siz uni tinchlantirishga va bu yerdan ketishga ko'ndirish uchun bir harakat qilib ko'rsangiz-chi.

Pop o'mridan turib, kampirning yoniqa bordi.

— Rostini aytganda, ona qalbiga hech kim tushunib yetolmaydi, — dedi u. — Lekin Xudo rahm qilib qolar.

Kampirning yuzi birdan titrab, uni asabiy holatda hiqichoq tuta boshladi.

— Xudo rahm qilar, — deb davom etdi pop, kampir biroz o'zini bosib olgach. — Men sizga aytsam, muridlarim orasida Mariya Dmitriyevnadan ham battar bir bermor bor edi. Uni oddiy meshchan oz fursat ichida guyohlar bilan davoladi. O'sha meshchan ayni choqda Moskvada istiqomat qilib turibdi. Men Vasiliy Dmitriyevichga Mariya Dmitriyevnani o'sha kishiga bir ko'rsatib ko'ring, degan edim. Hech bo'l maganda bermorni tinchlantirardi. Xudoning quadrati zo'r.

— Yo'q, endi umri tugay deb qoldi, — dedi kampir, — Xudoym uning o'mriga mening jomimni ola qolsa bo'ilmas-midi. — Asabiy hiqichoq ortiq darajada zo'rayib, kampir hushdan ketdi.

Bemorning eri qo'llari bilan yuzini bekitgancha yugurib uydan chiqib ketdi.

Koridorda u singlisimi jon-jahdi bilan quvib ketayotgan olti yoshlardagi bolani ko'rди.

— Nega bolalarни onasining oldiga kirishga da'vat etmasypsz? — deb so'radi enaga.

— Keragi yo'q, ularni ko'rishni istamayapti. Bolalar kirda, xunobi oshadi.

Bola bir daqqa to'xtab, otasining yuziga tikilib boqdi-da, birdaniga hakalak otib, hayqirib-chaqirib chopib ketdi.

— U-chi, dada, juda ham chopqir! — deb qichqirdi singlisini ko'rsatib bola.

Bu vaqt narigi xonada xolavachchasi bemorning yonida o'tirar ekan, gapni aylantirib, uni o'lim haqida o'ylashga hozirlamoqda edi. Doktor deraza yonida dorি qorishtirardi.

Tevarak-atrofi yostiq bilan o'ralgan bermor kapot kiyib to'shakda xolavachchasisiga tikilgancha indamay o'tirardi.

— Oh, azizim, — dedi u qo'qqisidan xolavachchasinining so'zini bo'lib, — meni hozirlamay qo'ya qoling. Meni yosh bola qilmang. Xristianman. Hammasisiga aqlim yetadi. Yaqin orada o'lishimni ham, erim avvalroq gapimga qulqoq solganda, Italiyada bo'lishimni ham, balki, sog'a-yib ketishim mumkinligini ham bilaman. Unga hamma shunday degan edi. Ammo nima ham qilib bo'lardi. Xudoning xoishi shu ekan-da. Hammamizing ham gunohimiz ko'p, buni bilaman, lekin Xudoning marhamatiga ishonaman, gunohimizdan o'tsa ajab emas, gunohimizni kechiradi. Bundoq o'ylab qarasam, azizim, ko'p gunoh qilgan ekamman. Lekin ajrimi tortdim. Boshimga tushgan azobni chidam bilan yengishga harakat qildim...

— Hazratimni chaqiraymi, azizim? Tavba-tazarru qilsangiz, ancha yengil tortasiz, — dedi xolavachchasi.

Bermor bosh qimirlatib rozi ekamligini bildirdi.

— Xudoym! Gunohkor bandangni o'zing kechir, — deb pichirladi u o'zicha.

Xolavachchasi chiqib, popni imlab chaqirdi.

— Farishta-ya, farishta! — dedi u ayolning eriga ko'zijiqqa yoshga to'lib.

Eri yig'lab yubordi, pop uyg'a kirib ketdi. Kampir hamon hushsiz yotar, shuning uchun ham berigi uy suv quyganday jumjit edi. Oradan besh minut o'tgach, pop uydan chiqdi-da, ridosini yechib, sochini to'g'riladi.

– Xudoga shukur, biroz tinchlandilar, – dedi u. – Sizni ko'rish istagidalan.

Xolavachchasi bilan eri kirishdi. Bemor ikonaga tikilib yum-yum yig'lardi.

– Tabriklayman, azizim, – dedi eri.

– Minnatdorman! Juda yengil tortdim, qandaydir huzur his qilyapman, – dedi bemor, uning xushbichim la-bida yengil tabassum o'ymardi. – Xudoymim mehribon-da! Uning o'zi mehribon, ham har ishga qodir, shunday emas-mi? – U yana o'kinch bilan yoshga to'lib turgan ko'z-larini ikonaga tikdi.

Keyin birdan nimanidir eslaganday bo'lди-da, imo-isho-ra bilan erini chaqirdi.

– Hech qachon mening aytganimni qilging kelmaydi, – dedi u ohista, norozi ohangda. Eri bo'ynini cho'zib, itoat bilan uning gapiga quloq solardi.

– Nima deysan, azizim?

– Bu doktorlar hech narsani bilmaydi, davolash qo'li-dan keladigan oddiy tabiblar bor, deb necha marotaba ayidim... Hazratim aytidlarki... Meshchan... Unga odam yubor.

– Kiunga, azizim?

– E Xudoym-ey! Hech narsani tushungisi kelmay-di.. – Bemor yuzini burishtirib, ko'zini yundi.

Doktor kelib, uning tomirini ushladi. Tomir urishi borgan sari sekinlashib borardi. Doktor bemorning eriga ko'z qisib qo'ydi. Bemor buni sezib qolib, jonholatda alangladi. Xolavachchasi teskari o'girilib, yig'lab yubordi.

– Yig'lama, o'zingni ham, meni ham qiynama, – dedi bemor yig'lab, – oxirgi daqiqalardagi oromimni buzzma.

– Farishtasan, jonim! – dedi xolavachchasi uning qo'lini o'pib...

– Yo'q, qo'llimni o'pma, murdalarningina qo'lini o'padilar. E, Xudo! E, Tangrim!

O'sha kuni kechqurun bemor qazo qildi, uning jasa-di katta xonadoming zalida, tobutta yotardi. Eshiklari berk katta xonada bir dyachok<sup>1</sup> o'tirib olib, zabur oyat-larini qiroat bilan ping'illab o'qirdi. Yuqoridagi kumush shamdon marhumanning peshonasi, qotib qolgan sap-sariq qo'llari va uning ustiga yopilgan, tizzasi hamda oyoq barmoqlarining uchi ko'tarilib turgan sarg'ish choyshab ustiga yog'du sochib turardi. Dyachok o'z og'zidan chiq-qotgan so'zlarining ma'nisiga yetmay, bir ohangda o'qir, jumjut xonada so'zlar allaqanday ajoyib jaranglab, yana tinardi. Ahyon-ahyonda uzoqdagi xonalardan bolalarning tovushi, tapir-tupur oyoq ovozi eshitilib qoldardi.

„Yuzingni berkitsang – notinch bo'ladi, – deyilgandi zaburda, – undan ruh ketgach, jon chiqib xokka aylanadi. Ruhing borib narigi dunyoda qaytadan jonlanadi. Toabad Parvardigorga hamd-u sanolar bo'lsin“.

Marhumaning chehrasini xotirjam va mag'rur edi. Top-toza muzdekk peshonasida ham, gilosdek lablariда ham hech narsa qimir etmasdi. Uning butun vujudi diqqatga aylan-gan edi. Biroq u loaqal shu tobda bo'lsa ham o'sha buyuk so'zlarini tushunayotganmikan?

#### IV

Bir oydan so'ng marhumaning qabriga toshdan daxma o'matildi. Yamshikning qabriga esa, hanuz tosh o'matil-may, bir vaqtida allaqanday shaxs yashab o'tganidan dalolat beruvchi do'nglik ustida och yashil ko'katlar o'sib yotardi.

– Xvedorming qabri ustiga tosh qo'ymasang, – dedi kunlarning birida bekattagi oshpaz ayol, – gunohga

<sup>1</sup> Dyachok – pravostav cherkovida unvongu ega bo'lmagan runoniy.

botasan, Seryoga. Qish o'tsin, qish o'tsin, deb yurding, endi nega so'zingning ustidan chiqmaysan? Axir, mening oldimda so'z berган eding-ku! Bir marta arvohi kelib esingga solib ketdi, tosh sotib olib qo'ymassang, endi kelib bo'g'adi.

– Nima, men so'zimdan qaytyapmanmi, – deb javob berdi Seryoga, – tosh qo'yaman dedimmi, qo yaman, bir yarim so'lkavoyligidan sotib olib qo'yaman. Yodimdan chiqqani yo'q, umi olib kelish kerak-da. Shaharga bordim deguncha olib kelaman.

– Hech bo'lmaganda but qo'yib tursang ham bo'-lardi, – dedi bir qari yamshik, – rostdanam yaxshi emasda. Etigini kiyib yuribsan-ku.

– Butni qayerdan olaman? Palyondan yo'nib bo'lmaydi-ku?

– Shu ham gapmi? Palyondan yo'nib bo'lmasa, ertaroq turib boltani ol-da, daraxtzorga bor, ana o'sha yerdan yo'nib kela qolasan. Bir shumtolni ag'darsang, bo'la-di-qo'yadi. Bo'lmasa, o'mnon qorovuliga araq puli berish kerak bo'ladi. Huda-behudaga araq olib beraversang, pul chidaydimi. Mana, men tunov kuni ko'tarmani sindirib qo'ygan edim, o'mniga yangisini qirqib olib kelib qo'ydim, birov g'ing degani yo'q.

Ertalab tong yorishishi bilan Seryoga boltani olib, o'rmonga ketdi.

Hamma yoqni hali quyosh nuri ko'rishga ulgurmagan jilosiz tungi shudring qoplagan. Sharq tomon osmon gumbazidagi yupqa bulut pardasini yorib asta ravshanlashmoqda. Na yerdagi biron ta'qibiyet qo'yishlari, uchidagi yaproq qimir etadi. Goh-goh daraxtning quyuq yaproqlariiga urilgan quşlarning qanot qoqishlari-ku, yerdagi shatir-shutur sharpalargina o'mnon tinchligini buzadi. Qo'qqisdan allaqanday g'ayritabiiy tovush taral-

di-yu, o'mnon etagiga borib so'ndi. Biroq yana shu ovoz eshitilib, bu safar tek turgan daraxt tanasining tagida bir me'yorda qaytarilib turdi. Daraxt uchidagi shoxlardan biri aijib silkinib, uning qalin barglari shitirlab ketdi. Shu daraxtning boshqa bir shoxiga qo'nib turgan tog'chum-chuq u shoxdan bu shoxga o'tdi-da, dummini silkitib, bosha qa daraxtga borib qo'ndi.

Bolta tobora ichkarilab, undan chiqayotgan ovoz pa-sayib borar, oppoq nam payrahalar shudring bosib ket-gan mayosalar ustiga uchib tushar va bolting zarb bilan urilgani eshitilib turardi. Daraxt butun vujudi bilan qaltrib engashdi-yu, o'z ildizi ustida chayqalib tezda yana qomatini rostilab oldi. Bir daqiqqa hamma yoqda jumlilik hukm surdi-da, keyin daraxt engashib, uning tanasi yana qarsillab, shoxlanini sindirgan, barglarini to'kkani holatda gursullab nam yerga quladi. Bolta va qadam tovushlari tindi. Tog'chumchuq chug'ullab, „pir“ etib yuqoriroqqa qo'ndi. U tegib ketgan kichkinagini shox yaproqlari bir-roz silkinib turdi-da, o'zining barcha shoxchalarini qatori u ham tindi. Daraxtlar tek turgan yaproqlarini ko'z-ko'z qilganday, yangidan ochilgan joyda ilgarigi holatlaridan ham chiroyliroq bo'lib barq urib turardi.

Quyoshning dastlabki nurlari bulutlarni yorib o'tib, ko'kda charaqlab yer va osmonga yoyildi. Shudring maysa ustida tuman jarlikni qoplay boshladи. Shudring maysa ustida yaltirab, oq bulutlar tezlik bilan ko'm-ko'k fazo bo'ylab tarqala boshladи. Qushlar bir yerga to'planib, mast bo'lib sho'x sayrar, nobud bo'lgan daraxt tepasida nam yaproqlar quvonch va xotirjamlik bilan shitirlar, ko'karib turgan daraxtlarning shoxlari esa ohista va mag'rur tebranardi.

qilish maqsadida darhol jo'nashga ahd qildi. Shu sabab-dan ham u, bayram o'tishi bilanoq, sandiqda asrab yur-gan yetti yuz so'm pulini oldi, unga q'o'lidagi ikki ming uch yuz so'm cherkovning pulini qo'shib, uch ming so'm qildi-da, qayta-qayta sanab, hamyoniga joylagach, yo'lga chiqmoqchi bo'ldi.

Xizmatkor Nikita chopganicha chanaga ot qo'shgani ketdi, chunki Vasilii Andreichning xizmatkorlari ichida shu kuni birgina hushyori Nikita edi. O'zi piyanista bo'la turib, o'sha kuni mast bo'lмаганига сабаб шукі, у пасха-дан олдин устидаги бельбурма камзулі билан оғыгидаги charm etigini sotib ichib, endi ichmaslikka tavba qilgan. Mana iki oydirki, ichmay yurgan edi, hozir ham ikki kunlik bayramda odamlarning vino ichishlarini ko'rib, havasi kelganiga qaramay, ichmagan edi.

Nikita qo'shni qishloqlik ellik yoshta kirgan mu-jik edi; u, odamlarning aytishicha, ro'zg'orga beparvo, ko'p umrini birovlarning uyida xizmat qilib o'tkazardi. Uni hamma joyda mehnatsevarligi, chaqqonligi va ish-ni do'ndirishi, asosiyisi, xulqi yaxshiligi, oqko'ngilligi uchun qadrlashardi. Ammo u hech qayerdan qo'nim to-polmasdi, chunki bir yilda ikki marta, ba'zan undan ham ko'p ichar va shunda butun ust-boshini sotib bitirishdan tashqari, janjalni pulga sotib oladigan odati ham bor edi. Vasilii Andreich ham uni bir necha bor haydab yubor-gan, lekin keyin halolligi, hayvonlarga jonkuyarligi va eng muhimmi, arzongarov xizmatkorligrini ko'zi qiymay, yana chaqirib olgan edi. Vasilii Andreich Nikitaga qirq so'm to'lardi, holbuki, boshqa joylarda bunday xizmat-korlarning bahosi sakson so'm turardi, bu qirq so'mni ham yaxlit bermay, bo'lib-bo'lib berar va ko'pincha pul o'miga do'konidan qimmat bahoda mollar berib, ora ochdi qillardi.

## ХО'JAYIN VA XIZMATKOR

### I

Bu voqeа yetmishinchи yillarda, qishki Nikola bay-ramining ertasi kuni yuz berdi. Qavm bayram qilayot-gani sababli, qishloq saryboni, ikkinchi gildiya savdo-gari Vasilii Andreich Brexunov hech qayoqqa ketmay, cherkovda bo'lishi kerak edi, chunki u cherkov oqsoqol bundan tashqari, uyida qarindosh-urug'lari va oshna-og'aynillarini mehmmon qilishi lozim. Nihoyat, oxirgi meh-monlar ketib bo'lgach, Vasilii Andreich darhol ko'pdan beri savdo bo'lib kelayotgan o'rmonni sotib olish uchun qo'shni qishloqdagi pomeshchiknikiga otlandi. Vasilii Andreich bu foydali o'hjani qo'lдан chiqargisi kelmas, tag'in shahar savdogarlarini mendan oldin ilib ketishmasin, degan xayolda tezroq yetib borishga oshiqardi. U, bu o'rnonga yetti ming so'm beraman, degani uchun yosh pomeshchik o'n ming so'm so'ragan edi. Holbulki, yetti ming so'm haqiqiy bahosining atigi uchdan bir qismini tashkil etardi. Vasilii Andreich, albatta, yana savdolash-gan bo'lardi, chunki o'rmon uning okrugida, qolaver-sa, qishloqdagi uyezd savdogarlarini bilan uning orasida ko'pdan buyon shunday qoida bor edi. Bu qoidaga mu-vofiq, bir pomeshchik atrofidagi ikkinchi pomeshchik-ning qo'ygan bahosini oshirmasdi. Biroq Vasilii Andreich guberniyadagi o'rmon savdogarlarini Goryachkino qishlog'idagi o'rmonni sotib olishga kelishmoqchi ekan-liklarini eshitib, pomeshchik bilan savdoni bir yoqlik

Nikitaning xotini, bir vaqtlar chirolyi va o'ktam ayol bo'lgan Marfa bir o'smir o'g'li, ikki qizi bilan uyda beka-lik qilardi. U Nikitani er deb bilmas, uni uysa chaqirmsidi. Buning birinchisi sababi shuki, u yigirma yildan beri boshqa qishloqdan kelib ularmikida turib qolgan bir boch-kasoz mujik bilan birga yashardi, ikkinchi sababi shuki, u garchi eri hushyorlik vaqtida uni istagancha xo'rhasa-da, mast bo'lgan vaqtida undan zirillab turardi. Bir kuni Nika-ka uyda ichib, mast bo'lib, chamasi hushyorlik vaqtida ko'rgan butun xo'rliklarining o'chini olish uchun bo'lsa kerak, xotinining sandig'ini sindirib, ichidan uning eng qimmatbahoh kiyimlarini, sarafan-u ko'yylaklarini yaxshi, qiyomatxatda bolta bilan qiyma-qiyma qilib tashlib olib qiyomatda bo'lsa bilan qiyma-qiyma xotiniga berilardi, gan. Nikitaning ishlab topgan pullari xotiniga berilardi, lekin u bunga g'ing demas edi. Bu safar ham, bayramga ikki kun qoldi deganda Marfa Vasilii Andreichning oldiga kelib, undan oq un, choy, qand, chorakta vino, xuldas, hammasi bo'lib uch so'mlik narsa va yana besh so'm naqd pul oldi-da, go'yo u katta marhamat qilganday, unga ko'pdan ko'p minnatdorchilik bildirib ketdi, holbuki, eng arzon bahoda hisoblaganda Vasilii Andreichda Nikitaning yana yigirma so'm haqi qolgan edi.

— Be, sen bilan biz shartlashib o'tiramizmi? — derdi Vasilii Andreich Nikitaga. — Kerak bo'lsa olaver, kam bo'lmayсан. Men boshqalar singari: sabr qil, hisoblasha-miz, shtrafga bosaman, deb o'tirmayman. Men halol ishni yaxshi ko'raman. Menga xizmat qilar ekansan, men ham seni quruq qo'yumayman.

Shu so'zlarini der ekan, Vasilii Andreich chindan ham Nikitaga yaxshilik qilyapman, deb ishonardi. U ana shunday ishonarli qilib gapirganda Nikitadan tortib, uning qo'liga qaram bo'lgan barcha xizmatkorlar, u aldayotgani yo'q, bizga yaxshilik qiliyapti, deb o'ylashar edi.

— Ha, bilaman, Vasilii Andreich, men o'z otamga xizmat qilyapman, otam uchun turishyapman, deb o'ylayman, buni juda yaxshi bilaman, — deb javob berardi Nikita. Ammo o'zi Vasilii Andreichning aldayotganini va ayni vaqtida o'z hisoblarini umga tushuntirishga urinishing foydasizligini, boshqa joy bo'limgani uchun hozircha shu yerda yashab turaverishi hamda nima bersa shuni olaverishi kerakligini juda yaxshi bilib, sezib turar edi.

Nikita hozir xo'jayinidan chanaga ot qo'shish to'g'risida buyruq olgach, odatdagiday xursand bo'lib, g'oz yurish bilan bardam va shaxdam qadam tashlab saroyga ketdi, u yerdan mixga ilig'liq turgan og'i, popukli tasma yuganni olib, so'liqlarini sharaqlatib, eshigi berk oxonaga bordi, bu yerda, Vasilii Andreich chanaga qo'shishni buyurgan ot alohida saqlanardi.

— Ha, zerikib qoldingmi, tentakvoy? — dedi Nikita otning asta kishmab, uni qarshi olganiga javoban. Ot o'rita bo'yli, sag'rini biroz past, qora to'riq aym'ir bo'lib, ot-xonada bir o'zi turardi. — Bas, bas! Shoshma, avval seni sug'oray, — dedi u otga qarab, xuddi so'zga tushumadigan maxluq bilan gaplashganday, keyin etagi bilan otning semiz, o'rtasi tarmov singari chuqurcha bo'lib ketgan yelkasi-dagi changni artib, otning chiroyli, yosh boshiga yugan kiyigizdi, quloqlarini va peshona yolini to'g'rilab qo'yida, boshidan no'xtasini olib, sug'organi olib ketdi. Ayg'ir qal'in go'ng bosgan oxonadan asta chiqib ol-gach, quduq tomonga yo'rg'alab borayotgan Nikitani orqa oyog'i bilan tepmoqchi bo'lqanday o'ynoqlab, shataloq ota boshladи.

— Qutur-a, qutur, mug'ambir! — deb gap qotdi Nikita To'riqning tempoqchi bo'lmay, faqat hazillashib orqa oyog'i bilan uning yog 'li kalta po'stiniga salt tegib qo'yamoq-chi ekamini bilib; otning bu qilig'i Nikitaga juda yoqardi.

Ot muzdekk suvni ichib qongach, bir pishqirdi-da, keyin qalin, ho'l lablарини qимтий boshlagan edi, labi va mo'ylovlaridan teganaga tiniq tomchilar oqib tushdi, so'ng go'yo'o'ya tolgandek birpas jum qoldi-da, birdan qattiq pishqirib yubordi.

– Ichmasang ichma, majbur qilmaymiz, keyin ichaman demasang bo'lgani, – dedi Nikita otga uning qiliqlarini jiddiy va mufassal tushuntirib, so'ng yuganni tortib, yana saroy tomonga chopa ketdi, yosh, sho'x ot esa orqasidan o'ynoqlab, butun hovlini olatasir qilib yubordi.

Hovlida xizmatkorlardan hech kim yo'q, faqat bayramga kelgan begona bir kishi, oshpaz xotinning eri bor edi.

– Hoy, birodari aziz, – dedi unga Nikita, – borib so'ra-chi, qaysi chanani qo'shishni buyurarkin, kattasimimi yoki kichigimini?

Oshpaz xotinning eri tunuka tomli, zamini baland uy tomonga ketib, tezda kichigini qo'shishni buyurdilar, degan xabar olib keldi. Bu orada Nikita otga bo'yinchakiygizib, chetlariga mix qoqligan egarni urib bo'igan va bir qo'lida yengil, bo'yalgan do'g'an ko'tarib, ikkinchi qo'li bilan otni yetaklab, saroyda turgan ikkita chananing oldiga kelib qolgan edi.

– Kichigini bo'lsa kichigini-da, – dedi u va quloqlarini shoti orasiga kirkizdi-da, oshpaz xotinning eri yordami bilan uni chanaga qo'sha boshladи.

Hamma ish taxt bo'lib, tizgin tasmalarini to'g'rila shgina qolganda, Nikita oshpaz xotinning erini saroydan poxol va ombordan sholcha olib kelishga yubordi.

– Ana, ishlar joyida bo'ldi. Bas, bas, ko'p yer tepinaverma! – dedi Nikita, oshpaz xotinning eri olib kelgan yangi qirqilgan suli poxolini chanaga bosib joylarkan. – Xo'sh, kel endi, olachani mana bunday yozib, ustidan sholchani

tashlaymiz. Ana shunday, shunday, o'tirishga ham yaxshi bo'ladi, – dedi u aytganini qilib, ya'ni o'rindiqning tevarak-atrofiga poxol ustidan sholchani tiqa turib.

– Ana, rahmat, birodari aziz, – dedi Nikita, oshpaz xotinning eriga, – ikki kishi bo'lsa hamma ish tez bitadi. – Keyin u tizginning halqadan o'tib tutashgan tasmlarini to'g'rila, chanaga o'tirdi-da, yurishga oshiqayayorgan giring otni hovlidagi muzlagan go'ng ustidan darvoza to-monga qarab haydadi.

– Mikit amaki, amakjon! – deb qichqira boshladi uning orqasidan ingichka ovoz bilan, shoshib dahlizdan hovliga chiqqan yetti yashar bola, u ustiga qora kalta po'stin, oyog'iga yangi valenka, boshiga issiq quloqchin kiyib olgan edi. – Meni o'tqazib ol, – deb yalindu u chopaturib kalta po'stinining tugmalarini qadar ekan.

– Xo'p, xo'p, kela qol, chirog'im, – dedi Nikita va otni to'xtatib, xo'jayimning quvonganidan ko'zlarini chaqnab ketgan rangsiz, oriq o'g'lini chanaga o'tqazib oldi-da, ko'chaga chiqdi.

Saat uchlар, chamasi. Kun souvq – o'n daraja atrofida, havo bulutli va izg'irinli. Osmomning yarmini pastak qora bulutlar qoplab olgan. Hovlida shamol uncha bilinmas, ammo tashqarida ancha kuchli edi, qo'shni saroyning tomidagi qorlarni uchirib, hammomning muyulishidagi burchakda chirpirak qilib aylantirardi.

Nikita darvozadan chiqib, otning boshini uygakiravishdagiz zinapoya tomonga burishi bilanoq, ustiga qo'yteri po'stin kiygan va belini belbog' bilan pastroqdan tang 'ib olgan Vasilii Andreich papiros tishlab dahlizdan zinapoya ga chiqib keldi, u valenkasingin tagiga charm tiktilib olgani uchun oyog'i ostidagi qor g'irchillar edi. U papirosin oxirgi marta tortib, uni yerga tashladi-da, oyog'i bilan ezz'iladi va mo'ylovi orasidan tutun chiqarib otga ko'z qirini tashlar

екан, соқоллари yaxshilab qirilgan-u, lekin mo'ylovlari qolgan qip-qizil yuzlariga tegib turgan po'stining yoqalari ni tuzata boshladi va nafas olganda mo'ynasi terlamasligi uchun yoqasining chetini ichkariga qayrib qo'ydi.

— Obbo shovvoz-ey, hammadan ilgari sen o'tirib olib-san-ku! — dedi u chanada o'tirgan o'g'lini ko'rib. Mehmonlar bilan ichgan vinosi Vasilii Andreichning kayfini tidagilarning hammasidan, qolaversa, o'zining qilgan hamma ishlaridan odaidan tashqari mammun edi. Doim xayolida merosxo'rim deb yuradigan o'g'lining chanada o'tirishi hozir unga katta zavq bag'ishladi, u ko'zlarini suzib, uzun tishlarini injaytirib, unga tikilib qoldi.

Vasilii Andreichni boshi, yelkalarini shol ro'mol himilador, rangpar va orig xotini dahlizga kuzatib chiqqan edi.

— Nikitani ola ketsang bo'lardi, — dedi u qo'rqa-pisa ostonadan hatlab.

Vasilii Andreich indamadi, uning so'zлari yoqmadishi, jah bilan qovog'ini soldi-da, tufladi.

— Pul bilan ketypapsan, — deb davom etdi xotini boyagi-day achingan ovoz bilan. — Ustiga-ustak yana havo aynib qolishi bor, Xudo ko'rsatmasin.

— Nima, men yo'lni bilmaymammi, hamisha hamroh bilan yuraman? — dedi Vasilii Andreich g'ayritabiyy ravishda lablarini taranglab va har bir so'zni hijjalab, odatda, u o'z prikazchiklari va xaridorlari bilan shu tarzda gaplashar edi.

— Xudo haqi, sendan o'tinaman. Nikitani ola ket! — deb takror gapirdi xotini ro'molini teskarisiga buray turib.

— Toza yelim bo'ldi-ku, bu... Axir, qayoqqa olib ketaman uni?

— Mayli, Vasilii Andreich, boraveraman, — dedi Nikita quvnoqlik bilan. — Faqat men kelguncha ottarga yem-xashak berib turishsa bo'lgani, — deb qo'shib qo'ydi u bekaga qarab.

— Men xabar olib turaman, Nikitushka, Semyonga aytaman, — dedi beka.

— Xo'sh, nima qilamiz, boraymi, Vasilii Andreich? — dedi Nikita javob kutib.

— Hay, mayli, kampirni hurmat qilmasak bo'lmaydiga o'xshaydi. Hamon boradigan bo'lsang, ustingga biron issiqroq kiyim kiyib kel, — dedi Vasilii Andreich yana ilijayib va Nikitaming qo'itig'i, orqasi yirtilib, etaklari dala-valva bo'lib ketgan, hamma yog'i moy, kalta po'stini ga'zi bilan ishora qilib.

— Hey, birodari aziz, bu yoqqa chiq, omi ushlab tur! — deb qichqirdi Nikita hovli tomonga qarab, oshpaz xotining eriga.

— O'zim ushlab turaman, o'zim! — dedi bola chiyillab va sovuqdan qizarih ketgan kichkina qo'llarini cho'ntagidan chiqarib, muzdekk yugan tasmalariga yopisha boshлади.

— O'zingga juda zeb berib o'tirma tag'in, tezroq bo'l, — deb qichqirdi Vasilii Andreich Nikitani mayna qilib.

— Bir zumda tayyor bo'laman, otaxon Vasilii Andreich, — dedi Nikita va tagiga kigiz tikilgan eski valenkasining uchini yerga tez bosib, yugorganicha hovlidagi xizmatkorxonaga ketdi.

— Qani, Arinushka, pechkaning ustidan chakmonimni olib ber-chi, xo'jayin bilan ketyapman! — dedi Nikita uygayugurib kirib mixdan belbog'ini olar ekan.

Tushki ovqatdan keyin uxlab turgan va hozir eriga samovar qo'yayotgan oqsoch xotin Nikitani ochiq chehra bilan qarshi oldi, keyin uning shoshayotganiga hayron qolib, u ham shosha-pisha pechka ustida quriyotgan eski,

ko'rim siz sukno chakmonni oldi-da, uni tez qoqib, yumshatish uchun mijj'ilay boshladi.  
– Ana endi keng joyda ering bilan bermalol o'yabkulaverasan, – dedi Nikita oshpaz xotingga, hamma vaqt biron bilan yuzma-yuz qolganda odob va hurmat yuzasidan biron narsa deyish odattiga ko'ra.

Shundan keyin ingichka, chigal bo'lib ketgan chilvir belbog'ini belidan aylantirdi-da, o'zi shundog'am orig qormini undan battar ichiga tortib turib, kuchining boricha kalta po'stini ustidan mahkam bog'ladi.

– Ana shunday, – dedi u belbog'ini bog'lab bo'lgach, oshpaz xotingga emas, balki belbog'iga qarab, uning uchlarini beliga qistirar ekan, – endi chiqib ketmaysan, – keyin qo'llari erkin harakat qilsin uchun yelkalarini dam yuqori ko'tarib, dam past tushirib ustidan chakmonini kiygan edi, orqasi tarang bo'lib qoldi, yana qo'llarini erkin qimirlatish uchun qo'ltiqlarining tagiga uring urib qo'ydi-da, tokchadan qo'lqoplarini oldi. – Ana bo'ldi.

– Stepanich, oyoqlaringga boshhqara narsa kiyib olsang bo'lardi, – dedi oshpaz xotin, – valenkalaring yirtiq-ku.

Nikita birdan esiga tushgandek to'xtab qoldi.

– Bo'lardi-ya... E, shunday ham bo'laveradi, uzoq emas-ku!

Shunday deb u yugurib tashqariga chiqdi.

– Nikitushka, bu ahvolda sovuq yeysan-ku! – dedi beka u chana oldiga kelganda.

– Be, nega sovuq yer ekanman, sovuq yemayman, – dedi Nikita chananing boshidagi poxol bilan oyog'ini berkitish uchun uni tuzatar va yaxshi ot uchun zarurati bo'lmannan qamchimi poxol ostiga tiqb qo'yar ekan.

Vasiliy Andreich allaqachon chanaga o'tirib olyan edi, u ustma-ust ikkita po'stin kiyib olganidan, deyarli chananing egilgan orqa qismini butunlay egallab o'tirardi,

Nikita chanaga chiqishi bilan u tizginni qo'liga olib, otni yurgizib yubordi. Nikita tezgina chananing oldiga, chap tomoniga joylashib oldi-da, bir oyog'ini chanadan chiqarib qo'ydi.

## II

Asl ayg'ir chanani tortib, qo'shqoraklarning yengil g'ijirlashi ostida qishloqning iz tushgan izg'irinli yo'li dan shaxdam yurib ketdi.

– Sen qayoqqa osilyapsan? Nikita, qamchini bu yoqqa ber! – deb qichqirdi Vasiliy Andreich, afidän, chananing orgasiga osilib olyan o'g'lidan xursand bo'lib. – Hozir adabingni bermasam! Yugur, oyingning oldiga, itvachcha!

Bola chanadan sakrab tushdi. To'riq qadamini jadalashtirdi va lo'killab, keyin bir tekisda yo'rtib ketdi. Vasiliy Andreich turadigan Kresti qishlog'i olti xonadondan iborat edi. Ular qishloqning chekkasidagi temirchinining uyidan o'tishlari bilanoq shamol o'ylaganlaridan ko'ra ancha kuchliroq ekanini darrov sezdlilar. Yo'l deyarli bilinmasdi. Chananing izini shu ondayoq qor berkitib ketardi, yo'lni faqat boshhqara joylardan balandroq bo'lgani uchungina bilib olish mumkin edi.

Dalaning hamma yog'ida shamol qorlamni chirpirak qilib uchirar, osmon bilan yerning tutashgan joyini sira ko'rib bo'lmadsi. Hamma vaqt ko'zga yaqqol ko'rini turadigan Telyatin o'rmoni hozir qor to'zoni orasidan ahyon-ahyonda g'ira-shira bo'lib qorayib ko'rindari. Shamol chap tomonidan esib, oting gjing bo'ynidagi yollarni va oddiygina qilib tugib qo'yilgan mayin dumini o'ng tomonga uchirardi. Shamol kelayotgan tomonqa qarab o'tirgan Nikitaning uzun yoqasi uning yuziga va burniga yopishib borardi.

– Chopishda tengi yo'q-da, uchadi, – dedi Vasilij Andreich, o'zining yaxshi oti bilan faxrlanib. – Bir kun shu ot bilan Pashutino qishlog'iغا yarim soatda yetib bordim.

– Labbay? – deb so'radi Nikita yoqasi ko'tarilgani uchun yaxshi eshitmay.

– Shu ot bilan, deyman, Pashutino qishlog'iغا yarim soatda yetib bordim, – dedi Vasilij Andreich qichqirib.

– Nimasini aytasiz, yaxshi ot! – deb qo'ydi Nikita. Keyin jum qolishdi. Lekin Vasilij Andreichning juda gapirgisi kelardi.

– Xotiningga, bochkasozi ko'p boqaverma, deb aytgan edim-ku, nima bo'ldi? – deb so'zlay boshhladi Vasilij Andreich yana boyagiday baland ovoz bilan. U, mendek mashhur va oqil odam bilan gaplashish Nikitaga xush yoqsa kerak, deb qattiq ishonar va o'z hazilidan g'oyatda mammun edi, shu sababli bu gap Nikitaga qattiq botishi mumkin-ku, degan fikr uning xayoliga ham kelmas edi. Nikita shamolning zo'ridan xo'jayininning so'zlarini yana eshitolmay qoldi.

Vasilij Andreich bochkasozi haqidagi hazilini qattiq ovoz bilan yana takrorladi.

– Havolasi Xudoga, Vasilij Andreich, men bu ishlarga aralashmayman. Faqat xotimim o'g'limgi xafa qilmasa bo'lgani, boshqasi bilan ishim yo'q.

– Gaping to'g'ri, – dedi Vasilij Andreich. – Qalay, borda ot sotib olasamni? – dedi u gapni boshqa yoqqa burib.

– Ha, nasib qilsa, – deb javob qildi Nikita chakmonining yoqasini qaytarib, xo'jayini tomonga o'girilarkan. Endi Nikitani qiziqtiradigan suhbat boshlangan edi, shuning uchun u hamma gapni eshitigisi keldi.

– O'g'lim ham o'sib qoldi, endi o'zimiz yer haydasak bo'ladi, ilgari nuqlu odam yollardi, – dedi u.

– Bo'limsa, bichilmagan otni ola qolinglar, qimmat so'ramayman, – deb qichqirdi Vasilij Andreich hayajonlanib va butun es-hushini band qilgan mashg'uloti – jalloblikdan gap oolib.

– Agar o'n besh so'n bersangiz, ot bozordan olsam-mikan, degan edim, – dedi Nikita, u Vasilij Andreich unga pullamoqchi bo'lgan otning bahosi nari borsa yetti so'm turishimi, ammo Vasilij Andreich unga bu otni berib, so'ngra yigirma beshga o'tkazishini, keyin yarim yilgacha undan sariq chaqa ham ololmasligini bilardi.

– Yomon ot emas. Men senga o'zimnikisan, deb beryap-man. Vijdongan aytayman. Brexunov hech kimmni xafa qilmaydi. Mayli, ketsha mendan ketsin, men boshqalar singari ziqna emasman. Insosim bor, – deb qichqirdi u, doim o'z sotuvchilar va xaridorlarini avraydigan ovozi bilan. – Ot bo'lganda ham asl ot-da!

– Bo'lsa bordir, – dedi Nikita xo'rsinib, keyin eshitadi-gan gapi qolmaganiga aqli yetgach, yoqasini salgina ko'tar-gan edi, shamolda u, shu zahoti yuz-ko'zini berkitib qo'ydi. Ular yarim soatcha jum ketishdi. Po'stunning yirtiqjoyi-dan Nikitaning biqini va qo'liga shamol urardi.

U junjikib, og'zini berkitib qo'yan chakmon yoqasiga kuhlay boshhladi, shunda badaniga sal issiq yugurdi.

– Xo'sh, nima deb o'ylaysan, Karamishev oqrali yuramizmi yoki to'g'ri ketamizmi?

Karamishevoga birmuncha serqatnov yo'ldan borilar, yo'lning ikki betiga uzum belgi qoziqlar qoqib qo'yilgan edi-yu, ammo u yo'l olis edi. To'g'ri yo'l yaqin bo'lgani bilan kamqatnov va buning ustiga, belgi qoziqlar yo'q bo'lsa-da, qisqa, qor tagida qolib keigan edi.

Nikita biroz o'ylanib qoldi.

– Karamishevoning yo'lli biroz olis-ku, lekin serqat-

— To'g'riga yurib, faqat pastlikdan o'tishda adashmasak bo'idi-da, keyin o'mmon ichidan yaxshi ketamiz, — dedi Vasiliy Andreich, to'g'ridan ketgisi kelib.

— Ixtiyorinbiz, — deb javob qildi Nikita va yana yoqasini ko'tarib oldi.

Vasiliy Andreich aytganini qildi, yarim chaqirincha yurib, shoxlarida yakkam-dukkam quruq barglari qolgan va shamolda chayqalib turgan baland dub daraxtining oldiga yetgach, otni chapga burdi.

Chana burlishi bilanoq, ularga shamol qarshidan ura boshladи. Ustiga-ustak tepadan qor bo'ralardi. Vasiliy Andreich otni haydar, lunjalarini shishirib, nuqul pastdan mo'yloviya puflar edi. Nikita mudrab borardi.

Ular shu tariqa o'n minut jum ketishdi. Vasiliy Andreich birdan allanima deb po'ng'illadi.

— Labbay? — dedi Nikita ko'zini ohib.

Vasiliy Andreich javob bermadi, u engashib, hadeb orqasiga va otning old tomoniga qarardi. Ot chovlari va bo'yni terlaganidan yunglari jingalak bo'lib ketgan, o'zilidam qadam tashlab borardi.

— Labbay deyapman? — deb takrorladi Nikita.

— Labbay, labbay! — deb massxara qildi uni Vasiliy Andreich jahl bilan. — Nishon qoziqlar ko'rinnayapti! Yo'lidan adashganga o'xshaymiz!

— Bo'lmasa to'xtang, men yo'lni ko'rib kelay, — dedi Nikita va lip etib chanadan tushdi-da, poxolning ostidan qamchini olib, chap tomonga qarab ketdi.

Bu yil qor qalim yog'magani uchun yo'l ochib ketsa bo'lardi, biroq ba'zi joylarda tizzadan kelgani sababli Nikitaning qo'njiga qor kirdi. Nikita yo'lni qidirib, oyoqlari va qamchi bilan paypaslab ko'rar, ammo hech qayerda yo'l ko'rinnmas edi.

— Xo'sh, qalay? — deb so'radi Vasiliy Andreich, Nikita qaytib chananining oldiga kelganida.

— Bu tomonda yo'l yo'q. Endi narig'i tomonni ham bir ko'rish kerak.

— Huv ana, oldindan bir narsa qorayib turibdi, o'sha yoqqa borib ko'r-chi, — dedi Vasiliy Andreich.

Nikita o'sha yoqqa ketdi. Qorayib ko'ringan narsaning oldiga borib qarasa, usi ochilib qolgan kuzgi don ekiniga qor ustidan sepih qo'yilgan tuproq ekan, o'sha tuproq qormi qorayitirib ko'rsatayotgan ekan. Nikita o'ng tomonni ham tekshirib, chananining oldiga keldi, ustidagi va etigining ichidagi qorlarni qoqib, chanaga o'tirdi.

— O'ng tomonga yurish kerak, — dedi u qat'iy, — shamol chap biqinimga urayotgan edi, hozir bo'lsa to'g'ri basharamga uryapti. O'ng tomonga haydang!

Vasiliy Andreich uning gapiga kirib, otni o'ng tomonga burdi. Lekin baribir yo'l yo'q edi. Ular ancha vaqtgacha shu tariqa ketaverishdi. Shamol pasaymas, hamon qor bo'ralar edi.

— Vasiliy Andreich, biz butunlay adashib qolganga o'xshaymiz, — dedi to'satdan, Nikita go'yo adashganidan zavqlanayotganday. — Anavi nima? — dedi u qor ostidan qorayib chiqib turgan kartoshka palagini ko'rsatib.

Vasiliy Andreich terga pishgan va hansirab chanani zo'rg'a tortib borayotgan otni to'xtatdi.

— Qayoqdan bilding? — deb so'radi u.

— Chunki Zaxarovning dalasiga kelib qolibmiz. Butunlay boshqa yoqqa ketibmiz!

— Be, yolg'on! — dedi Vasiliy Andreich.

— Yolg'on gapirayotganim yo'q, Vasiliy Andreich, rost ayyapman, — dedi Nikita, — chananining yurishidan bilsa ham bo'ladi — kartoshka ekilgan daladan ketyapmiz, huv ana, palaklarini to'plab, uyib qo'yishibdi. Bu zavodchi Zaxarovning dalasi.

— Buni qara-y'a, adashib ketibmiz-kul! — dedi Vasiliy Andreich. — Endi nima qilamiz?

– To'g'riga ketaverish kerak, vassalom, bir joydan chiqarmiz, – dedi Nikita. – Zaxarovka qishlog'iga chiqmasak, Barinning qo'rg'oniga chiqarmiz.

Vasiliy Andreich Nikitaning maslahatiga ko'nib, otni u aytgan tomonga hayday boshladи. Ular shu taxlidda ancha yurishdi. Ba'zan o'tlar ko'm-ko'k sabza bo'lib yotgan ochiq joyga chiqib qolishar va chana muzlagan kesaklaryu tegib taqirlardi. Ba'zan yozgi, ba'zan kuzgi don ekinlari, ba'zan bahorgi don ekinlari ekilgan yerlardan o'tishardi, bu yerlarda qor ostidan shamolda silkinayotgan shuvvoq va bug'doy maysalari ko'rinih turardi, ba'zan hamma yoqni bir tekis qoplاب yotgan oppoq qalin qor ustiga chiqib qolishardi, uning ustida hech narsa ko'rinnmasdi.

Tepadan qor urib turar, ba'zan yerdan ko'tarillardи. Ot ko'rinishidan juda holdan toygan edi, terga pishganidan yunglari jingalak bo'lib, qirov bog'lab ketgani, bitta-bitta qadam tashlab borardi. Birdan u munkih ketib, ko'lmarkami, ariqamni cho'kkalab qoldi. Vasilii Andreich otni to'xtatmoqchi bo'lgan edi, biroq Nikitu baqirib:

– To'xtatmang! – dedi. – Tijilib qoldikmi – chiqib ketishimiz kerak. Chu, jonivor! Chu, chu, jonidan! – deb qichqirdi u otga daldala beruvchi ovoz bilan, shu choq o'zi sakrab chanadan tushgan edi, ariqqa botib qoldi.

Ot bir siltanib, chanami muzlagan yerga tortib chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, u qazilgan ariq ekan.

– Biz qayerga kelib qoldik? – deb so'radi Vasilii Andreich.

– Yuraveraylik-chi, ko'ramiz! – deb javob berdi Nikita. – Biron joydan chiqarmiz.

– Hov anavi Goryachokino o'monimi deyman? – dedi Vasiliy Andreich oldilarida qor orasidan qorayib ko'ringan bir narsani ko'rsatib.

– Oldiga boraylik-chi, keyin qanaqa o'monligini bimaniz, – dedi Nikita.

Nikita o'sha sharpa qorayib ko'rinyotgan tomondan to'ning qurigan, uzunchoq barglari uchib kelayotganini ko'rgani uchun, u o'mon emas, biron xonadon bo'lsa kerak, deb o'yadiyu, lekin buni aymadi. Chindan ham ular ariqdan o'tib o'n sarjin yurar-yurmas oldilarida daraxtlar qorayib ko'ringandek bo'ldi va qandaydir g'uvullagan bo'zin ovoz eshitildi. Nikitaning taxmini to'g'ri chiqdi: bu o'mon emas, balki shoxlarida yakkam-dukkam barglari tilrab turgan bir nechta baland tol daraxti edi. Daraxtlar, xirmon atrofiddagi ariqning chetiga o'tqazilg'an edi. Shamolda g'uvullab hazin ovoz chiqarayotgan to'llarning oldiga kelgach, birdan ot oldingi ikki oyog'ini ohomadan baland ko'tarib, keyingi oyoqlari yordami bilan tepilikka chiqib oldi-da, chap tomonga burildi va shundan keyin tizzasidan qor kechib yurmaydigan bo'ldi. Bu yo'l edi.

– Mana yetib ham keldik, – dedi Nikita, – lekin qayerga kelganimizni o'zimiz ham bilmaymiz.

Ot qor bosgan yo'lidan to'g'ri ketdi, ular chanada yuz metr yurar-yurmas bir bostirmanning uzun chetan devori qorayib ko'rindi. O'rilgan g'allani quritadigan va yanchadigan bu bostirmanning qalin qor bosgan to'midan timmay qor to'kilardi. Bostirma orqada qolgach, yo'l shamol urayotgan tomonga burildi-yu, ular qortugaga duch kelib qolishdi. Ammo oldinda ikki uy orasidan ketgan tor ko'cha ko'rindi, chamasi, shamol qormi shu ko'chaga uyib qo'ygan, endi har qalay, shu qortepadan oshib o'tish kerak edi. Chindan ham qortepadan oshib o'tishgach, ular ko'chaga chiqishdi. Eng chetdag'i hovli-da urqonga yoyib qo'yilgan,sovruqda qotib qolgan bitta qizil, bitta oq ko'ylik, paytava va yubka shamolda qattiq

silkinardi. Ayniqsa, oq ko'ylak yenglarini uchirib, juda qattiq piripardi.

- Obbo dangasa xotin-ey, bayramda ham kirlarini yig'ishtirib olmabdi-ya, – dedi Nikita silkinayotgan ko'ylaklarga qarab.

### III

Ko'chaning boshida shamol kuchli bo'lganidan yo'lni qor bosgan edi, lekin qishloqning o'rtafiga kelganda havo tinch, iliq va yoqimli bo'la boshladi. Bir hovlida it hurdi, ikkinchi hovlida esa boshiga erkaklarining belbuma kamzulini yopingan bир ayol allaqayerdan chopib keldi-da, yo'lovchilarga qarash uchun ostonada to'xtab, keyin uya kirib ketdi. Qishloqning o'rtafigan qizlarning ashulasi eshitildi.

Bu qishloqda, chamasi, shamol ham, qor ham, sovuq ham kam edi.

- Iye, bu Grishkino qishlog'i-ku, – dedi Vasilii Andreich.
- Xuddi o'zi, – deb javob qildi Nikita.

Chindan ham bu Grishkino qishlog'i edi. Ma'lum bo'lishicha, ular adashib, chap tomonga ketib qolishibdi va kerakli yo'1 bir yoqda qolib, butunlay boshqa yo'ldan sakkiz chaqirim yurishibdi, lekin har holda, mo'ljallagan joylariga birmuncha yaqinlashgan edilar. Grishkino qishlog'idan Goryachkino qishlog'i besh chaqirim kelardi. Ular yo'lni davom ettirishar ekan, ko'chaning o'tasidan yurib kelayotgan bir novcha odamga duch kelishdi.

- Kim u kelayotgan? – deb qichqirdi u odam otning jilovidan ushlab, keyin shu zahoti Vasilii Andreichni tanib, shotidan ushlaganicha chananing oldiga keldi-da, o'rindiqqa o'tirdi.

Bu Vasilii Andreichga tanish bo'lgan, okrugda birinchi ot o'g'risi deb nom chiqargan Isay mujik edi.

- Ha, Vasilii Andreich! Yo'1 bo'lsin? – dedi Isay araq hidimi Nikitaga puflab.
- Shunday, Goryachkino qishlog'iga bormoqchi edik.
- Yo'lni chap solibsizlar-ku! Malaxovo orqali borsang-lar bo'lardi.
- Borsak bo'lardi-yu, borolmadik-da, – dedi Vasilii Andreich otni to'xtatib.
- Yaxshi ot ekan, – deb qo'ydi Isay otni bir ko'zdan ke-chirib va o'rgangan odatiga ko'ra, otning qalın dumti tugib qo'yilgan chilvirini qattiqroq tortib.
- Xo'sh, qalay, endi yotib qolasizlarmi?
- Yo'q, birodar, albatta, borishimiz kerak.
- Zarur bo'lгach, iloj qancha. Bu kim? E, Nikita Stepanich-kul!
- Bo'lmasa kim bo'lardi? – deb javob berdi Nikita. – Endi, birodari aziz, tag'in bu yerda adashib-netib o'tirma-sak edi.
- Qanday qilib adashasan! Otni orqaga bur, ko'chadan to'g'i ketaver, ko'chaning boshiga chiqqaniningdan keyin, to'g'riga hayda, chap tomonga yurma, katta yo'lgachiqqach, keyin o'ngga ketasan.
- Katta yo'ling qayeridan burilamiz? Yozgisidammi yoki qishkisidammi? – deb so'radi Nikita.
- Qishkisidam. Hozir, ko'chaning boshiga chiqsang, butalarni ko'rasan, uning qarshisida katta, bir tup dub daraxtib, burilish xuddi o'sha joyda.
- Vasilii Andreich otni orqaga burdi-da, qishloq ko'chasi dan chanmani haydab ketdi.
- Yaxshisi, yotib qola qolinglar! – deb baqirdi ularning orqasidan Isay.

Biroq Vasilii Andreich unga javob qaytarmadi va otni qistay boshladi, besh chaqirimdan ikki chaqirim o'mon ichidan yuriladigan to'g'ri yo'l ular nazarida osongina

bosib o'tiladigandek tuyulardi, yana buning ustiga go'yo shamol pasayib, qor tinayotganga o'xshardii.

Yangigina chana izi tushgan va ko'chaning u yer-bu yerida ot go'ngi qorayib ko'ringan yo'ldan orqalariqa qaytib borishar ekan, yana kir yoyilgan hovli oldidan o'tishdi, shamol oq ko'yaknai joyidan surib yuborgan, to'ng'ib qolgan bir yengi bilan arqonda osilib turardi, ular yana hazin g'uvullab turgan tol oldidan o'tib, ochiq dalaga chiqib goldilar. Chamasi, izg'irin pasaymagan, balki battar quturgan edi. Yo'lni butunlay qor ko'mib tashlagan, shuning uchun adashgan-adashmaganlikni faqat belgilarga qarab bilish mumkin edi. Biroq oldindagi belgilarni ham yaxshi ko'rib bo'lmasdi, chunki shamol to'g'ri basharaga urib turardi.

Vasiliy Andreich ko'zlarini qisar, boshini engashibir, belgilarga qarardi, ammo ko'pincha otga ishonib, uning boshmini qo'yib yuborardi. Haqiqatan ham ot adashmay, oyog'i ostidagi egri-bugri yo'lni sezib, goh o'ng, goh chapga burilib borardi, chunki qor qalinishganiga va shamol kuchayganiga qaramay, belgililar goh yo'Ining o'ng tomonidan, goh chap tomonidan ko'riniq qolardi.

Shu ahvolda ular o'n minutcha yo'l yurishgandan keyin birdan otning oldida, shamol zo'ridan qiyalab yog'ayotgan qalim qor to'ri orasida ilgarilab borayotgan qandaydir bir qora narsa ko'rindi. Bu, yo'lovchilar edi. To'riq ularga yetib olib, oldida ketayotgan chananing taxtasiga oyog'ini do'qillatib ura boshladi.

- Yonlab o'tib ke-e-et! – deb qichqirishi chana dagilar. Vasiliy Andreich yonlab o'ta boshladi. Chanada uch er-kak va bir ayol bor edi. Afidana, ular bayramdan qaytayotgan mehnmonlar edi. Bir mujik otning qor bosgan sag'risiga hadeb xipchin bilan savalamoqda edi. Chananning oldida o'tirgan ikkitasi qo'llarini siltab, bir nimalar deb qichqirar-

di. O'ranib olgan, hamma yog 'ini oppoq qor bosgan ayol chananing ketida qimirlamay, hurpayib o'tirardi.

– Qayerlikszilar? – deb baqirdi Vasiliy Andreich.

– A-a...lik! – degan tovush eshitildi, xolos.

– Qayerlikszilar, deyapman?

– A-a...lik! – deb qichqiridi kuchining boricha mujiklar dan biri, lekin nima deganini aniq eshitib bo'lmadi.  
– Chu, bo'sh kelma! – deb baqirdi boshqasi hadeb xipchin bilan otni savalab.

– Bayramdan kelyapsizlar shekilli?

– Ha, chu, chu! Bos, Syomka! O'zib ket! Bo'sh kelma!  
Chanalar bir-biriga urilib ketdi, sal qolsa chalkashib qolay dedi, ajralishgach, mujiklarning chanasi orqada qola boshladi.

Usti qor, yunglari hurpaygan qorindor ot timmay urlayotgan xipchin zarbidan qutulmoqqa joni boricha harakat qilganday, qalin qorda oyoqlari bilan har yoqqa qor sachrabit, pastak do'g'a ostida og'ir nafas olib, kalovalanib borardi. Uning ko'rinishidan yosh, balqiniki singari tarang, pastki labi kengayib ketgan, burun kataklari va qo'rqqanidan quoqqlari dikkayib turgan basharasi bir daqqa Nikitaming yelkasiga tegay-tegay deb turdi-da, keyin orqada qolib ketdi.

– Ana vinoning kasofati, – dedi Nikita. – Otni o'lar holatga yetkazishdi. Yovvoyilar!

Holdan toygan otning pishqirishi va mujiklarning mast qiyqirqlari birmuncha vaqt eshitilib turdi, keyin pishqirish ovozi pasayib, qiyqirqlar ham eshitilmay qoldi. Tevarakkat yana ilgarigiday jum bo'lib qoldi, bu jumlilikni faqat quloq ostida g'uvulagan shamol-u, ahynoda chana do'ng joydan o'tganda qo'shqoraklarning yengil g'ijirlashi buzar edi. Bu uchrashuv Vasiliy Andreichning kayfini chog' qildi va yuragiqa daldla berdi, shuning uchun u belgi qoziqlarga

qarab o'tirmay, qo'rmasdan otni o'z ixtiyoriga qo'yib, hayday boshladи.

Nikita qiladigan ishi bo'l'maganidan pinakka ketg'an edi, u odatiga ko'ra, ana shunday bekorchilik paytlaridи, ko'p chala qolgan uyqularining hussasini chiqarib olar edi. Birdan ot to'xtab qoldi-yu, Nikita qalqib, sal qolsa mukasidan yiqilayozdi.

– Biz yana noto'g'ri yo'l'dan ketyapmiz-ku, – dedi Vasilii Andreich.

– Nega?

– Belgilar ko'rinnmayapti. Yana adashganga o'xshaymi? – Adashgan bo'lsak, qidirish kerak, – dedi gapi niqqa qilib Nikita va o'midan turdi-da, chalish oyoqlarini yengil ko'tarib bosib, qor kechib ketdi.

U dam ko'zdan g'oyib bo'lib, dam yana ko'zga ko'r'niib, ancha vaqtgacha yurdi-da, nihoyat qaytib keldi. – Bu yerda yo'l yo'q, balki, oldimroqdadir, – dedi u chunaga o'tira turib.

Anchagina qorong'i tushib qolgan edi. Izg'irin na kuchaymay, na susaymay bir xil esib turardi. – Loaqlan anavi mujiklarning ovozi ham eshitilmaydi, – dedi Vasilii Andreich.

– Ha, quvib yetisholmadi, juda uzoq ketib qolgangu o'xshaymiz. Balki, ular ham adashib qolishgandir, – dedi Nikita.

– Endi qayoqqa yurdik? – deb so'radi Vasilii Andreich – Otni o'z holiga qo'yib yuborish kerak, – dedi Nikita. – O'zi olib boradi. Tizginni bering.

Vasilii Andreich tizginni jon deb uming qo'lliga tulqazdi, chunki issiq qo'lqop kiygan bo'lishiga qaramay, qo'llari sovqota boshlagan edi.

Nikita tizginni oldi-da, uni qimirlatmaslikka harakat qilib, yaxshi ko'rgan otining aqlilligidan xursand bo'lgan

holdi, faqat qo'lida ushlab bordi. Haqiqatan ham aqlli, #lyrak ot dam u tomonga, dam bu tomonga goh u, goh bu qulog'ini tutib, burila boshladи.

– Faqat gapirmaydi, xolos! – dedi Nikita. – Qarang, bil-yapil! Yuraver, bilib yuraver! Shunday, balli.

Shamol orqaga ura boshladи, biroz isigandek bo'lishdi. – Judla aqlli-da, – deb davom etdi Nikita otdan mammun ho'llib. – Qirg'iz kuchlik-ku, lekin ahmoq. Buni qarang, quloiqlari bilan nima qilyotganiga bir qarang. Hech qanaqa telegrafning keragi yo'q, bir chaqirim olisdan sezadi.

Chindan ham hali yarim saat yur Mayoq oldinda, o'monni, qishloqmi, ishqilib, bir narsa qoraygandek ho'ldi va o'ng tomonda yana belgililar ko'rindi. Ular, chamus, yana yo'lga chiqqan edilar.

– Iya, yana Grishkinoga kelibmiz-ku, – deb yubordi Jordan Nikita.

Haqiqatan, endi o'sha tomondan qor bo'ralab turgan boshirma ularning chap qo'l tomonida qolgan edi, keyin yana o'sha arqonga yoyib qo'yilgan va shamolda qattiq alkinib turgan ko'yylaklar, paytavalar ko'rindi.

Yana ular boyagi ko'chaga kirdilar, yana shamol parsayib, havo biroz isiganday, tana yayraganday bo'ldi, yana o'sha ot go'ngi yotgan yo'l ko'rindi, yana ashula, g'ovurijuvur ovozlar eshitildi, yana itlar hora boshladи. Anchagina qorong'i tushib qolganidan, ba'zi uyrlarning derazalaridan chiroq yorug'i ko'rinish turardi.

Chana ko'channing o'rtafiga kelganda Vasilii Andreich omi devorlari ikki qator g'ishidан ishlangan uy tomonga bordi-da, uyga kiraverishdagи zinapoya oldida to'xtatdi. Nikita oynalariga qor yopishgan va chiroq yorug'ida qorlar yaltirab ko'rинган deraza oldiga keldi-da, uni qamigli dastasi bilan taqillatdi.

– Kim u? – degan ovoz eshitildi.

- Kresti qishlog' idan, Brexunovlar, birodari aziz, – deb javob berdi Nikita. – Birpasga bu yoqqa qarang!
- Deraza oldidan nari ketishdi, oradan ikki minutcha o'tgach, dahliz eshigi g'ichirlab ochildi, keyin tashqani eshikning lo'kidoni shiqirldi, shundan keyin shamol o'chib yubormasligi uchun bir qo'li bilan eshikni ushlagan holda ohorli oq ko'ylik, ustidan yelkasiga kalta po'stin tashlagan novcha, oppoq soqollu chol eshikdir boshini chiqardi, uning ketidan esa, qizil ko'ylik va charm etik kiygan bir yigit ko'rindi.
- Andreich, sennisan? – dedi chol.
- Ha, adashib qoldik, birodar, – dedi Vasilii Andreich, – Goryachkino qishlog'iga bormoqchi edik, bu yerga kelib qolibmiz, yana o'sha yoqqa yo'l olgan edik, yana adashib bu yerga kelib qoldik.
- Toza adashibsizlar-ku, – dedi chol. – Petrushka, bor, darvozani och! – dedi u qizil ko'ylikli yigitga qarab.
- Xo'p bo'ladi, – deb javob berdi yigit quvnoqlik bilan va dahlizga qarab yugurib ketdi.
- E, birodar, ovora bo'lma, yotib qolmaymiz, – dedi Vasilii Andreich.
- Benahalda qayoqqa borasan, yotib qol!
- Jon deb yotib qolar edim-ku, ammo borish kerak. Zarur ish bor, birodar, bo'lmaydi.
- Jilla qursa choy ichib, isinib ol, – dedi chol.
- Isinib olish boshqa gap, – dedi Vasilii Andreich, – qorong'iga qolmaymiz, oy chiqsqa, yorug' bo'lib ketadi. Nima qilamiz, Nikita, kirib isinib olamizmi?
- Nima ham derdik, isinsak isinaveramiz-da, – dedi Nikita, u juda sovqotgan, biron issiq joyda yaxshilab isimib olishni juda xohlab turgan edi.
- Vasilii Andreich chol bilan birga uyga kirdi, Nikita esa otni Petrushka ochgan darvozadan yetaklab, uning

ko'rsatishiga muvosfiq, saroyning bostirmasi ostiga olib bordi. Saroyda go'ng uyulib, muzlab qolgan edi, shu sababli baland do'g'a tovuqlarning qo'nog'iga tegib ketdi. Qo'noqdagi tovuqlar bilan xo'roz norozlik bildirganday ququqlasha boshladи. Hurnik ketgan qo'ylar muzlagan go'ng ustida tuyoqlarini dukurlatib, bir chekkaga qochishdi, begona odam kelganini sezgan it esa, ham qo'rqib, ham jon-jahdi bilan unga qarab akillay boshladи. Nikita ularning hammasi bilan gaplasha ketdi, tovuqlardan uzr so'rab, endi bundan keyin sizlarni bezovta qilmayman, deb ularmi tinchitdi, qo'yalmi koyib, nega muncha qo'rqsizlar, nimadan qo'rqqaninqlarni o'zing-lar bilmaysizlar, deb qo'ydi, otni bog'lay turib, itga ko'p nasihat qildi.

– Ana, ishlar bunday bo'pti, – dedi u ustidan qorlarni qoqar ekan. – Akillashingri qara-ya! – deb qo'shib qo'ydi va itga qarab. – Bas qil! Bas deyman senga, ahmoq. O'zing-ga jabr qilasan, xolos. Keleganlar o'g'ri emas, oshnalar...

– Bular, kitobda aytilishicha, uchta uy maslahatchilar, – dedi yigit tashqarida qolgan chanani kuchli qo'li bilan bostirma ostiga tortib qo'yar ekan.

– Maslahatchi deganining nimasi? – deb so'radi Nikita.

– Pulson shunday deb yozgan-da, uyg'a o'g'ri kirsa, it huradi – demak, g'affat bosmasin, ko'zingni och, degani bo'ladi. Xo'roz qichqirdimi – demak, turish kerak. Mushuk yuzini yuvsa – aziz mehmon keladi, degani bo'ladi, demak, uni kutishga tayyorgarlik ko'rish kerak, – dedi yigit ilijayib.

Petruxa xat-savodli yigit edi, u bisotida bo'lgan bitta-yu bitta Paulsonning kitobini deyarli yod bilar va bugungidek biroz ichib olgan paytharida undagi ibratl so'zлarni o'mida ishlatib qolishni yaxshи ko'rар edi.

– Juda to'g'ri gap, – dedi Nikita.

– Amaki, rosa sovgotgandirsiz-a? – deb qo'shib qo'ydi Petruxa.  
– Ha, oz-moz, – dedi Nikita, so'ng ular hovli, dahlizzan o'tib, uyga kirdilar.

#### IV

Vasiliy Andreich kirib borgan uy qishloqdag'i eng davlat xonadonlardan biri edi. Olinanig besh chek yeri bo'lib, bundan tashqari, yana u chetdan ijara ga yer olib ekin ekar edi. Qo'rg'onda oltita ot, uch sigir, ikki g'unajin, yigirmaga yaqin qo'y bor edi. Bu xonadonda jami bo'lib yigirma ikki jon, uylangan to'rt o'g'il, olti nabira (bulardan uylangani faqat Petruxa edi), ikki chevara, uch yetimcha va to'rt kelin bola-chaqlari bilan turar edi. Bu hali ajralmay yaxlitligicha qolgan kamdan kam oilalardan biri edi, lekin bu uyda ham hamisha xotin-xalaj orasida boshsanadigan kishibilmas, ichki janjal boshlangan edi, bu janjal yaqin orada oilani, albatta, bo'linishga olib kelishi turgan gap edi. Ikki o'g'il Moskvada meshkoblik qilardi, bir o'g'il askarlilik xizmatida edi. Hozir uyda chol, kampir, ro'zg'or tebratadigan ikkinchi o'g'il, Moskvadan bayramga kelgan to'ng'ich o'g'il va butun xotin-xalaj-ubolar, bulardan tashqari, yana bir mehmmon – cholning qo'shni oshnasi bor edi.

Uyda, stolning tepasida shipga osib qo'yilgan qalpoqli lampa stol ustidagi choy idishlarini, ichida arag'i bor shishani, ovqatlarni, uyning g'isht devorlari bilan burchakdag'i osig'liq turgan ikonalarni va ularning ikki tomonidagi suratlarni ravshan yoritib turardi. Stol yonida, eng to'nda qora kalta po'stinida qolib, muzlagan mo'ylovlarini so'rgan holda, chaqchaygan, qirg'ynikidek o'tkir ko'zlar bilan odamlarni va uyni ko'zdan kechirib Vasiliy

– Amaki, rosa sovgotgandirsiz-a? – deb qo'shib qo'ydi Petruxa.

– Ha, oz-moz, – dedi Nikita, so'ng ular hovli, dahlizzan o'tib, uyga kirdilar.

Mujiklar araq ichishib, ovqat yeb bo'lishgach, endi choy ichmoqchi bo'lishganda, pechka oldidagi samo-var ham shig'llab qolgan edi. So'rida va pech ustida yosh bolalar ko'rinardi. Taxta karavot ustida bir ayol belynchak tebratib o'tirardi. Yuzlarini, hatto lablarini ham qat-qat ajin bosgan kampir – uy bekasi, Vasiliy Andreichga mulozamat qilmoqda edi.

Nikita uyga kirib kelgan vaqida kampir qalin stakan-chaga araq quyib, uni mehmonga tutayotgan edi.

– Aybga qo'shmaysan, Vasiliy Andreich, ichmasang bo'lmaydi, qutlash kerak, – dedi kampir. – Ichib yubor,

azizim.

Araqning hidi, ayniqsa, hozir Nikita sovgotib va holdan toyib turgan paytda uni qattiq hayajonga soldi. U qovog'ini solib, quloqchin va chakmonining qorini qoqdi-da, ikona qarshisida turib, go'yo hech kimni ko'rмагандек uch mar-

ta cho'qindi va ikonalarga ta'zim qildi, keyin uy egasi –

cholga qarab, avval unga ta'zim qildi, so'ngra stol atrofida

o'tirganlarga, keyin pech oldida turgan xotinlarga qarab bir-bir ta'zim qilib chiqdi va „Bayramingiz muborak“, de-

di-da, stol ustiga qaramay, chakmonini yechha boshladи.

– Amaki, rosa qirov bog'labsan-ku, – dedi katta aka

Nikitaning qorli yuz-ko'zi va soqoliga qarab.

Nikita chakmonini yechib, uni yana bir marta qoqdi va

pech yoniga ilib, stol oldiga keldi. Unga ham araq tutishdi.

U bir daqiqa ikkilanib qoldi, sal bo'lmasa stakanni qo'z-

Mujiklar araq ichishib, ovqat yeb bo'lishgach, endi choy ichmoqchi bo'lishganda, pechka oldidagi samo-var ham shig'llab qolgan edi. So'rida va pech ustida yosh bolalar ko'rinardi. Taxta karavot ustida bir ayol belynchak tebratib o'tirardi. Yuzlarini, hatto lablarini ham qat-qat ajin bosgan kampir – uy bekasi, Vasiliy Andreichga mulozamat qilmoqda edi.

Nikita uyga kirib kelgan vaqida kampir qalin stakan-chaga araq quyib, uni mehmonga tutayotgan edi.

– Aybga qo'shmaysan, Vasiliy Andreich, ichmasang bo'lmaydi, qutlash kerak, – dedi kampir. – Ichib yubor,

azizim.

Araqning hidi, ayniqsa, hozir Nikita sovgotib va holdan toyib turgan paytda uni qattiq hayajonga soldi. U qovog'ini solib, quloqchin va chakmonining qorini qoqdi-da, ikona qarshisida turib, go'yo hech kimni ko'rмагандек uch mar-

ta cho'qindi va ikonalarga ta'zim qildi, keyin uy egasi –

cholga qarab, avval unga ta'zim qildi, so'ngra stol atrofida

o'tirganlarga, keyin pech oldida turgan xotinlarga qarab

bir-bir ta'zim qilib chiqdi va „Bayramingiz muborak“, de-

di-da, stol ustiga qaramay, chakmonini yechha boshladи.

– Amaki, rosa qirov bog'labsan-ku, – dedi katta aka

Nikitaning qorli yuz-ko'zi va soqoliga qarab.

Nikita chakmonini yechib, uni yana bir marta qoqdi va

pech yoniga ilib, stol oldiga keldi. Unga ham araq tutishdi.

U bir daqiqa ikkilanib qoldi, sal bo'lmasa stakanni qo'z-

Mujiklar araq ichishib, ovqat yeb bo'lishgach, endi choy ichmoqchi bo'lishganda, pechka oldidagi samo-var ham shig'llab qolgan edi. So'rida va pech ustida yosh bolalar ko'rinardi. Taxta karavot ustida bir ayol belynchak tebratib o'tirardi. Yuzlarini, hatto lablarini ham qat-qat ajin bosgan kampir – uy bekasi, Vasiliy Andreichga mulozamat qilmoqda edi.

Nikita uyga kirib kelgan vaqida kampir qalin stakan-chaga araq quyib, uni mehmonga tutayotgan edi.

– Aybga qo'shmaysan, Vasiliy Andreich, ichmasang bo'lmaydi, qutlash kerak, – dedi kampir. – Ichib yubor,

azizim.

Araqning hidi, ayniqsa, hozir Nikita sovgotib va holdan toyib turgan paytda uni qattiq hayajonga soldi. U qovog'ini solib, quloqchin va chakmonining qorini qoqdi-da, ikona qarshisida turib, go'yo hech kimni ko'rмагандек uch mar-

ta cho'qindi va ikonalarga ta'zim qildi, keyin uy egasi –

cholga qarab, avval unga ta'zim qildi, so'ngra stol atrofida

o'tirganlarga, keyin pech oldida turgan xotinlarga qarab

bir-bir ta'zim qilib chiqdi va „Bayramingiz muborak“, de-

di-da, stol ustiga qaramay, chakmonini yechha boshladи.

– Amaki, rosa qirov bog'labsan-ku, – dedi katta aka

Nikitaning qorli yuz-ko'zi va soqoliga qarab.

Nikita chakmonini yechib, uni yana bir marta qoqdi va

pech yoniga ilib, stol oldiga keldi. Unga ham araq tutishdi.

U bir daqiqa ikkilanib qoldi, sal bo'lmasa stakanni qo'z-

liga olib, yaxshi hid kelib turgan timiq araqni qult etib yutib yubormoqchi bo'ldi-yu, lekin Vasilii Andreichga qarab, ichgan qasami, sotib ichgan etigi, bochkasoz, ko'klamda ot sotib olib bermoqchi bo'lgan o'g'li esiga tushib, bir xo'r-sindi-da, stakanni olishdan bosh tortdi.

– Ichmayman, ko 'pdanko p rahmat, – dedi u qovog'ini solib, keyin ikkinchi deraza oldida turgan kursiga borib o'tirdi.

- Nega ichmaysan? – dedi katta aka.
  - Ichmayman degandan keyin ichmayman-da, – dedi Nikita unga qaramay, siyrak mo'ylovi va soqolidagi eriyotgan muzlarga ko'z qirimi tashlab.
  - Unga to'g'ri kelmaydi, – dedi Vasilii Andreich stakandagi araqni ichgach, orqasidan teshikkulcha yeyta turib.
  - Bo'limasa, choy ichgin, – dedi shirinso'z kampir, – tozasovqotgan bo'lsang kerak, onang girtiton. Hoy, xotinlar, samovaringlар muncha kechikib ketdi?
  - Qaynadi, – deb javob qildi kichkina kelin va suvi toshib ketayotgan samovarning bug'sini yelpib, uni zo'rg'a ko'tarib keldi-da, do'q etib stol ustiga qo'ydi.
- Bu orada Vasilii Andreich qanday qilib yo'ldan adashganliklarini, qanday qilib shu qishloqqa ikki marta kelib qolganliklarini, mastlarni uchratganliklarini so'zlab berdi. Uy egalari hayron bo'lishdi va qayerda, nima uchun adashganliklarini, ular uchratgan mastlarning kim ekanliklarini tushuntirishib, u yoqqqa qanday borish kerakligini o'rgatishdi.
- Bu yerdan Molchanovkani kichkina bola ham topib bora oladi, faqat katta yo'ldan buriladigan joyni bilsa bas, o'sha yerda butalar bor. Sizlar butalarga yetmasdan burilgansiz! – dedi qo'shni.
- Yaxshisi, yotib qola qolinglar. Sizlarga joy solib berishadi, – deb mehribonlik qila boshladi kampir.

– Ertalab turib ketaverdinglar, ko 'ngildagidek ish bo'lardi, – dedi chol kampirining gapini ma'qullab.

– Yo'q, birodar, bo'lmaydi, zarur ish bor! – dedi Vasilii Andreich. – Bir soat vaqtini qo'ldan boy bersang, keyin bir yilda ham qo'lga kiritolmaysan, – deb qo'shib qo'ydi u o'rmonni va uning savdosini buzishi mumkin bo'lgan savdogarlarni xayolidan o'tkazar ekan. – Qanday bo'lsa ham yetib boramiz-a? – dedi u Nikitaga qarab.

- Nikita hamon soqol-mo'ylovlaridagi muzzning erishiga mahliyo bo'lib o'tirganday anchagacha indamadi. Keyin:
- Yana adashib qolmasak edi, – dedi xafalik bilan.
- Nikita shuning uchun xafa ediki, uning juda araq ichgisisi kelgan va bu istakni faqat choy ichish bilan bosish umumki edi-yu, ammo hali ham unga choy berishmagan edi.
- Burilishgacha yetib olsak bo'ldi-da, keyin adashmaymiz, o'rmon ichidan yurib manzilga yetib olamiz, – dedi Vasilii Andreich.
- Ixtiyor o'zingizda, Vasilii Andreich, ketsak ketaveramiz, – dedi Nikita uzatilgan stakandagi choyni ola turib.
- Choyjni ichib bo'lib, jo'naymiz.
- Nikita indamay faqat boshini qimirlatib qo'ydi va choyjni tarelkaga quyib, ko'p ishlaganidan doim shishib yuradigan barmoqlarini bug'da isita boshladи. Keyin qandan bir tishlab, uy xo'jalriga ta'zin qildi-da:
- Salomat bo'llinglar, – deb choyni ho'play boshladи.
- Bir odam burilishgacha kuzatib qo'ysa, juda yaxshi bo'lardi-ya, – dedi Vasilii Andreich.
- Nega bo'lmisin, bo'ladi, – dedi katta o'g'il. – Petruxa chana qo'shib burilishgacha kuzatib qo'yadi.
- Bo'limsa, borib qo'shaver, og'ayni, yaxshilingning unutmayman.
- Qo'y, unday dema, suxsurim! – dedi shirinso'z kampir. – Biz astoydil xursandmiz.

- Petruxa, bor, biyani chanaga qo'sh, – dedi katta aka.
- Xo'p bo'ladi, – dedi ijayib Petruxa va shu zahotimixdan shapkasini olib, yugurgancha chana qo'shgani ketdi.
- Otarmi chanaga qo'shib bo'lquncha, ular Vasilii Andreich deraza oldiga kelgan vaqtida bo'linib qolgan suhbatga o'tishdi. Chol oqsoqol qo'shmisiga, hayitda unga hech narsa yubormay, xotiniga farang ro'mol yuborgan uchinchio'g'lidan shikoyat qilayotgan edi.
- Yoshlar kattalarning gapini mensimaydigan bo'lib ketishyapti, – dedi chol.

- Mensimaslik ham gapni, – dedi qo'shni osmasi, – hech yo'lga solib bo'lmay qoldi! Juda aqlili bo'lib ketishganga o'xshaydi. Anavi, Demochkinning o'g'li bor-ku, urib otasining qo'lini sindiribdi. Bu ham aqli ko'payib ketgandan bo'lsa kerak-da.

Nikita ularning yuziga tikilib, gapga qulooq solib o'tirardi, aftidan, u ham suhbatga qo'shilmoqchi edi-yu, lekin maza qilib choy ichayotgani uchun faqat ma'qullab, boshini qimirlatib qo'ya qoldi. U stakan ni tez-tez bo'shatib turar ekan, tobora isib, yayray boshladi. Suhbat ancha cho'zildi, ular faqat bir narsa haqida, ya'ni oila bo'linib ketishining zarari haqida gaplashishdi. Mazmuni, bu shunchaki umumiyl gap emas, balki shu uydagi bo'linishgaga, ya'ni shu yerda qovog'ini solib, indamay o'tirgan ikkinchi o'g'ilming ajralib chiqmoqchi bo'layotganiga tallowli gap edi. Bu, chamasi, uydagilarning hammasingin fikrini band qilgan eng nozik masala edi-yu, biroq ular odob yuzasidan begonalar huzurida o'zlarining xususiy ishlarini muhokama qilishni to'xtatib qo'ygan edilar. Ammo oxiri chol chidayolmay, yig'lamsiragan ovozda „Hozircha tirik ekanman, ajralishga ruxsat bermayman, Xudoga shukur, uy-joyim to'kis, ajratsam, hamma narsaxonavayron bo'ladi“, – dedi.

- Mana, misol uchun Matveyevlarni oling, – dedi qo'shnisi, – maqtashga arziyidigan haqiqiy xonadon edi, ajralishgach, hech kim hech narsaga ega bo'lmay qoldi.
- Sen ham shunday bo'lishmi istayotgandirsan, – dedi chol o'g'liga qarab.

O'g'li hech nima demadi, oraga o'ng'aysiz jimlik cho'kdi. Bu jimlikni allaqachon otni chanaga qo'shib, bundan biroz ilgari uygakirib kelgan va gaplarni eshitib ijayibturgan Petruxa buzzi.

- Pulsionning kitobida ham xuddi shunaqa masal bor, – dedi u. – Otasi o'g'illariga bir bog' supurgi berib, sindiringlar, degan ekan, sindurisholmabdi, bittadan cho'pini ajratishgan ekan, oppa-oson simibdi. Bu ham xuddi shunga o'xshaydi, – dedi u ijayib. Keyin – Chanalar tayyor! – deb qo'shib qo'ydi.

– Tayyor bo'lsa, jo'naymiz, – dedi Vasilii Andreich. – Bo'linish masalasiga kelganda, otaxon, sira bo'sh kelma. Mol-mulkni sen topgansan, sen xo'jayinsan. Sudga ber. U qonun-qoidasini ko'rsatadi.

- Shunday g'ayirlik qiladi, shunday g'ayirlik qiladiki, asti qo'yaverasan, – dedi chol yig'lamsiragan ovozda hamon o'z dardini aytib, – qani endi uni sira gapga ko'ndirib bo'lsa. Xuddi shaytonga aylanib qolganga o'xshaydi!

Bu orada Nikita besh stakan choy ichib, yana bir stakan bo'lsa yo'q demas edim, degan umidda stakanito'ntarib qo'y may, yotqizib qo'ydi. Biroq samovarning suvi tamom bo'lgani uchun beka unga choy quyib bermodi, bundan tashqari, Vasilii Andreich ham kiyimini kiyish uchun o'rnidan turib qoldi. Nikita ham chor-nochor o'midan turdi, qo'lidagi har tomoni tishlangan bir bo'lak qandni yana qanddonga qo'yib, etagining bari bilan terlab ketgan yuzini artdi-da, chakmonini kiygani ketdi.

Chakmonimi kiyib bo'lgach, u og'ir tin oldi, keyin uy egalariga minnadorchilik bildirib, ular bilan xayrashdi-da, issiq, yorug' mehmonxonadan qop-qorong'i, izg'irin shamol guvullab urayotgan, eshigining tirkishidan qor kirayotgan dahlizga va u yerdan qop-qorong'i hovliga chiqdi.

Po'stin kiyib olgan Petruxa otini ushlab hovlining o'rtasida turar va iljayib, Paulsommung kitobidan yod olgan she'rilarini o'qirdi:

*Bo'ron, zulmat osmonni tutar,  
Qor uchquni aylanar quyun.  
Dam hayvonday bo 'kirib o'tar,  
Dam go'dakdek yig 'loqi bir un.*

Nikita uning aytganlarini ma'qullab boshini irl'ar va tizginlarni to'g'rilari edi.

Chol Vasilii Andreichni kuzatib, uning yo'lini yoritish uchun dahlizga fonus ko'tarib chiqqan edi, shamol shu zahoti uni o'chirib qo'yidi. Qorming bo'ralashi kuchayib ketganini hatto hovlida turib ham bilish mumkin edi.

„Obbo, havoning avzoyi buzilibdi-ku, – deb o'yalidi Vasilii Andreich. – Yetib olish ham amri maholga o'xshab qoldi, yo'q, bormasam bo'lmaydi, bu kechiktiradigan ish emas! Buning ustiga, o'rnimdan turib qo'yidim, xo'jayin ham ot qo'shtirib qo'yidi. Xudo xohlasa, yetib boramiz!“

Uy egasi – chol ham ketmay yotib qola qolninglar, deb ancha yolvordi-yu, lekin Vasilii Andreich uning gapiga unamadi. Shundan so'ng chol ortiqcha qistamadi. „Etimol, men qarib qolganim uchun shunday qo'rqlig qilayotgandirman, yetib borishsa ham ajab emas, – deb o'yladi u. – Qaytaga vaqtida yotib uxlaymiz. Ortiqcha tashvishga ham qolmaymiz!“

Petruxa esa xavf-xatar to'g'risida o'ylamasdi ham, chunki u yo'nining butun past-balandoqliklarini besh bar-mog 'iday bilardi va bundan tashqari, „Qor uchquni aylanar quyun“ degan she'r xuddi tashqarida bo'layotgan holatni ifodalayotgandek uni ruhlantirib yuborgan edi. Nikitaning bo'lsa ketishga sira xohishi yo'q edi-yu, lekin u ko'pdan beri o'z erkiga ega bo'lmay, o'zgalar xizmatini qilishga odatlanib qolgan uchun hech nima deyolmadи; shunday qilib, jo'nab ketuvchilarni hech kim to'xtatib qololmadi.

## V

Vasiliy Andreich qorong'ida chananing qayerda turga-nini yaxshi ko'rma, paypaslanib, arang oldiga keldi-da, unga o'trib, tizginni qo'liga oldi va:

– Qani, yurdik! – deb qichqirdi.

Petruxa o'rindig'i yo'q past chanaga cho'kkalab turib olib, otining boshini qo'yib yubordi. Oldida biya turga-nini sezib, hadeb kishmayotgan To'riq, biya yurib ketgani ni sezib, uning orqasidan intildi, ular ko'chaga chiqishdi. Yana boyagi yo'l, boyagi ko'chadan ketishdi, muzlagan kirlar yoyig'lik hovli oldidan o'tishdi, ammo hozir kirlar ko'rinnadi, yana o'sha bostirma ko'rindi, uni hozir, deyarli, tomigacha qor bosib ketgan edi, tomidan shuvvillab qor tushib turardi, yana o'sha hazin ovoz bilan g'uvul-lab, hushtak chalayotgan va shamoldan egilayotgan tollar yonidan o'tib, yana quyundek aylanayotgan qor dengiziga chiqdilar. Shamol shu qadar kuchli ediki, u yondon urgani uchun chanadagilar unga orqalarini o'girib olganlarida, chanani yonga surib, otni chetga gandiraklatib yuborar edi. Petruxa zo'rg'a biyasini lo'killatib, oldinda bardam qichqirib borardi. To'riq esa biyaning ortidan intilardi.

Shu tariqa o'n minutcha yo'l yurgach, Petruxa orqasiga qarab bir nima deb qichqirdi. Vasilii Andreich ham, Nikita ham shamoldan uning nima deb qichqirganini eshitishmadni, ammo-lekin faraz qilib, burilishga kelgan bo'lsak kerak, deb o'yashdi. Haqiqatan ham Petruxa otni o'ng tomonga burdi, shunda yondon urayotgan shamol yuzga ura boshladi, o'ng tomonda, qor orasidan esa, bir nima qorayib ko'rindi. Bu burilishdagi butalar edi.

– Xayr endi, Xudo yor bo'lsm!

– Rahmat, Petruxa!

– Bo'ron, zulmat osmonni tutar! – deb qichqirdi Petruxa va ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Obbo, shoir-ey, – dedi Vasilii Andreich va otga tizzin tegizib qo'ydi.

– Ha, yaxshi yigit, haqiqiy mujik ekan, – dedi Nikita.

Shundan keyin ular o'zlar ketaverishdi.

Nikita uyda choy ichib o'tirganda ichiga kirgan issiqni chiqarib yubormaslilikka harakat qilib, po'stiniqa burkangan va bosshini yelkasiga qisgan holda jim borardi, u yelkasini qattiq qisib olganidan kalta soqoli bo'yning yopishib turardi. Oldinda to'g'ri yo'lga o'xshab ko'rinish, uni aldayotgan chananining ikki shotosini, otning qimirlayotgan orqasi bilan shamol bir tomonga uchirayotgan tugulgan dumini va yana, undan ham oldinda, baland do'g'ani, otning tebranayotgan boshi va hilpirayotgan yolini ko'rardi. Har zamonda uning ko'ziga yo'ning ikki chetidagi nishon qoziqlar ko'rinish qolar, shu tufayli u yo'ldan ketayotganliklarini bilardi. Demak, hozircha uning qiladigan ishi yo'q edi.

Vasilii Andreich oni o'z ixtiyoriga qo'yib borardi. Lekin To'riq qishloqda dam olib olganiga qaramay, istar-istamas yo'rtar, go'yo yo'ldan chiqib borayotganga o'xshardi, shu sababdan Vasilii Andreich uni bir necha marta yo'lga solib qo'ydi.

„Mana, o'ng tomonda bitta qoziq, mana ikkinchisi, mana uchinchisi, – deb sanadi Vasilii Andreich, – mana, oldinda o'mon ham ko'rinish qoldi“, – deb o'yaldi u, oldida qora-yib ko'riringan bir nimaga tikilib. Ammo o'monga o'xshab ko'riringan narsa faqat butalar ekan, xolos. Bu butalar ham orqada qoldi, keyin yana yigirma sarjincha yo'l yurishdi – to'rinch qoziq ham, o'mon ham ko'rinnadi.

„Hozir o'mon kelishi kerak“, – deb o'yaldi Vasilii Andreich va araq bilan choyning kayfidan dadillanib otni to'xratmay, aksincha, tizgimi siltab, unga daldla berdi, shundan so'ng itoatgo'y jonivor – ot garchi kerakli tomon qolib, butunlay boshqa tomonqa haydayotganlarini bilib turgan bo'lsa-da, egasiga bo'ysunib, goh lo'killab, goh yo'ritib, haydayotgan tomonqa qarab chopa boshladi. O'n minutcha shu tariqa yo'l yurishsa ham, ammo hamon o'mon ko'rinnasdi.

– Yana adashganga o'xshaymiz-ku! – dedi Vasilii Andreich otni to'xtatib.

Nikita indamay chanadan tushdi-da, shamoldan goh tanasiga yopishib, goh qayrilib va ustidan tushib ketayotgan chakmonini ushlab, yo'l axtarib ketdi, u qor kechib avval bir tomonga, keyin ikkinchi tomonga bordi. Uch martacha butunlay ko'zga ko'rinnay ketdi. Nihoyat, qaytib keldi-da, Vasilii Andreichning qo'lidan tizgimi oldi.

– O'ngga yurish kerak, – dedi u qat'iy ravishda otni burar ekan.

– Hay, o'ngga bo'lsa, o'ngga-da, – dedi Vasilii Andreich tizgimi berib vasovqotgan qo'llarini qo'lqopga tigib.

Nikita indamadi.

– Qani, oshnajon, bir kuchingni ko'rsat! – deb qichqirdi u otga qarab, biroq ot tizgin silkitib qo'yilganiga qaramay, bitta-bitta qadam tashlab borardi.

Qor ba'zi joylarda tizzadan kelardi, shuning uchun ot har qadam tashlaganda chana sapchib ketardi.

Nikita chananing oldida osilib turgan qamchini olib, otga bir qamchi urdi. Qamchi yeb o'rganmagan tulpor bir sultanib yo'rtib ketdi, ammo sal yurmay yana lo'killab, qadamga o'tdi. Shu tariqa besh minutcha yurishdi. Atrof shu qadar qorong'i va qor shu qadar girdikapalak bo'lib aylanlar ediki, hatto ba'zan do'g'an ham ko'rib bo'limasdi. Ba'zan chana qimirlamay bir joyda turganga o'xshar, dala orqaga ketayotgandek tuyulardi. Birdan ot oldinda bir narsani sezganday taqqa to'xtab qoldi. Nikita tizzigini qo'yib, yana chanadan dik etib tushdi-da, nega to'xtab qolganini bilish uchun otning oldiga o'tdi, u otning oldiga o'tib, endi bir qadam bosmoqchi bo'lgan edi, tiyg'anib, qandaydir jarlikka dumalab ketdi.

— Hay, hay, hay, — dedi u o'ziga o'zi dumalab borar ekan, o'zini to'xtatishga harakat qildi, ammo bo'limadi, niyoyat, jarlikdagi qalin qorni oyog'i bilan o'yib kirib to'xtadi.

Jar yoqasida osilib turgan qor uyumi Nikita yiqilishi bilan ko'chib, uning ustiga ag'darildi, shunda yoqasidan bo'yniga qor tushdi...

— Hali shunaqamisan! — dedi Nikita o'pkalagan ohanganda qor uyumiga va jarga qarab, bo'yniga tushgan qorlarni qoqa turib.

— Nikita, hoy Nikit! — deb qichhirdi Vasilii Andreich tepadan turib.

Ammo Nikita ovoz bermadi.  
Uning fursati yo'q edi: u ustidagi qorlarni qoqib bo'lib, jarga dumalagan vaqtida, qo'lidan tushib ketgan qamchini axtarayotgan edi. Qamchini topgach, u dumalab tushgan joyidan yana qaytib chiqmoqchi bo'lgan edi, ammo chiqishning iloji bo'lmadi: hadeb orqasiga sirg'anib keta-verdi, shuning uchun jar ichida yurib, tepega chiqadigan joy qidirishga majbur bo'ldi. Dumalab tushgan yeridan yetti-sakkiz qadamcha nari borib, emaklab arang teplikka

chiqib oldi-da, jar yoqasi bilan ot turgan joyga tomon yura boshladi. Ot bilan chana ko'rinnasdi, biroq u shamolga qarshi borayotgani uchun ot bilan chanani ko'rishdan oldin, Vasilii Andreichning qichqirib, To'riqning esa, kish-nab uni chaqirgan ovozini eshitib qoldi.

— Kelyapman, kelyapman, muncha kishhnaysan! — dedi u. Chananning xuddi oldiginasiga yetib kelgan paydagina u otni va otning yonida turgan Vasilii Andreichni ko'rdi, Vasilii Andreich juda bahaybat ko'rnardi.

— Qaysi jahannamga yo'qolib ketding? Orqaga yurish kerak. Grishkinoga qaytsak ham mayli, — dedi jahl bilan xo'jayin Nikitaga.

— Jon deb qaytar edik-a, Vasilii Andreich, lekin qoqqa yuramiz? Bu yerda shunday chuqur jar bor ekanki, tushsang, sira ham chiqolmaysan. Men o'shanga dumalab ketib, arang chiqib oldim.

— Xo'sh, nima qilamiz, shu yerda turavermaymiz-ku? Axir, bir yoqqa ketishimiz kerak-da, — dedi Vasilii Andreich.

Nikita hech nima deb javob qaytarmadi. U shamolga orqasini o'girib, chanaga o'tirdi-da, etiklarini yechib, ichiga tushgan qorlarni qoqib tashladi va poxol olib, uni chap etigining ichidan teshigiga yaxshilab tijib qo'ydi.

Vasilii Andreich butun ixtiyorini Nikitaga topshirgan-dek jum o'tirardi. Nikita etiklarini kiyib bo'lgach, oyoqlarini chanaga oldi, yana qo'lqopini kiyib, tizginni qo'liga ushladi-da, otni jar yoqasidan burib hayday boshladи. Le-kin yana yuz qadam yurar-yurmas, ot oyog'ini tirab turib oldi. U yana jarlik yoqasiga kelib qolgan edi.

Nikita yana chanadan tushib, yana qor kechib ketdi. U uzoq yurdi. Nihoyat, ketgan tomonining qarshisidan kelib qoldi.

— Andreich, bormisiz? — deb qichqirdi u.

— Borman! — deya ovoz berdi Vasilii Andreich. — Xo'sh, qalay?

— Hech bilib bo'lmayapti. Qorong'i, qandaydir jarliklar bor. Yana shamolga qarshи yurish kerakka o'xshaydi.

Yana yurishdi, Nikita yana qor kechib yo'l axtargani ketdi. Yana chanaga o'tirdi, yana tushib, qor kechib ketdi va nihoyat, halloslab chana oldiga kelib to'xtadi.

— Xo'sh, qalay? — deb so'radi Vasilii Andreich.

— Nima bo'lardi, juda charchadim! Ot ham yurmayapti.

— Xo'sh, endi nima qilish kerak?

— Qani, yana birpas tura turing-chi.

Nikita yana ketdi va tezda qaytib keldi.

— Orqamdan yur, — dedi u otga, oldidan kelib.

Vasilii Andreich endi hech nima deb buyruq bermas, balki Nikita nima desa, itoatkorlik bilan shuni qilar edi.

— Yur orqamdan! — deb qichqirdi Nikita, otning jirovidan ushlab va tezlik bilan o'ng tomonga siljib, u otni qayoqqadir pastlikdagi qor uyumiqa yetakladi.

— Ot oldiniga oyog 'ini tirab turib oldi, ammo keyin qor uyumidan sakrab o'tmoqchi bo'lib bir intilgan edi, kuchi kelmay bo'yinchaisiga qadar qorga botib qoldi.

— Chanadan tushing! — deb qichqirdi Nikita hamon miq etmay o'tirgan Vasilii Andreichga, keyin otning yoniga kelib shotining bir yog idan ushlab torta boshladi. — Qiz yin bo'ldi, og'ayni, — dedi u To'riqqa qarab, — ammo sira iloji yo'q, bir zo'r bermasang bo'lmaydi! Ha, ha, yana oz-moz! — deb qichqirdi u.

Ot bir talpindi, ikki talpindi, lekin baribir chiqolmadi, go'yo biron chora o'ylayotgandek yana jim turib qoldi.

— Nima bo'ldi, og'ayni, maza yo'q-ku, — deb sazo bera boshladi Nikita To'riqqa. — Qani, yana bir zo'r ber-chi!

Shunday deb Nikita yana o'z tomonidagi shotidan torta boshladi, Vasilii Andreich esa, ikkinchi shotini torta boshladi.

tishga kirishdi. Ot boshini bir siltab, birdan bor kuchi bilan talpina boshladi.

— Ha! Chu! Chiqib ketding! — deb qichqirdi Nikita.

Ot bir sakradi, ikkinchi, uchinchи marta sakradi va ni-hoyat, qor ichidan chiqdi-da, to'xtab, og'ir nafas olib sil-kindи. Nikita otni yetaklab ketavermoqchi bo'lgan edi, lekin Vasilii Andreich ikkita po'stinda juda halloslab qol-ganidan yura olmay, o'zini chanaga tashladi.

— To'xta, birpas nafasni rostlab olay, — dedi u, qish-loqda po'stining yoqasini bog'lab olgan ro'molchasini bo'shata turib.

— Bu yog'i uncha xavfli emas, siz yotavering, — dedi Nikita, — men asta yetaklab ketaveraman, — shunday deb u otni jilovidan ushlab, o'n qadamcha pastlab bordi, keyin sal yuqorilikka qarab yurdi-da, to'xtadi.

Nikita otni to'xtatgan joy shamol tepaliklardan qorni uchirib kelib birpasda ularmi butunlay qor bilan ko'mib tashlaydigan pastqam yer emasdi, lekin har holda, jarlikning yoqasi u joyni qisman shamoldan to'sib turardi. Bir necha daqiqqa shamol pasaygandek bo'ldi, ammo bu uzoqqa cho'zilmadi va go'yo shu biroz dam olib olganimin hissasini chiqarmoqchi bo'lgandek o'n baravar kuch bilan yanada dahshatliroq bo'ron esib, qorlarni chirpirak qila boshladi. Shamolning bunday quturishi Vasilii Andreich nafasini rostlab bo'l gach, chanadan tushib, endi nima qilamiz, deb maslahatlashmoq uchun Nikitaning oldiga kelgan paytg'a to'g'ri keldi. Ikkovi beixtiyor engashib qoldi-yu, shamolning dahanhatli ovozi pasaymaguncha gaplashmadidi. To'riq ham norozi bo'lgandek qulogqlarini chimirib, boshini silkib qo'ydi. Shamol biroz pasaygach, Nikita qo'lqoplarini yechib, ularni belbog'iga qistirdi-da, qo'llariga kuhlab, do'g'aning qayishini yechha boshladi.

— Nima qilyapsan? — deb so'radi Vasilii Andreich.

– Otni chanadan chiqaryapman, boshqa nima qilar-  
dim? Madorim qolmadi, – dedi Nikita kechirim so'rayot-  
gandek.

– Axir, biron yoqqa yurmaymizmi?

– Yurmaymiz, faqat otni qiyaymiz, xolos. Axir, bu  
jonivor o'lardek charchadi-ku, – dedi Nikita, bo'yinni egib  
har narsaga tayyorligini bildirib turgan va ikki biqini terlab,  
og'ir nafas olayotgan otni ko'rsatib. – Tunash kerak, – deb  
qo'shib qo'ydi u go'yo karvonsaroya kelib qolgandek,  
so'ng chilvirmi yecha boshladи.  
Do'g'a bo'shab ketdi.

– Sovqotib o'lmaymizmi? – dedi Vasilii Andreich.

– Iluj qancha? O'lsak o'laveramiz – qochib qutulol-  
maymiz, – dedi Nikita.

## VI

Vasilii Andreich ikkita po'stinda bo'lGANI uchun,  
ayniqsa, ot qorga botib qolganda chananing bir yoq sho-  
tsidan tortishgandan keyin juda isib ketgan edi, ammo,  
haqiqatan, shu yerda tunab qolish kerakligini tushungach,  
uning badaniga muz yugurganday bo'ldi. U o'zini tinch-  
ish uchun chanaga o'tirib yonidan papiro bilan gugurt ola  
boshladи.

Bu orada Nikita otni chanadan chiqaraverdi. U otning  
qorinbog'ini, ayilini, tizginini, bo'yinchcha bog'ini yechdi,  
do'g'anı chiqardi va otga dalda berish uchun unga gapira  
ketdi:

– Qani, chiq, bo'l tez, – dedi u otni shotidan chiqara  
turib. – Mana, seni shu yerga bog'lab qo'yamiz. Og'zing-  
dan so'lig'ingni olib, oldingga poxol tashlayman, – dedi  
u aytgan gaplarini qilib. – Ovgatlaniib olganimdan keyin  
ancha yayrab qolasan.

Aftidan, Nikitaning so'zlarì To'riqqa ta'sir qilmadi she-  
killi, u tinchlanmay, bezovta bo'laverdi: dam u oyog'ini  
bosib, dam bu oyog'ini bosib, shamolga orqasini o'girib,  
chanaga tiqlaverdi va Nikitaning yengiga boshini ishqalayverdi.

To'riq Nikita poxol bilan siylagani uchun go'yo faqat  
uning ra'yini qaytarmaslikka harakat qilganday, chananing  
to'sqichiga qo'yilgan povoldan bir tutam tortib oldi-da,  
keyin go'yo shu paytda tomoqdan ovqat o'tadimi, degan-  
dek uni yana tashlagan edi, shamol bir lahzada uni uchirib  
ketib, qorga ko'mib tashlagdi.

– Endi belgi qilib qo'yamiz, – dedi Nikita chananing ol-  
dini shamolga qilib, so'ngra ikkala shotini ayil bilan bog'lab,  
uni laylak qilib ko'tardi-da, chananing old tomoniga tortib  
qo'ydi. – Mana, endi bizni qor ko'mib ketsa, yaxshi odam-  
lar shotini ko'rib, bizni qor tagidan kovlab olishadi, – dedi  
Nikita qo'lqoplarini bir-biriga urib qo'liga kiyar ekan. –  
Qariyalar ana shunday deb o'rgatishgan.

Vasilii Andreich bu vaqt orasida po'stimining bag'ri-  
ga burkanib olib, tinmay gugurt chaqishga harakat qilar-  
di-yu, ammo sira yondirolmadsi, uning qo'llari qaltilrar  
va gugurt chirt etib yongan zahoti, yo bo'limasa uni endi  
papiro oldiga olib kelgan vaqtida o'chib qolardi. Axiyri  
bir gugurt oxirigacha yonib, bir lahzagina po'stimining  
mo'ynasini, bukilib turgan ko'rsatkich barmog'iga oltin  
uzuk taqilgan qo'lini va sholcha ostidan chiqib turgan suli  
poxolini yoritgan edi, u papirosini tutatib oldi. Papiroshi  
ikki marta cho'zib-cho'zib tortib, tutumini ichiga yutib,  
mo'lyovlari orasidan chiqardi, keyin yana tortmoqchi  
bo'ljan edi, shamol olovni tamaki-pamakisi bilan birga  
poxolni uchirib ketgan tomonga uchirib ketdi.

Ana shu bir-ikki yutim tamaki tutuni ham Vasiliy Andreichga yaxshigina kayf berdi.

— Tunasak tunab qolaveramiz-da! — dedi u qat'iy ravishda. — To'xtab tur, men bayroqcha ham qilaman.

Shunday deb, u yoqasidan yechib chanaga tashlagan ro'molchasi oldi, keyin qo'lqoplarini yechib, chananing old tomoniga keldi-da, bo'yinini cho'zib, shoti oldidagi ayilga ro'molchani chandib bog'ladi.

Shamol shu zahoti ro'molchani goh shotiga yopishtirib, goh birdan yulqib, dardarak qilib uchira boshladi.

— Qara, ish degan bunday bo'pti! — dedi Vasilii Andreich o'z ishidan zavqlanib va chanaga o'tirayotib. — Ikki kishi o'tirsə, issiq bo'lardi-yu, biroq ikkkalamiz sig'maymiz-da, — dedi u yana.

— Men joy topaman, — deb javob berdi Nikita, — ammo otning ustini yopib qo'yish kerak, terlab ketdi jonivor. Mana buni qo'yvoring, — deb qo'shib qo'ydi u, chananing oldiga kelib va Vasilii Andreichning ostidan sholchani tortib.

Sholchani olgach, ikki bukladi-da, avval quyushqomni, so'ngra esa egarmi olib, uni otning ustiga yopdi.

— Hama senga issiq bo'ladi, tentak, — dedi u yana sholcha ustida otga egar va quyushqon ura turib. — Sizga ola-cha kerak emasdir-a? Menga poxoldan ham bering, — dedi Nikita u ishmi qilib bo'lgach, yana chananing oldiga kelib.

Nikita Vasilii Andreichning tagidan olacha bilan poxolni olib, chananing orqasiga o'tdi, u yerda o'ziga qordan chuqurcha yasadi, uning ichiga poxol to'shadi, quloqchinini bostirib kiyib, chakmoniga o'ralib oldi-da, ustidan olachani yopinib, poxol ustiga o'tirdi va chananing orqa taxtasiga yonboshladi, bu joy uni shamol va qordan to'sib turardi.

Vasilii Andreich Nikitaning qilgan ishini aybsitib, boshami qimirlatib qo'ydi, umuman, u mujiklarning o'qimaganliklarini va nodonliklarini xush ko'rmasdi, shundan so'ng yotishsga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

U chanada qolgan poxolni tekislab, biqini ostini qalinoq qildi-da, qo'llarini yengiga tiqb, chananing old burchagiga boshini qo'ydi, bu yer uni shamoldan to'sib turar edi.

Uning uyqusi kelmasdi. U yotib o'ylay boshladi, o'ylaganda ham faqat bir narsa haqida, hayotining birdan bir maqsadi, ma'nosi, quvonchi va g'ururi deb bilgan narsasi, qancha mol-dunyo orttirgani va yana qancha pul orttirishi numkinligi, u taniydig'an boshqa kishilarning qancha davalati-yu, puli borligi, ular bu mol-dunyon qanday orttirganliklari hamda orttirayotganliklari, u ham o'shalar singari qanday qilib yana ko'p pul orttirishi mumkinligi haqida o'yladi. Goryachkino o'rmonini sotib olish juda katta foydani qo'liga kiritish degan so'z edi. U, bu o'rmonni sotib olsa, birdaniga o'n ming so'm foyda qilishiga imoni komil edi. Shuning uchun ham u kuzda borib ko'rgani va ikki botmon yerdagi daraxtlarni sanab chiqqani — o'rmonni xayolida xomcho't qilib baholay boshladi.

„Emanlar chananing qo'shqoraklariiga ketadi. Xodalar o'z-o'zidan ma'lumki, imoratga ishlataladi. Bundan tashqari, bir botmon yerdan bema'lol o'ttiz sarjin o'tin chiqadi, — dedi u o'ziga o'zi. — Har bir botmondan kam deganda ikki yuz yigirma besh so'm foyda qoladi. Ellik olti botmon, ellik olti joyda yuz so'mlik va yana ellik olti joyda yuz so'mlik, bunda qo'shamiz, ellik olti joyda o'n so'mlik va yana ellik olti joyda o'n so'mlikni, keyin ellik olti joyda besh so'mlik“. U hisoblab ko'rgan edi, o'n ikki ming so'mdan ortib ketdi, lekin cho't bo'lмагани uchun aniq qancha ekanini bilolmadı. „Har qalay, o'n ming so'm bermayman, daraxti yo'q, ochiq joylarni chiqarib tashlab sakkiz ming so'm beraman. Tanobchining tomonog'ini yog'layman, unga yuz so'm yo bo'lmasa yuz ellik so'm beraman, u menga besh botmon ochiq

joyni o'lchab beradi. Shunda sakkiz mingga ham ko'nib qoladi. Uch mingni shu zahoti qo'liga tutqizaman. O'ldimi, ko'ngli yumshab qolar, – deb o'yaldi u tirsagi bilan cho'ntagidagi hamyonini paypaslab ko'rarkan. – Burilishdan qanday qilib adashganimizga hech aqlim yetmay qoldi! O'rmon bilan qorovulkxonasi shu orada bo'lishi kerak edi. Laoqal itlar hursa-chi. U la'natilar ham kerak vaqtida hurishmaydi". U po'stinning yoqasini qayrib, atrofqa quloq sola boshladi, hamon o'sha shamohning hushtak chalishi-yu, shotidagi ro'molchaning partillashi va chananing oldidagi to'sqichiga qorming urilishi eshitillardi, xolos. U yana qulqolarini berkutib oldi.

„Bilganimizda yotib qolardik. Hay, mayli, baribir, ertaga yetib boramiz. Faqat bir kun bekor ketadi. Bunday havoda ular ham borishmaydi". Keyin u sotgan ho'kizlari uchun to'qqizinchida qassobdan pul olishi kerakligini eslab qoldi. „Uyga o'zi kelmoqchi edi, men uyda yo'q bo'laman – xotinim pulni olib qololmaydi. Juda uquv siz xotin-da. Durustroq muomala qilishni ham bilmaydi", – deb o'yplashda davom etdi u, kecha bayramda unikida mehnmon bo'lgan stanovoyga yaxshiroyq mulozamat qilma-ganini eslab. „Nima qilsa ham xotin-da! U nimani ko'ribdi? Ota-onam bor vaqtida uymiz qanaqa edi? Shunchaki qishloqning o'ziga to'q mujiklaridan hisoblanardik, xo-los: objuvoz bilan karvonsaroydan bo'lak hech qanaqa mol-mulkimiz yo'q edi. Xo'sh, o'n besh yil ichida men nimalar qildim? Bir do'kon, ikki qovoqxonasi, bir tegimon, bir g'alla ombori, ijara qo'yilgan ikkita qo'rg'on, tunuka tomli, tagi podvalli dang'illama uy qurdim, – deb eslatdi u mag'rurlib. – Oramming vaqtidagi uylar uymidi! Hozir okrugda dong'i ketgan kim? Brexunov.

Nima uchun shunday? Shuning uchunki, ishning ko'zini bilaman, boshqalarga o'xshab cho'zilib yotmayman,

nojo'ya ishlar qilmayman, tinim bilmayman. Kechalari uxlamayman. Qor, yomg'ir demay yuraveraman. Shunday qilib ish bitiram. Ular, shunchaki o'zidan o'zi pul ke-laveradi, deb o'yplashadi. Yo'q, birodar, sen zahmat chek, boshingni qotir, mana shunga o'xshab ochiq dalada tunab qol-da, tuni bilan mijja qoqmay chiq, maqsadingga yetma-guningcha tinchima, – deb o'yaldi mag'rurlanib. – Boy bo'lish baxtga qaraydi, deb o'yplashadi. Ana Mironovlar hozir millioner bo'lishdi. Xo'sh, sabab? Sababi mehnat qilsang, Xudo tani sog'lik bersa bas. Mironov arzimagan dastmoya bilan millionaire bo'lib ketdi, shu sababli men ham Mironovga o'xshab millionaire bo'lib ketishim mumkin, degan fikr Vasiliy Andreichni g'oyatda hayajonlantirib yubordi-yu, shu payt uning bir on kishi bilan juda gaplashgisi kelib ketdi. Biroq gaplashhadigan kishi yo'q edi... Goryachkinoga yetib borganda-ku, pomeshchik bilan gaplashib, rosa uni laqillatardi-ya.

„Uh, shamolning shashitini qara-ya! Bu ahvolda ertalab-gacha qoming tagida qolib ketmasak deyman!" – deb o'yaldi u, shamolning g'uvullashiga qulq solib; shamol chananing oldidagi to'sqichiga urilib, uni sal mayishiturar va qorlarни taxtaga olib kelib urardi. Vasiliy Andreich sal qo'zg'alib, yon-veriga qaradi, oq qorlar jumirlab uchayotsan qorong'ilikda faqat To'riqning boshi, hilpirab uchib turgan sholcha yopig'lik sag'risi va tugulgan qalin dumি qorayib ko'rinardi, boshqa hamma yoq bir xilda oq qorlar jumirlab turgan qorong'ilikdan iborat edi, bu jumirlab turgan qorong'ilik ba'zan sal-pal yorug'lashib, ba'zan esa, yanada battar qorong'ilashib ketayotganga o'xshardi.

„Men bekor Nikitaning gapiga kirdim, – deb o'yaldi u. – Ketaverish kerak edi, axir, bir yerdan chiqar edik. Loaqal Grishkinoga qaytsak ham mayli edi, Tarasnikida tunar edik. Mana endi tong otguncha o'tirib chiqish ke-

rak. Shundayam bema'ni ish bo'larmi? Xudo harakat qilganga beradi-da, dangasa, ishyoqmas, ahmoqlarga nima ham berardi. Bir papiro chekmasam bo'lmay qoldi!“ U o'tirib, cho'ntagidan papiro qutisini oldi, shamol olovni o'chirmasim uchun boshini po'stining bariga burkab, qormi bilan yotdi, lekin shamol yo'l topib, birin-ketin gurtni o'chiraverdi. Nihoyat, bir amallab gugurtmi yoqdi-da, papironi tutatib oldi. U o'ylagan ishini qilganidan juda xursand bo'lidi. Garchi papironi undan ko'ra shamol ko'proq tortib ketgan bo'lsa-da, har holda uch marta ichiga tutun yutib qolganidan yana dimog'i chog' bo'la boshladi. U yana chanaga yonboshlab, burkanib oldi, yana xayolga cho'mib, o'ylay ketdi-yu, bexosdan, sira kutilmaganda hushimi yo'qotib, uxlab qoldi.

To'satdan uni xuddi bir narsa qattiq turgandek bo'lidi-yu, uyg'otib yubordi. To'riq uning tagidan poxol tortib oldimi yoki o'zining ichidan bir narsa qattiq turrib yubor-dimi – ishqilib, u uyg'onib ketdi, yuragi dukullab qattiq va tez-tez ura boshlaganidan, nazarida ostidagi chana ham qimirlab ketayotgandek tuyuldi. U ko'zlarini ochdi. Atrofiga qaragan edi, boyagi ahvolni ko'rdi, faqat havo sal yorishgandek sezildi. „Tong yorishayotganga o'xshaydi, – deb o'yldi u, – hademay tong ham otib qolsa kerak“. Keyin shu zahoti aqli hushini yig'ib olib, oy chiqqani uchun havo sal yorishganini bildi. U o'midan qo'zg'alib, otga qaradi. Ot hamon shamolga orqasini o'girib, qaltilrab turardi. Usti qor bo'lib yotgan sholchanning bir yoq tomonini shamol qayirib tashlagan, quyush-qon biqiniga og'ib ketgan edi, otning qor bilan qoplangan boshi, hilpirab turgan peshona yoli va bo'yin yollari endi aniqroq ko'rindari. Vasilii Andreich engashib, chananing orqa tomoniga qaradi. Nikita hamon o'sha o'tirganicha holatini o'zgartirmay turardi. Ustiga yopib olgan ola-

chasin va oyoqlarini qalin qor bosib ketgan edi. „Tag'in sovuqda qotib qolmasin mujik, ust-boshi yupun edi. Yana uning uchun javobgar bo'lib o'tirmay. Ko'p bema'ni xalqda. G'irt nodon“, – deb o'yldi Vasilii Andreich va otning ustidan sholchani olib, uning ostiga yopib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, ammo sovuqda turishdan va qimirlashdan eri-nib, qolaversa otning qotib qolishidan qo'tqib, indamay yotaverdi. „Nega uni olib keldim? Hammasi xotinimming ahmoqchiligidan bo'lidi!“ – deb o'yldi Vasilii Andreich shumshuk xotinini eslab. Keyin yana avvalgi joyiga, chananing oldiga yonboshlab oldi. „Bir kun amakim ham xuddi shunga o'xshab tuni bilan qorda o'tirib chiqqan ekan, – deb esladi u, – hech nima qilmabdi. Ha, ayt-moqchi, Sebastyanni qor tagidan kovlab olishdi-ku, – shu onda uning ko'z oldiga boshqa bir voqeа kelib to'xtadi, – u o'lib, xuddi muzlagan go'shtdek qotib qolgan edi. „Grishkinoda yotib qolganimda-ku, hech gap yo'q edi-ya“. Shu xayollardan keyin u, hech yerimdan sovuq kirmasin, po'stin tanamning hamma yog'ini isitib tursin, deb bo'yinni, tizzalarini va oyoqlarini yaxshilab o'rab ol-gach, yana uxlanmoqchi bo'lib ko'zlarini yundi. Ammo endi uxlashga qancha harakat qilmasin, baribir, sira uysusi kelmadи, balki aksincha, o'zini tetik va bardam his qilaverdi. Yana u qiladigan foydalarini, odamlardagi qarzlarini hisoblay boshladи, tag'in o'ziga o'zi maqqanib, o'zidan va o'zining mavqeyidan behad xursand bo'la boshladi – biroq endi bu xursandchiligi nega Grishkinoda yotib qola qolmadim, degan yashirin qo'rquv va alamli fikr bilan doim bo'limib turdi. „Karavolda issiqliqina yotgan ming marta yaxshi emasmi?“ U bir necha marfa u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi, uncha shamil urmaydigan durustroq, qulayroq joyini axtarishga urinib, u yoq-bu yog'iga surinib ko'rди, ammo sira o'masholimadi,

u yana qo'zg'alib, holatini o'zgartirdi, oyooqlarini o'rabi, yuz-ko'zlarini berkiidi-da, jim yotdi. Lekin qattiq valenka ichida oyooqlarining panjalari bukilib og'riy boshlaganidanmi yoki biron joyidan shamol urganimi, har holda u ko'p yotolmay, attang, Grishkinoda qolganimda, hozir issiq uyda tinchgina yotgan bo'lardim, degan xayol bilan yana o'zidan xafa bo'lib, o'midan turdi, yana u yonbosidan bu yonboshiba ag'darildi, o'ranib olib, yana yotdi.

Bir vaqt Vasilii Andreichga uzoqda xo'rozlarning qichqigan ovozi eshitilgandek bo'ldi. U quvonib ketdi, yoqasimi qayirib, diqqat bilan qulq sola boshladi, biroq qancha qulog'ini ding qilmashin, baribir, shamolning shotiga urilib bushiak chalishi, ro'molchaning dardarak bo'lib hilpirashi va qorming chana to'sqichiga chirtillab urilishidan bo'lak ovoz eshitilmadi.

Nikita kechqurun qanday o'tirib olgan bo'lsa, hali ham qimirlamay xuddi shunday o'tirardi, hatto Vasilii Andreich uni ikki marta chaqirganda ham javob bermadi. „Uning parvoyi falak, uxlab qolganga o'xshaydi“, – deb o'yaldi Vasilii Andreich ensasi qotib va ustiga qalin qoryog'gan Nikitaga chananing orqasidan qarab.

Shunday qilib, Vasilii Andreich yigirma marta o'midan turib, yigirma marta yotdi. Nazarida bu tunning oxiri bo'lmaydigandek tuyuldi. „Endi tong otishiga oz qolgan bo'lsa kerak, – deb o'yaldi u bir vaqt o'midan turib va atrofiga qarab. – Qani, soatga bir qaray-chi. Po'stinni ochen sam sovqotaman-da. Mayli, tong otishga yaqin qolganini bilsam, ancha ko'ngil ko'tariladi. Otni chanaga qo'sha boshlaymiz“. Vasilii Andreich: ko'nglining chuqur joyida hali-veri tong otmasligini bilib tursa ham yuragiga tobora ko'proq g'ulg'ula tusha boshlaganidan, bu hisni yengmoq uchun u ayni bir vaqtida ham soatini ko'rmoqchi, ham o'zini aldamoqchi bo'ldi. U kalta po'stinning ilgagini asta

chiqarib va qo'llini qo'lting'iqa ticiq nimchasiga yetguncha ancha timirsiklandi. Oxiri yonidan gullari emaldan qilin-gan kumush soatini olib, unga qaray boshladi. Qorong'ida hech nimani ko'rib bo'lindi. U yana papiros chekanda qilganidek mukka tushib, tirsaklari va tizzalariga tayanib yotdi-da, gugurt olib yoqa boshladi. Bu safar u ishni puxta qildi, barmoqlari bilan boshi katta bir gurgurtmi tanlab oldi-da, bir chertishdayoq uni yondirdi. Soatning siferlatini yorug'ga tutib ko'rdi-yu, o'z ko'zlariga ishommay qoldi... Endi o'n ikkidan o'n minut o'tgan edi. Hali butun tun oldinda edi.

„Oh, bu kecha qanday uzun!“ – deb o'yaldi Vasilii Andreich, tanasiga muz yugurganini sezib, keyin yana po'stinning ilgaklarini solib, boshini burkab oldi-da, sabr bilan tong ottirmoqchi bo'lib, chamaning burchagiga yon-boshladi. Birdan uming qulog'iga bir xilda g'uvullayotgan shamol aralash qandaydir yangi, dahshatli ovoz eshitildi. Bu ovoz tobora avjiga chiqib, yana asta-sekin pasaya boshladi. Bu bo'riming ovozi ekanligiga hech qanday shubba qilmadi. Bo'ri shu yaqin orada uvullayotganidan, shamolda jaq'ini qimirlatib, ovozini o'zgartirayotgani aniq sezilib turardi. Vasilii Andreich yoqasini qayrib tashlab, diqqat bilan quoq sola boshladi. Ot ham quoqlarini ding qilib eshitib turardi, bo'riming ovozi o'chgach, u og'irligini boshqa oyog'iga solib, asta pishqirib qo'ydi. Shundan keyin Vasilii Andreich uxlash u yoqda tursin, butunlay tinchini yo'qotib qo'ydi. U o'zining maqsadlari, ishlari va shuhrati, mavqeyi, boyligi to'g'risida o'ylashga harakat qilgan sari uning ko'nglini tobora ko'proq vahima bosaverdi, pirovar-fikrlardan ustun kelib, hamma fikrlariga aralashib ketdi.

„O'rnoni ham qursin, usiz ham ishim joyida edi. Eh, attang, yotib qolsam bo'lar ekan-a! – dedi u o'ziga o'zi.“

Mastlar sovuqda qotib qoladi, deyishardi, – deb o'yladi u, – Araq ichgan edim-a“. Shundan keyin u jum bo'lib, sezgilariga qulq solib ko'rgan edi, qaltilrayotganini bilsdi, ammo nimadan qaltilrayotganini – sovuqdanmi yoki qo'rquvdanmi – o'zi ham bilmadi. U boshini burkab, avvalgidek yonboshlab yotmoqchi bo'lgan edi, biroq endi sira yotolmadi. Uning bir joyda yotgisi kelmay qoldi, u ichidan qo'zg'alib kelayotgan va unga qarshi turishga ojizlik qilayotgan vahimani bosish uchun o'midan turib biror chora topishni istardi. U yana cho'ntagidan papirosov bilan gugurt oldi, lekin faqat uch dona gugurt cho'pi qolgandi, xolos, ular ham eng ishdan chiqqanlari edi. Uchalovi ham pov etdi-yu, yonmay o'chib qoldi.

„E, rasvo, jin ursin sen la'natin!“ – deb so'kindi u, kimni so'kkanini o'zi ham bilmay, keyin mijg'ilangan papirosoni uloqtirib yubordi. U gugurt qujisini ham uloqtirmoqchi edi-yu, lekin qo'lini to'xtatib, uni cho'ntagiga solib qo'ydi. Uning bezovtaligi oshib, yuragi shu qadar hovliqa boshladiki, sira bir joyda o'tirgisi kelmay qoldi. U chanadan tushdi-da, shamolga orqasini o'gitib, qaytadan belini belbog'i bilan yaxshilab bog'lay boshladi. „Nima qilib yotibman, o'lismanni kutyapmanmi? Otga minib jo'nab qolish kerak, – birdan uning miyasiga ana shu fikr keldi. – Salt minganda ot to'xtamaydi, ketaveradi. U bo'lsa, – deb o'yladi u Nikitani, – baribir o'ladi. Uning yoti hayot bo'idimi! U o'lib ketsta ham bo'laveradi, men esa, Xudoga shukur, har qancha yashasan arziydi...“ Ana shu o'y-xayollardan keyin otni yechib, yuganini bo'yniga tashladi-da, otga sakrab mimmoqchi bo'lgan edi, ammo ikkita po'stini bilan oyog'idagi valenkasi og'irlik qilib otga minolmay sirlig'anib tushdi. Shundan so'ng u chanaga chiqib, chana ustidan mimmoqchi bo'ldi. Lekin og'irligidan chana tebranib ketib, u yana minolmadi. Niberishi kerakligini biladi. Nikita ham xuddi ana shunday

hoyat, uchinchi safar otni chananing oldiga olib keldi-da, chananing chetiga asta oyoqlarini qo'yib turib, otning usiiga qormi bilan yotib oldi. Shu yotishida oldinga bir-ikki intildi-da, axiyri bir oyog'ini quyushqonning uzuna tasmasiga tirab va bir oyog'ini otning ustidan oshirib minib oldi. Otga minayotgan vaqtida chana qimirlab, Nikitani uyg'otib yubordi, shunda u boshini sal ko'tarib qo'ydi, shu payt, Vasiliy Andreichning nazarida, ubir narsa degandek bo'ldi.

– Sen ahmoqlarning so'ziga kirib o'tiribmanni hali! Bundan chiqdi, bekordan bekorga o'lib ketishim kerak ekan-da? – deb qichqirdi Vasiliy Andreich va shamol uchirayotgan po'stinining barinini taqimiga bosib, otning boshini burdi-da, ko'nglida o'rmon bilan qorovulkxonasi shu orada bo'lishi kerak, deb o'ylagan tomoniga qarab ot solib ketdi.

## VII

Nikita chananing orqasida qordan chuqurcha yasab, ustiga olacha yopinib qimirlamay o'tirardi. U tabiat bilan birga yashovchi va muhtojlik nima ekanligini yaxshibiluvchi barcha kishilar kabi nihoyatda sabrli edi, shu sababli ham qiyin onlarni, hatto kunkurni betoqat bo'lmay, achchiqlanmay tinch, beparvo o'tkazishga odattanib qolgan edi. U xo'jayinining chaqirganini eshitdi-yu, lekin javob bermadi, chunki qimirlagisi va javob bergisi kelmadи. Boya choy ichib olganidan va qor kechib ko'p yurganidan garchi badani hali issiq bo'lsa-da, bu issiq ko'pga bormasligini va yana qor kechib isinib olishga qurbi yetmasligini bilardi, chunki u charchagan otdek juda holdan toygan edi: ot hadeb to'xtayveradi, egasi qamchi bilan savalashiga qaramay, hech yurmaydi, turib oladi, shunda egasi uni yana yurgizish uchun yem berishi kerakligini biladi. Nikita ham xuddi ana shunday

ahvolda edi. Uning yirtiq etikdagi bir oyog'i muzlab, boshmaldoq'i kesak bo'lib qolgan edi. Bundan tashqari, butun badani toborasovqotib, uvushib bormoqda edi. Uning xayoliga, balki, shu kecha o'lib qolarmen, degan fikr keldi, ammo bu fikr uncha yoqimsiz, uncha vahimmaли bo'lib tuyulmadi. Bu fikrning uncha yoqimsiz bo'lib tuyulmaganiga sabab shuki, uning butun hayoti rohat-farog'atda emas, aksincha, tinimsiz uqubatlari mehnatda o'tgan, bu mehnat uni nihoyatda ezib tashlagan edi. Bu fikrning uncha vahimali bo'lib tuyulmaganiga sabab esa shuki, u hamisha o'zini bu dunyoda xizmatini qilib yurgan Vasiliy Andreich singari xo'jayinlaridan tashqari, uni bu dunyoga yuborgan egasining ixtiyorida, deb his qilardi, shuning uchun ham, o'lganidan so'ng ana o'sha egasining ixtiyorida bo'lishini, egasi esa, uni xafa qilmasligini bilardi. „Ko'nikib qolgan eski hayotni tashlab ketging kelmaydimi? Xo'sh, iloj qancha, yangi hayotga ham ko'nkish kerak-da“.

„Gumohlarim-chi? – deb o'yldari u va araq ichganolari, araqqa sarf qilgan pullarini, xotinini xo'riganlarini, so'kishlarini, ibodat qilish uchun cherkovga bormasligimi, ro'za tutmasligini va umuman, ibodat vaqtida ruhoniyl qil degan ishlarini qilmaganini esladi. – Albatta, gunohlarim bor. Xo'sh, men nima qilay, ularni atayin yelkamga ortib olibmanni? Xudoning o'zi meni shunday gunohkor qilib yaratgan bo'lsa kerak-da. Ha, gunoh qilishga qildim! Endi qayoqqa qochib qutulardim?“

Uning boshiga, balki, shu kecha o'lib qolarmen, degan fikr kelganda, avval u ana shunday xayollarga bordi, keyin xayolidan bu fikri ko'tarib, beixtiyor o'z-o'zidan boshiga kelgan xotiralarga berilib ketdi. Dam u Marfa-ning kelganini, xizmatkorlarning ichkiliqbozlik qilishlarini, o'zining ichkiliq ichmashlikka qasam ichganini, dam

hozirgi safarga chiqqanlarini, Tarasnинг uyini, oiladan bo'limib chiqish haqidagi gaplarni, dam o'zining yigit bo'lib kelayotgan o'g'lini, dam ustiga sholcha yopilgan va hozir biroz issiq turgan otni, dam hadeb u yomboshidan bu yonboshiga ag'darilib, chanani g'ijirlatayotgan xo'jayimini esladi. „Yo'lga chiqqaniga, hoynahoy, o'z ham pushaymon bo'layotgandir, – deb o'yldi u. – Shunaqa badavlat turnush kechirgandan keyin, albatta, o'Igisi kelmaydi-da. Bizlardaga kun kechirsa, o'lishga ming marta rozi bo'lardi-ya“. Shundan keyin bu xotiralarning hammasi bir-biriga chuvalashib, boshida ayqash-uyqash bo'lib ketdi-yu, oxiri uxlab qoldi.

Vasiliy Andreich otga minayotib chanani qimirlatib yuborgan paytida, Nikita orqasi bilan suyanib o'tirgan chananing keti siljib, qo'shqorak uning orqasiga tekkan edi, shunda u uyg'onib ketib, chor-nochor holatini o'zgartirishga majbur bo'lgan edi. U arang yoqalarini to'g'rilab va ustidan qorlarini qoqib o'midan turganda, shu ondayoq butun a'zoyi badani sovuqdan qaqshab ketdi. Vasiliy Andreich otga minib ketib borayotganini ko'rib, u orqasidan sholchanli tashlab keting, hozir uning otga keragi yo'q, men ustimga yopinib olaman, deb qichqirib qoldi.

Ammo Vasiliy Andreich to'xtamay, qor to'zoni ichida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Nikita yolg'iz o'zi qolgach, endi nima qilsam ekan, deb bir daqqa o'yga toldi. Yurib biron boshhpana izlashga o'zini madorsiz sezdi. Avvalgi joyiga o'tiray desa, butunlay qor ko'mib tashlagan edi. Chanaga o'trsa, isimlasligini bilar-di, chunki yopinadigan narsa yo'q, chakmoni bilan po'stini esa hozir uni sira isitmas edi. Uning badan-badanidan sovuq o'tib ketdi, nazarida ko'ylakchan turganga o'xshardi. Uni vahima bosa boshladи. „E, Xudoyim, Parvardigori olam!“ – dedi u; shu payt ko'ngilda u yolg'iz emasdek,

kimdir uning ovozini eshitib turgandek, uni o'z panohida asraydigandek bo'lib tuyuldi-yu, ko'ngli orom topdi. U chuqur nafas oldi, so'ngra, boshidan olachani tashlamay, chanaga chiqdi-da, xo'jayinning o'mriga yotib oldi. Chanada ham u sira isiy olmadi. Avval butun tanasini qaltilroq bosdi, keyin qaltilroq bosilib asta-sekin hushini yo'qota boshladi. U o'layotganini ham, uxlayotganini ham bilolmay qoldi, lekin o'zini har ikkoviga ham birdek tayyor ekamini his qilar edi.

### VIII

Bu asnoda Vasilii Andreich negadir ko'nglida, o'rmon va qorovulkxona shu yoqda bo'lishi kerak, deb o'yla-gan tomoniga qarab, otni ham oyoqlari bilan niqtab, ham tizgining uchi bilan urib, jadal haydab bormoqda edi. Qor uning ko'zlarini ochirmsa, shamol esa go'yo uni to'xtatmoqchi bo'lgandek, ko'kragidan itarar, ammo u oldingga engashib, hadeb po'stimiga burkanar, sovuq egarda o'tirish o'ng'aysiz bo'layotgani uchun etagini tagiga bostirigan holda zo'r berib otni haydar edi. Ot garchi charchagan bo'lsa-da, egasiga bo'yusunib, u haydayotgan tomonga yo'rib borardi.

U oning boshimi-yu, oppoq qor bilan qoplangan sayhonlikdan boshqa hech narsani ko'rmay, otning qulog'i tagida va po'stminning yoqasi oldida shamolning hushtak chalishidan bo'lak hech narsani ko'tmay, o'zicha to'g'ri ketayotibman, deb besh minutcha yo'l bosidi.

Birdan uning oldida bir narsa qorayib ko'rindi. Sevin-ganidan yuragi gupullab ura boshladi, qora narsa ko'ziga qishloq uylarining devoriga o'xshab ko'rinish ketib, o'sha tomonga yo'l oldi. Ammo bu qora narsa tek turmas, nuqul qimirlardi, borib qarasa, u qishloq ham emas, devor ham

emas, balki uvatda o'sib qor tagidan chiqib turgan va guvullab essayotgan shamolning zo'ridan hadeb bir tomonga qarab egilayotgan burgan-supurgi o't ekan. Shamol berahmlik bilan qiyinayotgan ana shu burganni ko'rib Vasilii Andreich nima uchundir titrab ketdi va shosha-pisha u yerdan otni haydab qoldi. Shunda qo'rqqanidan otni butunlay boshqa yoqqa burib yuborganini sezmay, hamon o'sha qorovulkxona tomonga ketyapman, degan xayolda ketaverdi. Nazarida ot nuqul o'ng tomonga burilayotgandek bo'ldi, shuning uchun u hadeb uni chap tomonga buraverdi.

Yana uning oldida bir narsa qorayib ko'rindi-yu, u endi bu, albatta, qishloq bo'lishi kerak, deb xursandbo'lib ketdi, lekin bu yana burgan o'sgan uvat ekan. Shamolda qattiq egilib turgan quruq burganni ko'rib, Vasilii Andreich yanada battarroq qo'rrib ketdi. Bu boyta ko'rgani-daqa quruq bunganning o'zi bo'lsa ham mayli edi-ya, buning shundoq yonginasida ot tuyoqlarining izi ham bor edi. Vasilii Andreich otni to'xtatib, egilib qaray boshladi, bu otning izi ustini salgina qor bosgan edi. O'ylab qarasa, o'z otining izlari ekan. Ma'lum bo'lischicha, u, shu yaqin oraliqda aylanib yurgan ekan. „Bu ahvolda halok bo'laman!“ – deb o'yladi u va yuragidagi vahimani quvish uchun otni yanada jadaloq hayday boshladi. U oppoq qor bo'ralayotgan qorong'ilikka ko'z tikib borar ekan, unga go'yo bir yaltirab, so'ngra g'oyib bo'luchni nuqtalar ko'ringanday bo'lardi. Bir vaqt uning qulog'i ga itlarning yoki bo'rilarning uvlaganiga o'xshash ovoz eshitilgandek bo'ldi, ammo bu ovoz juda zaif va noaniq bo'lganidan, ovozni eshitiganini ham yoki unga shunday tuyulganini ham aniq bilolmay, otni to'xtatdi-da, diqqat bilan quloiq sola boshladi.

Birdan uning qulog'i ostida qandaydir vahimali, quloqni qomatga keltruvchi ovoz eshitildi-yu, ostidagi ot

qatlirab, titrab ketdi. Vasilii Andreich jonholatda otning bo‘yniga yopishib oldi, lekin otning bo‘yni ham titramoqda edi, shunda haligi ovoz yanada vahimaliroq eshitila boshladi. Vasilii Andreich bir daqiqqa nima hodisa yuz ber-ganini bilolmay dovdirab qoldi. Bo‘lgan hodisa shu ediki, To‘riq yo o‘ziga daldha berish uchun, yo birovni ko‘makka chaqirish uchun ovozi boricha kishnagandi, xolos. „Tuf-e, harom o‘lgur! Yuragimni yoray dediya! La’nati!“ – dedi Vasilii Andreich o‘ziga o‘zi. Ammo u bekorga qo‘rqqanini bilsa ham uni hadeb vahima bosaverdi.

„Es-hushni yig‘ib olish darkor, vazminroq bo‘lish kerak“, – dedi ichida u, ammo o‘zini ovuta olmadni, hozir shamolga qarshi yurmay, balki shamol esayotgan tomon- ga ketayotganini ham sezmay, hadeb otmi qistay boshhladi. Uning badani, ayniqsa, egarga tegib turgan joylari, ot qadmini sekinlatgan paytda sovqotar va zirqirab og‘irdi, qo‘l-oyoqlari qaltiltar, nafasi tomonog‘iga tiqilardi. U mana shu dahshatli qor sahrosida halok bo‘lishini bilib turar, lekin hech bir qutulish chorasini topolmasdi.

Qo‘qqisidan ot bir yerga gursullab yiqildi va qor yu- miga botib tipirchiladi-da, yonboshlab yotib qoldi. Vasilii Andreich, ot ustidan sirg‘alib tushib, quyushqon qayishi bigan egarni bir yoqqa qiyshaytirib yubordi. Chunki u uzangji o‘rnida oyog‘ini quyushqon qayishiga qo‘yib olgan edi. Vasilii Andreich ot ustidan tushishi bilanoq, ot o‘nglanib oldi-da, oldinga qarab intila boshhladi, bir marta sakradi, keyin ikkinchi marta sakrab o‘rnidan turdi, keyin yana kish-nab va ustidagi sholcha yopiq bilan quyushqonni osiltirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Vasilii Andreich qor ichida yakka o‘zi qoldi. U otning orqasidan yugummoqchi bo‘lgan edi, lekin qor juda qalin, ustidagi po‘stinlari nihoyatda og‘ir bo‘lganidan, tizza bo‘yi qordan oyog‘ini zo‘rg‘a ko‘tarib bosib, yigirma qadamcha yurishi bilanoq halloslab to‘xtab

qoldi. „O‘rmonim, ho‘kizlarim, ijara haqlarim, do‘konim, qovoqxonalarim, tunuka toqli dang‘illama uyim, saro-yim, metosxo‘r o‘g‘lim, – deb o‘yladi u, – nahotki ham-masi qolib ketadi? Bu qanday bema‘ni gap? Yo‘q, mumkin emas!“ – miyasiga birdan ana shu xayol keldi. Keyin nima uchundir shamoldan egilib turgan burган va ikki marta uning yoniga borib qolgani esiga tushdi, shu payt butun vujudini vahima bosdi-yu, u boshidan kechirayotgan ho-disalarning rostligiga ishonmay qoldi. „Bularni tushimda ko‘rayotganim yo‘qmikin? – deb o‘ylab u uyquisidan turmoqchi bo‘ldi, lekin bu uyqudan turadigan tush emas edi. Bu haqiqitadan o‘ngida ko‘rayotgan hodisa va yuz-ko‘zi-ga bo‘ralab urayotgan, ustiga yog‘ayotgan, qo‘lqopsizz o‘ng qo‘lini muzlatayotgan qor edi hamda bu, haqiqatan, o‘sha burgan singari yolg‘iz o‘zi qolib, endi muqarrar, bevaqt va bema‘ni o‘limimi kutib turgan sahro edi.

„Yo Bibi Maryam, yo avliyo Mikolay, o‘zingiz qo‘llab-quvvatlang“, – deb u kechagi ibodatni, zarbof to‘n kiygan siymoni, qoramitir ikonani va shu ikona uchun sot-gan shamlarini, bu shamlarni salgina yoqilgandan so‘ng o‘sha zahoti qaytarib olib kelishganda yashikka solib qo‘yganini xotirladi. Endi esa, u yana shu avliyo Miko-laydan najot so‘ray boshhladi, unga o‘la-o‘lguncha ibodat qilib, sham atamoqchi bo‘ldi. Ammo shu ondayoq aniq-ravshan tushundiki, bu siymo, zarbof to‘n, sham, ruhoni, ibodat – bularning hammasi o‘z joyida – cherkovda zarur edi, ammo bu yerda unga bular hech qanday najot bermas, bu sham va ibodatlar bilan uning hozirgi mushkul ahvo-li orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bo‘lishi mumkin ham emas edi. „Umidsizlanmaslik kerak, – deb o‘yladi u. – Otning izidan borish lozim, bo‘lmasa uni ham qor ko‘mib ketadi, – degan fikr keldi boshiga. – Izdan ketaversam, bir yoqqa chiqqaman yoki otning o‘zimi ushlab olaman. Faqat

hovliqmaslik kerak, bo'Imasa, nafasim tomog'imga tiqilib, halokatga uchrayman". Ammo sekin yuraman, degan niyatiga qaramay, u hovliqib, oldinga qarab chopa boshladi va har qadamda yiqilib turaverdi. Qor uncha qalin bo'Imagan yerlarda endi oting izini payqash juda qiyin bo'lib qolgan edi. „Halok bo'ldim, – deb o'yaldi Vasilii Andreich, – izni yo'qotaman, otga yetolmayman“. Shu payt bexosdan oldiga qaragan edi, bir qora narsa ko'ringandek bo'ldi. Bu To'riq edi, faqat To'riqning bir o'ziga emas, balki chana va shotiga bog'langan ro'molcha ham ko'rimardi. To'riq hozir ilgarigi joyida emas, balki shotiga yaqin joyda ushtidagi sholcha bilan quyushqoni yonboshinga osilgan holda boshmini silkitib turardi, jilovning tizgini oyog'i ostida qolgani uchun boshmini ko'tarolmasdi. Ma'lum bo'lishicha, ot Vasilii Andreichni chana turgan joyga olib kelayotganda, Nikita toyilib ketgan pastlikdagi qorga botib qolgan ekan, shu sababli u chana turgan joydan elliq qadamcha narida ot ustidan sakrab tushgan ekan.

## IX

Vasilii Andreich chananing oldiga arang sudralib kelgach, uni mahkam ushlaganicha, o'zini bosib olish va nafasini rostlashga harakat qilib, ancha vaqgacha qimirlamay turib qoldi. Nikita avvalgi joyida yo'q, lekin chana ustini qor bosgan bir narsa do'ppayib yotar edi, shunday dan Vasilii Andreich uning Nikita ekanimi payqadi. Endi Vasilii Andreichning ko'ngli joyiga tushgandek bo'ldi, uning ot ustida tentirab yurgan vaqtidagi va, ayniqsa, qoraga tiqilib yolg'iz o'zi qolganidagi qo'rquv va vahimalar barham topdi. Endi nima bo'lsa ham yana o'shanday vahimaga tushmaslik uchun biron narsa bilan shug'ullanish kerak edi. Shu sababdan u birinchil galda orqasini shamolga

o'girib, po'stini ustidan bog'lagan belbog'ini yechdi. Keyin biroz nafasini rostlab olgach, valenkalari ichidan qorni, chap qo'lqopi ichidagi qorni qoqib tashladi, o'ng qo'lqopi esa yo'qolgan va u qayerdadir ikki qarich qor ostida yotar edi, so'ngra yana belini mahkam bog'lab, biron ish qilishga tayyorlana boshladi, u, odatda, mujiklar aravada g'alla olib kelishganda uni sotib olish uchun o'z do'konidan chiqayotib belni ana shunday qattiq bog'lab ishga kirishar edi. Dastavjal u otning oyog'ini bo'shatmoqchi bo'ldi. Oting oyog'ini ko'tarib, tizginni oldi-da, yana To'riqni eski joyiga, chananing oldiddagi temir halqaga bog'ladi va quyusuh-qon, egar, sholchani to'g'rilab qo'yish uchun otning orqasiga o'tdi, shu payt chanada bir narsa qimirlaganini ko'rди, chana ustiga yog'gan qor tagidan Nikita boshini ko'tardи. Chamasi, uning tanasi muzlay boshlagan edi, u zo'rg'a o'midan turib o'tirdi va xuddi qo'li bilan burni oldidagi pashshani qo'rigandek, g'alati harakat qildi. U qo'llini qimirlatib, bir nimalar dedi, Vasilii Andreichning nazarida, uni chaqirayotgandek bo'ldi. Vasilii Andreich sholchani tuzatishni qo'yib, chananing oldiga keldi.

– Nima bo'ldi senga? – deb so'radi u. – Nima deyapsan? – O'laman, gapim shu, – dedi Nikita arang, gapini bo'lib-bo'lib. – Ishlagan haqimni o'g'limga yoki xotinim-ga ber, baribir...

– Nima bo'ldi, muzlab qolyapsammi? – deb so'radi Vasilii Andreich.

– Sezyapman, o'laman... Iso hurmati, meni kechir... – dedi Nikita yig'lamsiragan ohangda, hamon pashsha qo'ri-yotgandek harakat qilib.

Vasilii Andreich bir nafas qimirlamay jim turib qoldi, keyin soydali saydo vaqtida bor baraka top, deb qo'lga urgani singari abjirlik bilan bir qaddam orqaga tashladi-da, yenglarini shimarib ikki qo'li bilan Nikitaming ustidagi va

chanadagi qorlarni sidirib tashlay boshladı. Qorlarni sidi-  
rib bo'lgach, Vasilij Andreich tezda belbog'larini yechdi,  
po'stining barini yozib, qizib ketgan issiq tanasi bilan  
Nikitaming ustiga yotди. Vasilij Andreich Nikitaning yon-  
verini etaklari bilan o'rabi va po'stining barini tizzalari  
bilan bosib, boshini chananing to'sqichiga qo'ygan holda  
mukka tushib yotgan, shu tariqa qattiq burkanib olgani-  
dan otning harakatini ham, bo'ronning hushtak chalishini  
ham eshitmay, faqat Nikitaning nafas olishiga qulop solib  
yotaverdi. Nikita boshda anchagacha qimirlamadi, keyin  
qattiq ihrab, qimirlay boshladı.

— Ana shunday, ha, barakkalla, sen bo'lsang o'laman  
deysan-a. Yotaver, isin, biz ana shunday... — degan bo'ldi  
Vasilij Andreich.

Biroq keyin gapira olmay qoldi, bunga o'zi ham hay-  
ron bo'ldi, chunki ko'zi jiqlqa yosha to'lib, pastki jag'i  
qalt-qalt titray boshladı. U gapirmay, faqat to'mog'iga  
tiquilib kelayotgan narsani yutish bilan ovora bo'ldi. „Qat-  
tiq qo'rqqanga o'xshayman, juda bo'shashib ketyap-  
man“, — deb o'yaldi u o'zicha. Ammo bu bo'shashish uni  
sira ranjitmadi, balki unga qandaydir ajoyib, shu damga-  
cha boshidan kechirmagan alohida huzur bag'ishlagan-  
dek bo'ldi.

„Biz ana shunday“ — dedi u o'ziga o'zi, juda rohat  
qilayotganini sezib. Ko'zyoshlarini po'stining artib va ha-  
deb shamol qayirib tashlayotgan o'ng barini tizzasi ostiga  
bosib, shu tariqa ancha vaqtgacha indamay yotdi.

Ammo ko'nglining nihoyatda xursandligini kimgadir  
juda-juda aytgisi kelaverdi.

— Nikital — dedi u.

— Yaxshi, issiq, — degan ovoz eshitildi uning tagidan.

— Bilsang agar, birodar, sal bo'lmasa halok bo'lardim.  
Sen ham sovuqda qotib qolarding, men ham.

Shu payt yana uning iyagi qaltirab, ko'ziga yosh to'ldi,  
keyin gapirolmay qoldi.

„Ha, mayli, hechqisi yo'q, — deb o'yladi u. — Har ni-  
maniki bilsam o'z ichimda bilaman-ku“.

Shundan so'ng u jum bo'lib qoldi. Ancha vaqtgacha shu  
zaylda yotdi.

Uni ostidan Nikita, ustidan po'stini isitib turardi, faqat  
Nikitaning ikki yonini berkitib, po'stining barini ushlab  
turgan qo'llari bilan oyoqlarisovqotardi, chunki shamol  
timmay oyoqlari ustidan po'stinning etaklarini qayirib tash-  
lardı. Ayniqsa, qo'lqopi yo'q o'ng qo'li qatitiq sovqotgan  
edi. Ammo u qo'llarini ham, oyoqlarini ham esiga keltir-  
mas, faqat qanday qilib tagida yotgan mujikni isitishni  
o'yldardi, xolos.

U bir necha marta otga qarab qo'ysi, otning orqasi  
ochilib qolgan, sholcha bilan quyushqon qor ustida yotar  
edi, u turib, otning ustini yopib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, le-  
kin bir nafas ham Nikitani tashlab ketgisi va hozirgi huzuri-  
ni buzgisi kelmadi. Endi uning xayolidan qo'rquv degan  
narsa butunlay ko'tarilib ketdi.

„Xudo xohlasa, seni o'ldirmayman“, — dedi u o'ziga  
o'zi, mujikni isitayotgani uchun maqtanib; u o'zining  
savdo-sotiqlari haqida gapirganda ana shunday maqtan-  
choqlik qilar edi.

Shu taripa Vasilij Andreich bir soat, ikki soat, uch soat  
yotdi, vaqtning qanday o'tganini sezmadı. Avval uning xa-  
yolida qor bo'roni, shoti va do'g'a ostida boshini silkilib  
borayotgan ot aylanib yurdi, keyin xayoli, ostida yotgan  
Nikitada to'xtadi, keyin bayram, xotini, stanovoy, sham  
yashigi haqidagi xotiralar aralashib, yana xayoli Nikitada  
to'xtadi; go'yo Nikita shu sham yashigi ostida yotgannish;  
so'ngra xayolidan narsa sotayotgan va olayotgan mujiklar,  
oq devorlar, tunuka tomlı uy va uning ostida yotgan Nikita

Jalon adabiyoti tursamidan

o'tdi; keyin bularning hammasi aralashib, biri ikkinchisiga qo'shilib ketdi, kamalakning har xil ranglari qo'shilib, bir oq nur hosil qilgani kabi xayollari qorishib ketdi-yu, u uxlab qoldi. Ancha vaqtgacha tush ko'rmadi, lekin ertalabga yaqin yana tush ko'rди. U sham yashigi oldida turgamish, Tixonning xotini undan hayitga besh tiyinlik sham so'rarmish, u yashikdan unga sham olib bermoqchi bo'lsa, qo'li qimirlamasmiш, cho'ntagida qotib qolganmish. U yashikni aylanib o'tmoqchi bo'lgan ekan, oyogqlari qimirlamasmiш, oyog 'idagi yap-yangi kalishi toshga yopishib qolganmish, uni yerdan uzib ham ololmasmiш, ichidan oyog 'ini tortib ham chiqarolmasmiш. Birdan sham yashigiko 'rpa-to'shak bo'lib qolganmish, Vasilii Andreich shu yashik ustida, ya'ni shu o'rinda, uyida muk tushib yotganmish. U o'midan turaman desa sira turolmasmiш, amno, albatta, turishi kerak emish, chunki hozir uning oldiga stanovoy Ivan Matveich kelarmish-da, u Ivan Matveich bilan yo'rm'on sotib olishga, yoki To'nqning quyushqonini to'g'rilashga boramish. Shunda u xotinidan so'rarmish: „Xo'sh, Mikolavna, u kelmadimi?“ – „yo'q, – dermish xotini, – kelmad!“. Shu payt qulog'iga kimdir zinaning oldiga kelayotgandek bo'lib eshitilibdi. O'sha bo'lsa kerak. Yo'q, boshqa ekan. „Mikolavna, hoy Mikolavna, qalay, hali ham daragi yo'qmisi?“ – „Yo'q“. U o'rniда yotganmish: hamon turolmasmiш, ko'zi to'rt bo'lib kutarmish, bu kutish ham vahimali, ham quvonchli emish. Birdan o'sha kutgan odamni kelibdi-yu, xursand bo'lib ketibdi, bu stanovoy Ivan Matveich emas, boshqa birov, lekin o'sha kutganining xuddi o'zginasi emish. U kelib, uni chaqiribdi, shunda o'sha, uni chaqirgan birov Nikitaning ustiga yotishni buyuribdi. Vasilii Andreich birov uni olib ketgani kelganiga juda xursand bo'libdi. „Ketyapman!“ – deb qichqiribdi u xursand bo'lib, shunda o'z ovozidan uyg'onib ketadi. U uyg'ona-

di-yu, amno uxlagan vaqtidagidan butunlay boshqacha bo'lib uyg'onadi. U turmoqchi bo'ladi, amno turolmaydi, qo'lini qimirlatmoqchi bo'ladi, – qimirlatolmaydi, oyog 'ini qimirlatmoqchi bo'ladi – uni ham qimirlatolmaydi. Boshi ni ko'tarmoqchi bo'ladi – ko'tarolmaydi. Shundan so'ng hayron bo'ladi, amno bunga sira xafa bo'lmaydi. Bu ning o'llim ekanimi tushuradi, amno bunga ham sira xafa bo'lmaydi. Keyin tagida Nikita yotgani, uning isimib olgani va tirk ekani esiga tushadi-yu, xayolida u – Nikita, Nikita esa u bo'lib qoldi, shu sababdan uning joni o'zinig ichida emas, balki Nikitaning ichida bo'lib sezildi. U diqqat bilan qulq solib, Nikitaning nafas olayotganini va, hatto sal xurrak otayotganini eshitadi. „Nikita tirk ekan, demak, men ham tirkman“, – deydi u ichida xursand bo'lib.

Keyin xayoli pul, do'kon, savdo-sotiq va Mironovlar-ning millionlariга chalg'iysi, nima uchun bu Vasilii Brexunov degan odam bo'lmag'ur ishlar bilan shug'ul-lanib yurganiga u sira tushunolmaydi. „Nima qilsin, axir, u nima gap ekanimi bilmasi-da, – deb o'laydi u Vasilii Brexunov haqida. – Bilmas edim, mana endi bilaman. Endi xato qilmayman. Endi bilaman“. Shu payt u yana o'sha uni chaqirgan kishining ovozini eshitadi. „Ketyapman, ketyapman!“ – deydi uning butun vujudi quvonib va iyib. So'ngra u butunlay yengil tortib qolganini va endi uni hech narsa tutib turmaganini his qiladi. Shundan keyin Vasilii Andreich bu dunyoda hech nimani ko'rmay, eshitmay va sezmay qoldi.

Atrofda hamon boyagiday qor bo'ralab turardi. Hamon o'sha qor uyurmasi chirpirak bo'lib aylanar va o'lib qolgan Vasilii Andreichning po'stimini, butun tanasi qaltirab turgan To'riqni, ko'rimmay ketishga sal qolgan chanani hamda chana ichida, xo'jayinining o'lik tanasi ostida isimib yotgan Nikitani ko'mib borardi.

## X

Ertalabga yaqin Nikita uyg' onib ketdi. Uni yana orqasi dan urayotgan sovuq uyg' otib yubordi. U tush ko'rayotgan kelayotgan emish, soyning ko'prigidan o'tib borayotgan ekan, birdan arava tiqilib qolibdi. Keyin u aravanning tagiga kirib, orqasi bilan ko'taribdi. Yo ajabol! Arava qimir etmay orqasiga yopishib qolgammish, u na aravani ko'tara olarmish, na uning tagidan chiqib keta olarmish. Arava butun belini ezib tashlabdi. Yana buning ustiga badanidan sovuq o'tib ketibdi! Qanday bo'lmasin aravanning tagidan chiqishi kerak emish. „Bo'ldi endi, – dermish u o'sha uni arava bo'lib bosib yotgan kishiga. – Qoplamni tushir!“ Ammo arava tobora sovib, uni battarroq bosaveribdi, shu payt birdan taq-taq qilgan g'alati ovoz eshitiladi-yu, u uyg' onib ketadi. Uyg' ongach, butun voqeani eslaydi. Sovuq arava bu uning ustida o'lib muzlab yotgan xo'jayini ekan. Taqilatgan – bu To'riq bo'lib, chanani tuyog'i bilan ikki marta urib qo'ygan edi.

Nikita bo'lgan ishni ko'nglida sezib, belini rostlaydi-da:

– Andreich, Andreich! – deb asta chaqiradi xo'jayimini. Andreich javob bermaydi, uning qorni va oyoqlari qotib qolgan, sovuq va toshday og'ir.

„O'l ganga o'xshaydi. Xudo rahmat qilsin!“ – deb o'xlaydi Nikita.

U boshini o'giradi, qo'lli bilan oldiddagi qorlarni kovlab, ko'zini ochadi. Tong otibdi, shamol hali ham shotiga urilib hushtak chalar, qor hali ham bo'ralab turar, faqat endi chananing to'sqichiga chirtillab urilmay, ovoz chiqarmay chanani va otni tobora ko'mib borardi, otning qimirlashi ham, nafas olishi ham sezilmasdi. „U ham muzlab qol-

ganga o'xshaydi“, – deb o'xlaydi Nikita. Chindan ham To'riq tuyog'i bilan chanani ikki marta urib, Nikitani uyg' otib yuborganda, tanasi tamom muzlab, jon talvasa-sida shunday qilgan edi.

„E, Yaratgan egam, meni ham chaqirayotganga o'xshaysan, – deydi Nikita ichida, – Ixtiyor o'zingda. Faqat negadir qo'rqinchli. Ha, qo'rjishning nima keragi bor, bir boshga bir o'lim-da, baribir, qochib qutulolmaysan. Faqat tezroq bo'lsa edi...“ Shundan keyin u yana qo'lini berkitadi, ko'zlarini yu-madi va endi, albatta, o'laman, degan xayol bilan hushidan ketadi.

Ertasiga tush paytida mujiklar Vasilii Andreich bilan Nikitani yo'ldan o'ttiz sarjincha va qishloqdan yaram chaqirimcha narida qor ostidan belkuraklar bilan kovlab olishdi.

Qor chanani butunlay ko'mib ketgandi, ammo shoti bilan unga bog'lab qo'yilgan ro'molcha ko'rini turardi. Qormigacha qorqa botib turgan To'riqning ustidan sholcha va quyushqoni tushib ketgan, o'lik boshini kekirdagi qisgan holda oppoq bo'lib qotib qolgandi, uning burun kataklaridan sumalak osilib turardi, kipriklarini qirov bosib, ko'zlarida yosh qotib qolgandi. Bir kechada u shunday oriqlab ketgandiki, terisi suyagiga yopishib qolgan edi. Vasilii Andreich xuddi oyoqlarini kerib yotgan holicha muzlagan go'shtday qotib qolgandi, uni Nikitaning ustidan ag'darib tushirishdi. Qirg'iyinki singari chaqchaygan ko'zları muzlab, qirilgan. Mo'ylovulari ostida ochilib qolgan og'ziga qor to'lib qolgandi. Nikita tirik, ammo butun tanasini sovuq urib ketgan edi. Nikitani uyg' otishganda u o'zini o'lganman, deb bilib, hozir bo'layotgan ishlar bu dunyoda emas, u dunyoda bo'lyapti, deb o'yladi. Ammo uni kovlab olayotgan va ustida muzlab qolgan Vasilii Andreichni ag'darib tashlayotgan

mujiklarning qichqirgan ovozini eshitganda u, avvaliga, u dunyoda ham mujiklar xuddi shunaqa qichqirishar ekan-da, tanalari shunaqa bo'lar ekan-da, deb hayron bo'ldi, keyin hali o'Imaganini, bu dunyoda ekanini tushunib, xursand bo'lish o'rniiga ko'proq xafa bo'ldi, ayniqsa, ikki oyog'ining barmoqlarini sovuq urganini sezib, juda haf-salasi pir bo'lib ketdi.

Nikita ikki oy kasalxonada yotdi. Uning uchta bar-mog'ini kesib tashlashdi, qolganlari tuzilib ketdi, demak, yana ishlashi mumkin edi, shunday qilib, u yana yigirma yil yashadi. Avvaliga har kimlarning xizmatini qilib yur-di. Keyin, qarigach esa, qorovullik qildi. U bu yil o'z uida, ko'nglidagi tilagiga yetib, aziz avliyolar surati ostida qo'lliga yoqilgan sham tutgan holda olamdan o'tdi. O'lishi oldidan kampiridan kechirim, rozi-rizolik so'radi, uning bochkasoz bilan qilgan gunohlarini kechirdi, shuningdek, o'g'li hamda nabiralari bilan ham rozi-rizolik tilashdi, o'lganidan keyin o'g'li bilan kelinimi ortiqcha nonxo'r dan qutqarajagiga va juda joniga tekkan bu hayotdan endi yil sayin, soat sayin uni o'ziga jalg etayotgan, topora ketishiga aqli yetib borayotgan boshqqa hayotga rostakamiga borayotganiga chin ko'nglidan xursand bo'lib, bir umrga ko'zini yundi. U yoqda uning ahvoli qalay, yaxshimi-yomonni, rostakamiga o'lganidan keyin u qayerda yurib-di, uyg'ondimi? U yoqda ham hafsalasi pir bo'ldimi yoki istagan, orzu qilgan narsasini topdimi? – buni hammamiz tez kunda bilib qolamiz.

1895

## BALDAN SO'NG

– Siz, kishi o'zi yaxshi-yomoni ajrata olmaydi, hamma gap muhitda, kishini muhit xarob qiladi, deysiz. Men esam, hamma gap tasodifda, deb o'ylayman. Mana men o'zim haqimda gapirsam...

Hamma izzat-hurmat qiladigan Ivan Vasilyevich bilan ikkimmizning oramizda kishining kamolga yetishi uchun eng avval odamlar yashaydigan muhitni o'zgar-tirish kerakligi to 'g'risida bo'lib o'tgan subbatdan so'ng u kishi haligidek gap boshhladi. Yaxshi-yomonni odamning o'zi ajratolmaydi, deb hech kim aytgani ham yo'q, ammo Ivan Vasilyevichda gap vaqtida esiga kelib qolgan o'z fikrlariga o'zi javob berish va shu fikrlar munosabati bilan o'z sarguzashtlaridan gapirib berish kabi odat bor edi. Aksari hikoya aytishga shunday berilib ketardiki, jon-dilidan chiqarib rost so'zlashga qiziqib ketib, nima munosabat bilan gap boshlaganini ham butunlay unutib qo'yardi.

Hozir ham u ana shu odatni qildi.

– Mening o'zinga kelsangiz... butun hayotim muhitdan emas, balki butunlay boshqa bir narsadan shu tarzda bo'lib ketdi.

– Niما sababdan shunday bo'ldi? – deb so'radik.

– Buning voqeasi uzoq. Buni tushuntirmoq uchun gapirib berishga to 'g'ri keladi.

– Juda soz, gapirib bering...

Ivan Vasilyevich o'ya tolib, boshini irg'adi.

- Shunday, - deb qo'ysi u. - Bir kecha yoki to'g'riq'i, bir erta butun hayotimni o'zgartirib yubordi.
- Xo'sh, nima voqeal bo'lgan edi?
- Shunday bo'lgan ediki, men oshiq-u beqaror bo'lib qolgan edi. Men juda ko'p marta oshiq bo'lgamman, amma bu safargisi qattiq edi. O'tgan gaplar. Uning hozir erga tekkan qizlari bor. Bu B... ha, B... Varenka edi, - Ivan Vasilyevich uning familyasini ham aytди. - U ellik yoshida g'oyaitsda suluv edi: qaddi-qomati kelishgan, la-toftali, savlatli edi. Boshini salgina orqasiga tashlabroq, go'yo boshqacha yura olmaydigandek doimo g'oz yurardi. O'zi xipcha, hatto suyaklari tutrib chiqqan bo'lishiga qaramay, go'zalligi va qaddi-qomati kelishganligidan, bu yurishi o'ziga allaqaqday bir savlat baxsh etar edi. Agar hamisha tabassum qilib kulib turgan og'zi va porlab tur-gan ajoyib shahlo ko'zlar, butun yosh vujudidagi dilbarlik bo'limasa, savlati kishini cho'chitar edi ham.

- Ivan Vasilyevichning maqtashiga qoyil-e!

- Qanchalik ta'rifini qilsam ham baribir uni siz tushu-nadiganday qilib ta'riflab berishming iloji yo'q. Ammo gap bunda emas: mening aytadigan voqeam qirqinchi yillarda bo'lib o'tgan. U vaqtarda men o'z provinsiyamiz-dagi universitetda o'qir edi. Yaxshimi-yomommi, har holda, universitetimizda o'sha vaqtida hech qanday to'garak va hech qanday nazariya degan gaplar yo'q edi, bizlar yosh edik, yoshlarga xos yashardik, o'qish va o'yin-kulgidan boshqani bilmasdik. Men juda quvnoq va sho'x bola edim, buning ustiga, davlatim ham bor edi. O'yo-niq yo'rg'a otim bor edi, qizlar bilan minishib tepalikdan pastga chopishar edik (u mahalda konki rasm bo'lmagan edi), o'rtoqlarim bilan kayf-saflo qilar edik. (U vaqtarda shampanskiydan boshqasini ichmas edik, pulimiz bo'lmam-

sa hech narsa ichmas edi, endigidek araq ichmasdik.) Mening eng yaxshi ko'rgan narsam bazm-u ziyofat edi. Yaxshi tansa tushardim, xunuk ham emas edim.

Hamsuhbat xotinlardan biri uning gapini bo'lib:

- O'zingizni shunchalklik kamisitmasangiz ham bo'adi. Biz sizning eski sermaqsh suratingizni ko'rganniz. Xunuk emas, aksinchal, chiroyli edingiz.

- Chiroylikka chiroyli edim-a, lekin gap bunda emas. Gap shundaki, unga oshiq-u beqaror bo'lib yurgan chog'larimda, maslenitsa bayramining oxirgi kunida, guberniyamizning oqsoqoli ochiqko'ngil, mehmondo'st, keksayib qolgan, badavlat bir kamergerning uyida ziyo-fatda bo'ldim. Mehmonlami kutib olgan xotini ham eriga o'xshab ochiqko'ngil edi. Xotini jiggarrang baxmal ko'ylak kiyib, boshini inju qadalgan jiyak bilan tang'ib olgan. Yelka va ko'kraklari yoshlarnikiga o'xshamasada, Yelizaveta Petrovnaning surati singari oshiq, oppoq momiqday edi. Bazm juda joyida bo'idi: hashamatli zal, o'sha zamondagi havaskor pomeshchikning mashhur musiqachi va ashulachilari kelgan, dasturxon yasatilgan, shampanskiy daryo bo'lib oqmoqda. Jon-dilim shampanskiy bo'lsa-da, lekin ichmadim, chunki may ichmasam ham ishq o'tida mast edim, lekin bearmon tansa tushdim, kadrliga ham, valsiga ham, polkaga ham tushdim, albatta, mumkin qadar Varenka bilan tushishga harakat qildim. U oq ko'ylak kiygan, belida pushti kamar, qo'lida nozik va ingichka tirsaklariga yetar-yetmas oq charm qo'lqop, oyog'ida esa oq atlasdan boshmoq bor edi. Mazurka o'yini boshlanganda badbaxt injener Anisimov uni taklif etib, mendan olib ketdi. Haliga dovur buning alami mendan sira chiqmaydi. Men qo'lqop olay deb sartaroshxonaga kirib, andak kechikib qolibman. Shunday qilib, mazurkaga u bilan tushmasdan, avval biroz yaxshi ko'rib yurghanim bir nemka bilan tushdim. Ammo

bu kecha unga kamroq iltifot qildimmi, deb qo'rgaman, u bilan gaplashmadim, unga qaramadim: ko'zimga faqat oq ko'yakli, qomati kelishgan, baland bo'yli, yuzlari kuldigichli va qip-qizargan, hundor, ko'zlar yozimli qiz ko'rindi, xolos. Bir mengina emas, hamma unga qaratdi. Ko'rganing havasi kelar, nihoyatda go'zaligi uchun er-kag-u xotin – hamma baravar unga tikilar edi. Havasing kelmasdan iloji ham yo'q edi.

Xullas, mazurkaga u bilan tushmadim, ammo haqiqatda esa boshqa o'yinlarning hammasiga u bilan tushdim. U ham uyalib-netib turmasdan, zaldan o'tib to'g'ri mening oldim-ga kelardi, men ham uning taklif qilishini kutib o'tirmay, sakrab o'mridan turardim, shunda u hushyorlik qilganim uchun kulimsirab tashakkur izhor qillard. Bizlarni bir-birimizga taqdim qilganlarida u mening ko'nglimdagini bila olmay, qo'llimi menga emas, boshqaga uzatib, nafis yelkalarini qisar va achinganini hamda menga tasalli bermoqchi ekanimi izhor qilmoqchi bo'lib jilmayib qo'yardi. Mazurkaga tushib aylanganimizda men uni anchagacha pirillatib aylantirib ketsam, u nafasini rostlayolmay harsillab qolardida, jilmayib, menga „*epsoge*“<sup>1</sup>, derdi. Men esam borgan sari chirpirak bo'lib o'z tanamni ham sezmay qolardin. Mehmonlardan biri:

– Juda ham sezmay qolmagandirsiz, o'z belingizningina emas, balki uning belini ham quchganiningizda xo'p yaxshi sezgan chiqarsiz, deb o'layman, – deb so'z qotib qo'ydi. Ivan Vasilyevich birdaniga qizarib ketib, zarda bilan aytdi: – Sizlar, endigi yoshlар shunday qilasizlar. Bizning zamona mizda badandan boshqasini bilmaysizlar. Shaydo bo'lган sarim, men uning tanasini kamroq o'laydigan bo'lib qoldim. Sizlar oyoqlarmi, to'piqlarni va yana allaqayerlarningina bilasiz, siz yaxshii

ko'rib qolgan xotiningizni yechintirasiz, mening uchun esa *Alphonse Karr'* aytgandek, – ko'p yaxshi yozuvchi edida, – mahbubamning egnida doim bronza rangda tikilgan kiyimlar bo'lardi. Bizlar yechintirish u yoqda tursin, balki Nuhning nomusli o'g'lidek avratini bekitishga harakat qilar edik. Gapirib ham nima qildim, baribir tushunmaysizlar... Ichimizdan kimdir:

– Uning gapiga quoq solmang. Xo'sh, so'ngra nima bo'lidi? – dedi.

– Shunday qilib, ko'proq u bilan tansa tushib vaqtning o'tganini ham bilmasdum. Musiqachilar charchaganlikdan, bilsangiz, bazm oxirida bo'ladi gandek, zo'r berib mazurka kuyiga chalmoqdalar. Mehmomonxonada karta o'ynab o'tirgan keksalar ham kechki ovqatni tanovul qilishga chiqdilar, xizmatkorlar ham u-bu tashib yugurib-yelib qoldilar. Soat ikkidan oshgan: g'animat damlar dan foydalaniib qolmoq kerak. Men uni yana topib oldim, nazarimda zalmi yuz marta aylanib chiqdik-da. Uni joyiga oborib o'tqazib qo'yarkamman:

– Ovqatdan so'ng kadirliga tushamiz-a? – dedim.

– Basharti meni „ilib“ ketmasalar, albatta, tushamiz, – dedi u ham kulimsirab.

– Hech kimni yo'latmayman, – dedim men.

– Yelpig' ichni bering, axir, – dedi u.

Arzongina oq yelpig' ichni unga uzatib:

– Bergim kelmayapti, – dedim.

– Berishga qizg' ansangiz, mana sizga, – dedi-da, yelpig' ichdan bir pat yulib olib menga berdi.

Men patni oldim. Ammo xursandligim va tashakkurimni qarash bilangina bildira oldim, xolos. Shu damda men xursand va mammun, o'zimda yo'q shod edim. O'zimni yomonlikni sira bilmaydigan, faqat yaxshilik qildi-

<sup>1</sup>Epsoge – „tag in“ (frans).

<sup>1</sup>Alfons Karr – fransuz yozuvchisi.

gan allaqanday samoviy bir vujud deb fahmlardim. Patmi qo'limopim ichiga yashirib qo'ydim, uni tashlab ketishga ko'zim qiymay, yonida turib qoldim. U uy bekasi va boshqa xonimlar bilan eshik oldida turgan baland bo'yli, qomati kelişgan, yelkasida zarrin populkulari bor polkovnik otasi tomonga qo'llari bilan ishorat qilib:

— Anov yoqqqa qarang, dadam tansa qil, deb so'rayaptilar, — dedi. Shu vaqt boshimi inju jiyak bilan tang'igan, yelkalari Yelizavetanikiga o'xshash uy bekasining:

— Varenka, bu yoqqa keling, — degan ovozini eshitib qoldik.

Varenka eshik oldiga keldi, uning ortidan men ham bordim.

— *Ma chère*<sup>1</sup>, otangizga aytинг, siz bilan tansa tushsinlar, — dedi-da, so'ngra polkovnikka qarab. — Qani, Pyotr Vladislavich, marhamat qiling, — dedi uy bekasi.

Varenkaning daddasi chiroyli, uzun bo'yli, basavlat va tetik bir chol edi. Yuzi och qizil, à la Niccolas<sup>2</sup> oppoq, xushmo'ylov, oppoq bakenbardi mo'ylovgacha tutashib ketigan, chakkasidagi sochları oldingga qaratib taralgan. Chaqnab turgan ko'zları bilan lablari xuddi qizinkiga o'xshab mayin kulib turardi. Jussasi kelishgan, harbiy kishilarnikideko'tarilib turgan keng ko'kragida bir-ikkita nishon. Yag'rini keng, oyoqlari uzun va to'g'ri. Bu kishi Nikolay zamonasida mashq ko'rgan eski sipohlarg'a o'xshash askar boshlig'i edi. Biz eshik oldiga kelganimizda polkovnik, tansa tuşish esimdan chiqib ketgan, deb unamay turgan edi, ammo har qalay, qo'lini chap tomoniga tashlab kichkina qilichchasini qinidan sug'urib olib, yonidagi yoshgina mulozimiga berdi-da, o'ng qo'lidagi charm qo'iqopni tarang qilib tortarkan, kulimsirab, „Qoidasini o'miga

qo'ymoq kerak“, dedi va qizining qo'lidan ushlab, sal qayrib musiqa maqomini kutib turdi.

Mazurka kuyi boshlanishi bilan bir oyog'ini shaxdam tepib, ikkinchi oyog'ini esa yoniga tashlab, tansa tushib ketti. Uning baland, savlatli gavdasi goho sekin va ravon suzib, goho oyoqlarini bir-biringa urishibirib, yet tepinib zalni aylana boshladи. Varenkaning xushqomati uning oldida girillab aylanar, uning mo'jaz, oppoq va mayin oyoqlari dam katta, dam mayda qadam tashlab, yeldek uchardi. Zal-dagilar ikkisining har bir harakatini tomosha qilib turardi. Xususan, men zavqlanganimidan hayron bo'lib tomosha qildim. Ayniqsa, otasining betlik etigi, — yaxshi ukufa etik, lekin uchi cho'zinchoq moda etik emas, balki uchi to'mtoq, o'khchasi past eski zamон etigi. Aftidan, uni batalyondagi etikdo'z tikkan bo'lsa kerak. „Arzanda qizini yasantirmoq va to'y-tomoshalarga birga olib yurmoq uchun moda etik kiymasdan, balki xonakisini kiyar ekan“, — deb o'ylagan-dim, ammo to'mtoq uchli etigi menga juda yoqdi. Uning bir mahallar juda yaxshi tansa tushganligi ko'rimib turibdi, ammo hozir vazminlashib qolgan, oyoqlari chaqqon, chiroyli, ildam harakatlari endi qovushmay turardi. Lekin shunday bo'lsa ham u ikki marta juda yaxshi aylanib chiqdi. Oyoqlarini juda epchillik bilan ikki yoqqa kerib tashlab, so'ngra yana juftlashibirib, garchi sal qo'pollik bilan bo'lsa ham bir tizzasi bilan cho'kkalab o'tirdi, qiz esa otasiga ilashib qolgan yubbaskini rostlab, mayin jilmayib, uning atrofidan aylanib chiqqach, hamma baravariga qarsak urib yubordi. Otasi biroz qynalibroq o'mridan turdi-da, qizining boshidan muloyim va yoqimli quchoqlab peshonasidan o'pgach, men bilan tansa tushar, degan xayol bilan uni oldimga olib keldi. Shunda men, bu kishining jutfi men emas, dedim.

U yoqimli jilmayib turib qilichhasini qiniga solarkan:  
— Mayli, hechqisi yo'q, endi siz tushib ko'ring, — dedi.

<sup>1</sup> Ma chère – azizim (frans.)

<sup>2</sup> Nikolay I nikiga o'xshash (frans.).

Shishadan tushgan bir tomchi ketidan ichidagining hammasi sharillab to'kilib ketganidek, mening ko'nglimda ham Varenkaga bo'lgan muhabbat qalbimdag'i pinnona oshiqlik iqtidorini yechib yubordi. Shu choq men butun dunyoga muhabbat qo'ydim. Inju jiyak tang'igan bekani, uning Yelizavetaniki singari ko'kragini ham su'yib qoldim, uning erini ham, xizmatkorlarini ham, hatto men koyigan injener Anisimovni ham suyb qoldim. Xonaki etik kiygan, qiziga o'xshab muloyim kulgan otasidan esa shu on qandaydir mayin zavq olar edim.

Mazurka tugadi, mezonlar mehmnonlarni kechki ovqatga taklif qildilar, ammo polkovnik B. ertaga vaqtlik turishim kerak, deb xayrashib chiqib ketdi. Men qizni ham olib chiqib ketar, deb qo'rqib turgandim, lekin qizcha onasi bilan qoldi.

Kechki ovqatdan so'ng, va'dalashgan kadrlimizga tushdik, baxtiyorligimning poyoni yo'qday, baxtim borgan sari ochilayotganday edi. Bizlar muhabbatdan sira og'iz ochmadik. Meni sevadimi, yo'qmi deb o'zimdan ham, undan ham so'ramadim. O'zimming uni sevganim kifoya edi. Men biron voqeа bo'lib, baxtimni qora qilmasaydi, deb xavotir olardim, xolos.

Uyimga qaytib kelgach, yechinib uxlamoqchi bo'ldim, lekin ko'zlarg'a sira uyqu kelmedi. Qo'llimda yelpig'ichdan yulib olingan pat bilan qo'lqopi qolgan edi: jo'nab ketayotganida men avval onasini, so'ngra esa o'zini aravaga o'tqazayotganimda qo'lqopini menga bergen edi. Men bu narsalarga qarab ko'zimni yummasdan xayolimda uni ko'rardim. Goho ikki yigitdan birini tanlab, mening niyatimni bilmoqchi bo'lib o'ylanib turgan chog'i ko'zimga ko'rinnardi va „Mag'rurlikmi? Hali shundaymi“, – degan tovushlari qurog'imga kiradi. Quvonib qo'lini menga uzatgan chog'i, kechki ovqat ustida goho shampanskiy qadahini lablariga

tekkizib, mehribon ko'zlari bilan menga yer ostidan qarab turgan chog'lari ko'zimga ko'rinar edi. Lekin ko'proq ota-si bilan tansaga tushgan chog'i, otasining oldida xiromon yurishi, o'ziga ham, otasiga ham mahliyo bo'lib tomosha qilib turganlarga viqor bilan qarab turgan chog'lari ko'z o'ngimdan ketmasdi. Shunda men nozik va mayin bir xayol bilan ota-bolani beixtiyor bir tan, bir jon deb his qillardim.

U vaqtida marhum akam bilan birga turardik. Akam kiborlar suhbatini yomon ko'rar va bazmlarga bormas, kandidatlilik imtihoniga tayyorlanayotganligidan tinch umr kechirmoqda edi. Akam uyquda edi. Men uning yostiqqa mukka tushgan va yarmisi jun adyolga burkangan boshiga qarab juda achindim. Ko'nglimdag'i xursandligimni, mendagi baxtiyorlikni sezmaganaligiga, menga hamdamlash-maganligiga achindim. Xizmatkorimiz krepostnoy Petrusha qo'lida sham bilan meni kutib oldi. Kiyimimi yechib qo'ymoqchi bo'lgan edi, men unga ijozat berib, chiqarib yubordim. Uyqudan shishgan yuz-ko'zlar, paxmaygan sochlarini ko'rib ko'nglim buzilib ketdi. Tovush chiqarmay, deb oyoq uchida yurib o'z xonamga kirib, to'shakka yotdim. Yo'q, men haddan tashqari baxtiyor bo'lganligi-dan uxlayolmadim. Buning ustiga, uyning pechkasi yoqilgan ekan, uy juda isib ketdi. Mundirimni yechmasdan, asta yurib dahllizga chiqdim-da, shinelimni kiyib, tashqari eshkini ohib ko'chaga chiqib ketdim.

Ziyofatdan soat beshga yaqin ketgan edim. Uyimga kelib birpas o'tirgunimcha yana bir saat vaqt o'tdi. Shunday qilib, ko'chaga chiqqanimda kun yorishib qolgan edi. Havo ham bayram havosi, hamma yoqni tuman bosgan. Qorga yomg'ir aralashib, ko'chalar shulta bo'lgan, barcha tomlardan tomchi chakkilaydi. U mahalda B.lar shaharning bir chekkasida turishar edi. Yalanglikning bir tomoni sayil-goh, bir tomonida qizlar maktabi bor edi.

Men xilvattor ko'chamizdan yurib borib, katta ko'chaga chiqdim. Ko'chada menga piyodalar, yerga tegib borayotgan chanaga o'tin ortigan aravakashlar uchray bosholadi. Sirlangan do'ga ostida ho'l boshlarini solintitrib, salmoqlab borayotgan otlardan tortib, boshiga chipta yopimib, arava man ichida katta etikda shaloplak ketayotgan aravakashlar, tuman ichida baland bo'lib ko'ringan uylar ham menga juda yoqimli va ma'nodor bo'lib ko'rinar edi.

Ullarning uylari oldidagi yalanglikka chiqqach, yalanglikning oxiridagi sayilgoh tomonda qandaydir ulkan qora bir narsani ko'rdim, shu payt qulog'imga may bilan nog'ora ovozi eshitildi. Yuragim hamon xonish qilmoqda, qulog'imga goho mazurka kuyi kiradi. Lekin bu allaqanday rahmsiz, noxush musiqa ovozi edi.

„Nima bo'lsa ekan!“ – deb o'yladim va yalanglikning o'rtasiga tushgan sirg'anchiq yo'ldan ovoz kelgan tomonga qarab yurdim. Yuz qadamcha yurgach, tuman orasidan qora kiyingan bir talay odamni ko'rdim. Soldatlarga o'xshaydi. Mashq qilayotgandirilar, – deb o'yladim. Moy bosganimcha po'stin ustidan fartuk tutgan va oldimda bir nima ko'tarib kelayotgan temirchi ikkovimiz ularga yaqin keldik. Qora mundir kiygan soldatlar ikki saf bo'lib, miltiqlarini yonlariqa qilib, ikki yoqda qimirlamay turibdilar. Bularning orqasida nog'orachilar bilan naychilar hamon o'sha yoqimsiz va xunuk mashqlarini chalmoqdalar.

Yonimga kelib to'xtagan temirchidan:

– Ular nima qilayotilar? – deb so'radim.

Temirchi ko'zlarini safning oxiridan uzmay:

– Qochgani uchun birtatarni sazoyi qilyaptilar, – dedi.

Men ham temirchi qaragan tomonga qarab saf orasida menga yaqinlashib kelayotgan allaqanday dahshatlari bir narsani ko'rdim. Menga tomon kelayotgan narsa beligacha yalang'och va uni yetaklab kelayotgan ikki soldatning

miltiqlariga bog'langan bir kimsa ekan. Uning yonida shin va shapka kiygan uzun bo'yi harbiy bir odam kelardi. Bu kishining qiyofasi tanishdek ko'rindi. Sazoyi qilingan bechora erigan qorni shilp-shilp bosib, har ikki tarafдан tushgan kaltak zarbidan gandiraklab, menga qarab kelmoqda. U kaltak zarbidan o'zimi orqaga taishlasa, uni miltiqqa bog'lab yetaklab kelayotgan unter-ofitserlar oldinga itaradilar, oldinga tashlansa, yiqilgani qo'ymasdan orqaga tortar edilar. Uzun bo'ysi, harbiy kishi keyinda qolmasdan gursgars qadam tashlab bormoqda. Qizil yuzli, oq mo'ylovli va oq bakengardli bu odam uning otasi ekan.

Har kaltak tushganda sazoyi qilingan tatar go'yo hayron bo'lqandek, azobdan qiynalib burishgan yuzini kaltak tushgan tomonga burar va oppoq tishlarini g'ijirlatar, hadeb bir narsalar deb g'o'idirar edi. Uning nima deyayotganini yaqin kelganidagina payqadim. U gapirmas, balki piqillab yig'lab: „Og'alar, rahm qilinglar, og'alar, rahmingiz kelsin“, derdi. Ammo og'alar rahm qilmasdilar, sazoyi qilin-gan mening ro'paramga kelganda qarshimda turgan soldat oldingga shaxdam qadam tashlab chiqib, kaltakni shig'ilabit tatarning orqasiga shunday soldiki, tatar oldinga munkib ketidi, lekin unter-ofitserlar uni ushlab qoldilar. So'ngra shunday kaltak har tarafidan tusha berdi... Yonida ketayotgan polkovnik goh oyog'i ostiga, goh sazoyi qilinganga qarab, lunjimi shishirib pishillab bormoqda. Sazoyi men turgen joydan o'tib ketganidan keyin, saflar orasidan uning yelkasiga ko'zim tushib qoldi. Bu allaqanday ola-bula, ho'l, qip-qizil g'ayritabiy bir narsa edi. Buning odam tarsi ekanalligiga ishommadim.

Yonimda turgan temirchi:

– Yo, Parvardigor! – deb yubordi.  
Ular bizzdan uzoqlashib ketdi. Bukchayib, gandiraklab ketayotgan odamning ustiga hamon ikki soldatning

yog' ilmoqda. Nog'ora bilan nay hali ham mashq qilishini qo'ygan yo'q, baland bo'yli, gerdaygan polkovnik hamon sazoyi qilinganning yonida bormoqda. Polkovnik birdan to'xtab, soldatardan birining oldiga yaqin keldi, shunda uning:

– Ha, ha, hali ayab uradigan senmi? – degan g'azabli so'zları qulog'imga kirdi.

Past bo'yli, quti o'chgan, darmonsiz soldat tatarning ko'karib ketgan orqasiga sekinroq kaltak urgani uchun qo'lqop kiygan baquvvat qo'li bilan uning yuziga tarsaki tushirganini o'z ko'zim bilan ko'rdim.

Polkovnik:

– Boshqa tayoq keltiriring! – deb baqirdi-da, atrofiga alanglab menga ko'zi tushib qoldi. Meni tanimagandek bo'lib, dahshat va g'azab bilan xo'mrayib, darrov yuzini mendan testkari o'girdi. Men esam, juda uyut bir ish qilib qo'yganday, o'sal bo'lib, nima qilarimni bilmay, yerga qaradim-da, tezroq uyga qaytdim. Yo l-yo'lakay qulog'imga goho nog'oruning taraqqlagan ovozi, nayning chiyillagan tovushi eshitilgandek bo'lar edi, goho; „Og'a-lar, rahm qilinglar!“ degan so'zlar eshitilib, goho esa polkovnikning; „Ha, ha, hali ayab uradigan senmi?“ deb g'azab bilan baqirgan so'zları qulog'im ostida shang'illar edi. Yuragim ezilib, shunday g'ash bo'Idiki, yurolmay bir necha marta to'xtab qoldim. Nazarimda, bu manzaradan ko'ngilga o'mashgan dahshatlar hali zamон meni yo'q qilib yuboradiganga o'xshardi. Uyimga qanday yetib borib, to'shakka qanday cho'zilganimni ham bilmayman. Biroq ko'zimni yumishim bilan, ko'rganlarim ko'z ol-dimga kelib, eshitgan gaplarim qulog'im tagida jarang-lab, sakrab o'mimdan turdim.

Polkovnik to'g'risida men: „U men bilmagan bir narsani biladiganga o'xshaydi, – deb o'yladim. – Agar u bil-

ganni men ham bilsam, u narsani tushungan bo'lar edim, ko'rganlarim esa meni bunchalik qiyannagan bo'lar edi“ . Ammo men har qancha o'ylamayin, polkovnikning bil-ganlarini bilolmadim, oshnamnikiga borib, xo'p ichishib, mast bo'lib kechqurun andak uxladim.

Xo'sh, sizlar nima deb o'ylaysizlar, ko'rgan voqeasi-ni yaramas bir ish deb hukm qilgandir, deb o'ylaysizmi? Hech unday emas. „Modomiki, bu ish shunchalik ishonch bilan qilinib, hamma uni zarur deb topar ekan, bas, ular men bilmagan bir sirmi bilsalar kerak“, deb o'ylab, bu sirmi bilishga urindim. Ammo qanchalik urimmayin, keyin ham hech bila olmadim. Buni bilmay turib istagim bo'lgan har-biy xizmatga kirolmadas edim, balki harbiy xizmatgina emas, hatto hech qanaqa xizmatga kirolmadiim, mana endi hech narsaga yaramasligimni ko'rib turibsiz.

– Qo'ysangiz-chi, yarash-yaramasligingizni bilamiz, – dedi hamisuhbatlarimizdan biri, – yaxshisi, agar siz bo'Imasangiz, qancha odam hech narsaga yaramay qolardi, shuni aytинг, – dedi.

Ivan Vasilyevich bu gapdan qattiq xafa bo'lib:

– Bu gaplar borib turgan ahmoqlik, – dedi.

– Xo'sh, oshiqlik masalasi nima bo'ldi? – deb so'radik. – Muhabbat! Muhabbat shu kundan boshlab susaya boshladi. Ma'shuqam har vaqtgagidek ijayib xayolga cho'mgan chog'larida, yalamlikdagı polkovnik darrov yodimga tushib, allaqanday bo'lib ketardim, u bilan kam-dan kam uchrashadigan bo'lib qoldim. Muhabbat ham shunday qilib barham topdi. Ana shunaqa gaplar, odamning butun hayoti ham shunaqa qilib o'zgarib boshqa yo'lga tushib ketadi. Siz deysizki... – dedi-da, shu bilan gapini tamom qildi.

*Yasnaya Polyana,  
1903-yil, 20-avgust.*

*Adabiy-badiiy nashr*

HEY TOY STORY

MUNDARIA

Nashriyotdan.....	3
Ivan Illichning o'limi.	
<i>H. Sattoriy tarjimasi</i> .....	5
Uch o'lim. M. Aliyev tarjimasi.....	78
Xo'jayin va xizmatkor.	
<i>K. Po'latov tarjimasi</i> .....	96
Baldan so'ng.	
<i>M. Alimuhammedov tarjimasi</i> .....	161

Oissa va hikovalar

Tarijmonlar:

H. Sattori, M. Aliyev, K. Po'latov,  
N. Alimuhamedov

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
26.03.2020 bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x1  
Offset qog'oz'i. "Times" garniturasida ofset usulida bo'  
Shartli bosma tabog'i 9,24. Adadi 5000. Sharhnoma №  
Buyurtma raqami 332-20.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepqa tumani, 23-mavze, 42-uy.  
"Ziyo nashr"

«Credo Print» MChJ  
kitob fabrikasida chop et  
Toshkent sh., Bog'ishamoli  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

Tolstoy, Lev.

T 64 Ivan Ichning o'llimi. [Matn]: qissa va hikoyalari / Lev Tolstoy;  
tarjimonlar: Hakim Sattoriy va b. - T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti,  
2020. - 176 b.

ISBN 978-9943-6339-5-7

UO'K: 821.161.1-3  
KBK 84(2Rus)

Na:

Iva

H.

Ucl

Xo'

K. I

Balc

M. A

Na:

Iva

H.

Ucl

Xo'

K. I

Balc

M. A

Na:  
Iva  
H.  
Ucl  
Xo'  
K. I  
Balc  
M. A


Na:  
Iva  
H.  
Ucl  
Xo'  
K. I  
Balc  
M. A

Na:  
Iva  
H.  
Ucl  
Xo'  
K. I  
Balc  
M. A

LEV TOLSTOY

# IVAN Ilichning O'LIMI

„Faqtat o'zini o'ylab yashash mumkin emas, bu o'lim, xudbinlik – tentaklik“ ekanligini anglagan Ivan Ilich qazo ostonasida ilk marta atrofida odamlar borligini, ularni ham o'ylash, ular uchun ham nimadir yaxshilik qilish lozimligini tan oladi: o'g'liga va xotiniga „rahmi keladi“, ular uchun biror yaxshilik qilishni xohlaydi, afsuski, buning iloji yo'q: ajal gribonidan olib turibdi. Shunda u yorug' olamni tark etish bilan o'g'li va xotininining mushkulini oson qilishi mumkinligini e'tirof etadi: „Ularga shafqat qilish lozim, shunday qilish kerakki, ular azob chekishmasin“. Vaqt ziq, uning qo'lidan bor-yo'g'i shu keladi.

ISBN 978-9943-6339-5-7  
  
9 789943 633957



t.me/zyonashr  
fb.com/zyo.nashr  
zyonashr@mail.ru  
@